

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**TOJIXON SABITOVA, AKBAR KAROMATOV**

**ONA TILI. 8-SINF O'QITUVCHILARI UCHUN USLUBIY QO'LLANMA**

(Maktab o'qituvchilari uchun uslubiy qo'llanma)

**TOSHKENT – 2023**

**UDK 821.2.3**

**KBK 84.4(5O'zb)**

**C-36**

*Ushbu uslubiy qo'llanma Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti ilmiy kengashining 202...-yil 29-iyundagi 12-sonli majlisida tasdiqlangan.*

**Taqrizchilar:**

**N. Abdurahmonova** – O'ZMU, O'zbek tilshunosligi kafedrasi professori (v.b), DSc.

**T. Yandashova** – O'ZMU, O'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.

**A. Davlatova** – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, f.f.d.

**Mas'ul muharrir:**

**N. Raxmanova** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, xalq ta'limi a'lochisi.

**Sabitova T. va b.**

Ona tili. 8-sinf o'qituvchilari uchun uslubiy qo'llanma [Matm]: uslubiy qo'llanma/T.

Sabitova, A. Karomatov. – Toshkent: “Firdavs-Shoh” nashriyoti”, 2023. - 120 b.

Mazkur uslubiy qo'llanmada 8-sinf ona tili darsligiga kiritilgan “Matn va lug‘atlar ustida ishlash” mavzusi va shu mavzu asosida tuzilgan topshiriq va mashqlarni o'quvchilar to'laqonli tushunishi va ko'nikma shakillangan holda bajarishlari uchun o'qituvchilarga mavzular doirasidagi uslubiy qo'llanma.

ISBN 978-9943-9713-0-3

© T.Sabitova, A.Karomatov, 2023

© «Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2023

## 1-SENTABR – MUSTAQILLIK KUNI

### KIRISH

#### 1-dars

#### “SO‘ZDAN SO‘ZNING FARQI BOR...”

##### 1-topshiriq. Hikmatlarni o‘qing va mag‘zini chaqing.

1. Boshimizga kulfat va zahmatlarning aksari yomon tilimizdan, me’yordan ortiq so‘ylaganimizdan kelur. 2. Viqor deb kibr va g‘ururdan, manmanlikdan o‘z fe’lini saqlamoqqa aytilar. 3. Intizom deb ibodatlarimizni, ishlarimizni o‘z vaqtida tartibi ila qilmoqqa aytilar. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa ham yasholmas edilar. 4. Iffat deb gunoh va buzuq ishlardan saqlanmoqqa aytilar. Bizni gunohdan saqlaguvchi, harom-harishdan nafsimizni asrovchi narsa faqat iffatimizdir. 5. Hayo deb ishda, so‘zda odobga rioya qilmoqni aytilar. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdurki, inson har vaqt shul ma’naviy nurning ziyyosiga muhtojdir.

(Abdulla Avloniy)

**1-mashq.** Quyidagi izohlardan a) *viqor*, b) *kibr*, c) *g‘urur*, d) *gunoh*, e) *iffat*, f) *harom-harish*, g) *hayo*, h) *ma’naviy*, i) *ma’naviyat*, j) *ziyo*, k) *odob* so‘zlarining ma’nosini aniqlab lug‘at daftaringizga ko‘chiring:

- 1) vijdoniy poklik, nomus;
- 2) mag‘rurona va ulug‘vor ko‘rinish, salobat;
- 3) o‘zini hammadan yuqori his etish; manmanlik, kekkayish hissi;
- 4) insonning o‘z qadr-qimmatini bilishi, hurmat qilishi; izzat-nafs;
- 5) odob-axloq doirasiga sig‘maydigan ish, nojo‘ya xatti-harakat; ayb;
- 6) nopok, iste’molga yaramaydigan;
- 7) nojo‘ya, noma’qul xatti-harakatdan tiyilish hissi; uyat, sharm;
- 8) bilim, ilm, ma’rifat;
- 9) axloqqa, shaxsning ichki dunyosiga oid;

<b>g) hayo</b>	1) vijdoniy poklik, nomus;
<b>a) viqor,</b>	2) mag‘rurona va ulug‘vor ko‘rinish, salobat;

<i>b) kibr,</i>	3) o‘zini hammadan yuqori his etish; manmanlik, kekkayish hissi;
<i>c) g‘urur,</i>	4) insonning o‘z qadr-qimmatini bilishi, hurmat qilishi; izzat-nafs;
<i>d) gunoh,</i>	5). Odob-axloq doirasiga sig‘maydigan ish, nojo‘ya xatti-harakat; ayb;
<i>f) harom-harish,</i>	6) nopol, iste’molga yaramaydigan;
<i>e) iffat,</i>	7) nojo‘ya, noma’qul xatti-harakatdan tiyilish hissi; uyat, sharm;
<i>j) ziyo,</i>	8) bilim, ilm, ma’rifat;
<i>h) ma’naviy,</i>	9) axloqqa, shaxsning ichki dunyosiga oid;
<i>i) ma’naviyat,</i>	
<i>k) odob</i>	10) ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi yaxshi axloq, tarbiya, xushmuomalalik.
<b>VIQOR</b> [a. – jiddiylik, salobat, ulug‘vorlik] kt. 2) Mag‘rurona va ulug‘vor ko‘rinish; salobat.	
* <i>Vodiydan o‘tardi daryoyi azim, Vazmin oqishida salobat, viqor. S. Abduqahhor.</i>	
* <i>Qorday yarqiroq yangi salsa o‘ragan maxdum viqor bilan yo‘talib, mehmonxonaga kirdi. H. G‘ulom, Mash’al.</i>	
* <i>Mag‘rurlik tuyg‘usi, mag‘rurlik, g‘urur. Qiyoferidan g‘oliblik viqori va mag‘lub bo‘lganga shafqat aks etib turardi. S. Anorboyev, Oqsoy.</i>	
* <i>Oynaning ostida, muzey to‘rida Shishada turadi bir siqim tuproq.. Uni ko‘rganlarning ko‘ksi tog‘ bo‘lib, Ko‘zida tengi yo‘q viqor yonadi. Shuhrat.</i>	

**KIBR** [a. – mag‘rurlik, kattalik, takabburlik] 3) O‘zini hammadan yuqori his etish; manmanlik, kekkayish his-tuyg‘usi.

\* *Olifta boyvachcha kibr va ahmoqona g‘ururi ila kresloda taltaygancha qoldi. Oybek, Nur qidirib.*

3). *Kibrlanish tuyg‘usi, mag‘rurlik, kibr-havo.*

\* *Olifta boyvachcha kibr va ahmoqona g‘ururi ila kresloda taltayganicha qoldi. Oybek, Nur qidirib.*

\* *Gapingning tuzi qursin, qizim! G‘urur g‘urbatga solar, degan naqlning mag‘zini chaqsang-chi. J. Abdullaxonov, Tong yorishgan sohilda.*

\* Kamtarin bo'l, hatto bir qadam O'tma g'urur ostonasidan. **E. Vohidov, Muhabbatnomा.**

**G'URUR** [a. – jaholat; xom (puch) xayol; manmanlik, mag'rurlik; kibr-havo] **5)**  
Insonning o'z qadr-qimmatini bilish, uni hurmat qilish hissi; izzat-nafs. Yigitlik g'ururi. Qizlik g'ururi.

\**Uning insoniy g'ururi, tabiatining nozikligi.. yordam so'ramoqqa yo'l qo'yagan. Oybek, Navoiy.*

\**Ahmad o'rtog'iga qoyil qolmadi. Erkak kishida g'urur degan narsa bo'lishi kerak. F. Musajonov, Himmat.*

\**Ziyolilar orasidan bir mard chiqib, o'z milliy g'ururini himoya etishga harakat qildi. Bu kishi Sebzor dahasining qozisi Muhiddinxo'ja Hakimxo'ja o'g'li edi. «Fan va turmush».*

### **GUNOH – [f. – ayb]**

**6).** *Din. Shariat qonuniga, diniy aqidalarga xilof ish, xatti-harakat.*

\**Domla g'uldiragan ovoz bilan po'pisa qildi: -Xudonshg qudratiga shak keltirmang. Gunohingizni orttirasiz. Sizning hamma qilmishingiz gunoh. P. Tursun, O'qituvchi.*

\**Kalomi sharifda yozilishicha, yig'i-sig'i ollo taoloning irodasiga qarshi borish bilan barobar gunohdir. K. Yashin, Hamza.*

*Odob-axloq doirasiga sig'maydigan ish, nojo 'ya xatti-harakat; jinoyat; ayb. - Nima gunoh qilibdi shu go'dak – deb o'yladi Normat. I. Rahim, Chin muhabbat.*

\**Bir bechoraga tuhmat qilishsa-yu, bila turib, ko'ra turib, jim o'tirsam, gunoh bo'lmaydimi M. Ismoiliy, Farg'ona t.o.*

\**Otabeklar nega qamaldilar, qanday gunohlari bor ekan A. Qodiriy, O'tgan kunlar. -Shoshmang, dada, – Gulnor uning so'zini kesib qichqirdi. – Nega Yo'lchiga jazo berasiz, unda hech gunoh yo'q. Oybek, Tanlangan asarlar.*

\**Gunohidan o'tmoq yoki gunohini kechirmoq Gunoh yoki ayb ish qilgan kishini kechirmoq, afv etmoq. Xolxo'jaga yigit bo'lganining esingdan chiqdimi Hukumat gunohingdan o'tdi-ya. S. Ahmad, Hukm.*

\**Besh yillik o'zgarishdan so'ng domla mudarris Abdurahmonning eski gunohlarini kechirgan edi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.*

\**Gunohini yuvmoq O'zini oqlab, ayb, gunoh, kamchiliklardan forig 'bo'lmoq. -Xudo nasib qilsa, hajga ketib, gunohlarimni o'sha yoqda yuvib kelaman, deb niyat qildi otam, – dedi Hoji xola.* **M. Ismoiliy, Farg'ona t.o.**

\**Gunohga botmoq Gunoh, ayb ish qilmoq; gunohkor bo'lmoq. Bir mahal qotillar qo'llarida zambil bilan yana paydo bo'lishdi. Xuddi qo'llari tegsa, «harom» bo'lib, o'zлari gunohga botadigandek, jirkanib turib, jasadlarni zambillarga solishdi.* **K. Yashin, Hamza.**

\**Gunohi azim, Katta gunoh, ayb.*

\* *Umar polvon o'ylanib qoldi, anchadan keyin tilga kirdi: -Qur'on – tabarruk kitob, uni xor qilish – gunohi azim.* **K. Yashin, Hamza.**

**IFFAT** – [a. – bokiralik, pokizalik; yaxshi xislat; tiyilish] **1) Vijdoniy poklik; nomus, hayo.**

\**U – [Aziza] muhabbatdek sof, qizlik iffatidek beg'ubor kishilar safiga qo'shiladi.* **S. Ahmad, Myhabbatning tug'ilishi.**

\**Uy burchagida, shohi so'zana yonida, iffat yuzasidan yuzini yashirib Mayna o'tiradi. Sh. Toshmatov, Erk qushi. O'zbekning xotinlari iffat uchun yaralgan. «Yoshlik».*

## A)

**-HARISH** – [harom + f. • – qayt qilish; qusuq] **7) Harom narsalar, harom ish, qilmishlar.**

\* *-Do'xtirxonasi qursin, harom-harishni farq qilmaydi.. – dedi Savrinisa Xolnisa xolaga.* **Mirmuhsin, Chiniqish.**

\**Harom-harishga aralashib yurib, sen ham charvi bog'lab qoldingmi Uyg'un.*

\**Hurriyat. ..tuproqda o'tganlarning ruhi bor. Bizni ana shu haromharishlardan asrab kelgan, bolam.. «Yoshlik».*

## B)

**HAROM** – [a. – foydalanish, iste'mol etish shar'an man etilgan narsa; muqaddas; noqonuniy]

1. din, Shariat hukmiga muvofiq yeyish, ichishga, foydalanishga yaramaydigan, halol emas.

\* Eshakning kuchi halol, go'shti harom deganlaridek.. U Ashir bilan qo'l berib so'rashishga hazar qilibdi. Chunki Ashir cho'chqaboqar-da! Balki cho'chqa shariatda harom maxluq hisoblangani uchun undan hazar qilgandir. **S. Anorboev, Oqsoy.**

\* Harom o'lmoq – So'yilmasdan, biror ka-sallik yoki boshqa sabab bilan o'lmoq (go'shti yeyiladigan hayvon va qushlar haqida; bunday hollarda ularning go'shtini yeyish man etiladi, ya'ni harom hisoblanadi).

\*Qo'ychivon ko'p bo'lsa, qo'y harom o'ladi. **Maqol.**

\*Otamning «Chemberlen» degan echkilari bor edi, harom o'lay deganda, bo'g'ziga pichoq tortib yuborganlar. **S. Ahmad, Hukm.**

\* Harom qilmoq Harom holga keltirmoq. Kel, quturgan itlar harom qilmasdan turib, shu toza yuzlaringdan oxirgi martaba o'pay! Hamza, Boy ila xizmatchi. Qizishmang! Tabarruk qilichingizni bu iflosning qoni bilan harom qilmang! **Uyg'un va I. Sulton, Alisher Navoiy.**

\* 2.Shariat bo'yicha, an'ana yoki tartib-qoidalarga ko'ra man etilgan ish, xatti-harakat; shu yo'l bilan topilgan narsa; hayotida shunday yo'l tutuvchi kimsa. To'g'ri bo'l, haromdan hazar et, degansiz. Yig'lab turgan g'aribning yoniga kir, ko'nglini ol, degansiz. **S. Siyoev, Avaz.**

\* Jinoyatchilik yo'li bilan topgan harom pulingiz hisobiga yegan ovqatlarimizdan hali ham o'qchib yuribmiz. **«Mushtum».**

\* Shunaqa harom odamlar o'z egalariga yaxshi xizmat qiladilar..  
**Mirmuhsin, Me'mor.**

3. s.t. Jinsiy munosabatdan so'ng g'usl qilmagan, cho'milmagan.

4.Foydalanish mumkin bo'limgan, esiz ketgan narsalarga nisbatan qo'llanadi. U bu majlisga Saidg'ozi bilan birga kechalari uyqusini harom qilib tayyorlandi. **S. Anorboev, Oqsoy.**

\* ..yo haftada bir keladigan dam olish kunini ham haromga chiqarib, bozoro 'char qilsinmi **T. Alimov**,

\* Ishqilib, o'qimagan bo'lsin-da! Endi bu yerlar bizga harom bo'libdi, Bu arab yurtida bizga nima bor. **«Bahrom va Gulandom».**

**HAYO** – [a. – *uyat, sharm; or, nomus; kamtarlik, adab*] 8) *Nojo ‘ya, noma’qul xatti-harakatdan tiyilish hissi; uyat, sharm.*

\* *Vafosizda hayo yo‘q, Hayosizda vafo yo‘q. Maqol.*

\* *Hayo – insonning eng olivjanob fazilati, uning ko‘rki, bezagi. S. Karomatov, Vobkentlik oshiq.*

\* *Odamda or-nomus, hayo bo‘lishi kerak, Jo‘raxon! Axir eringiz bor-a!* M. Ismoilov, Farg‘ona t. O

\* *Hayo qilmoq – kam qo‘ll. Uyalmoq. Shoir qalbi bilan ba’zan ko‘zimni Qizlarga burishdan qilaman hayo. Shukrullo, Javohirlar sandig‘i.*

**MA’NAVIY** – [a. – *ma’noviy; aqliy; mavhum; axloqiy*]

1). *Ma’naviyatga oid, ma’naviyat, axloq bilan bog‘li – q. Ma’naviy meros. Ma’naviy qiyofa. Ma’naviy kamolot.*

\* *Hayotning so‘qmoqlaridan o‘tishga ojiz, har bir arzimas qiyinchilik oldida esankiraydigan, ma’naviy qashshoq odam ekanligimni endi bildim.* S. Ahmad, Cho‘l burguti.

\* *Oybekning qalamiga mansub asarlar allaqachon qardosh xalqlarning ma’naviy mulkiga aylangan. Gazetadan.*

2). ayn. *Ma’nan. Nazarni aybsitishga hyech kimning ma’naviy haqqi yo‘ – q.* E. Usmonov, Yolqin.

\* *Yoshlar o‘rtasidagi ma’naviy tubanlashishning asosiy manbalaridan biri G‘arbda ishlangan axloq va odobga zid bo‘lgan filmlarni ko‘rish bo‘lib qoldi.* E. Yusupov, Istiqlol yo‘lida.

\* *Ma’naviy zarar Muayyan shaxsning sha’ni, qadr-qimmatiga dog‘ tushirish, ishbilarmonlik obro‘siga putur yetkazish.*

**MA’NAVIYOT** – [a. – *axloqiy holat; barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar*]

\* *Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va sh.* K. Tasavvurlari va tushunchalari majmui.

\* *Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hyech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi.* Gazetadan.

\* ..*ma’naviyatimizga ta’sir etuvchi jihatlar shunchalik ko‘pki, ularni sanab, sanog‘iga yeta olmaymiz.* Gazetadan.

\* Zero, naqshbandiya ta'limoti – ma'naviyatimiz sarchashmalaridan biri hisoblanadi. Gazetadan. Ajdodlarimiz falsafasi ham ma'naviyatimizdir. **Gazetadan.**

\* Biz talabalarga Sharq ma'naviyatining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni haqida o'rgatamiz. **Gazetadan.**

**ZIYO – (a). – nur; yiltirash] –**

1). ko'chma Bilim, ma'rifat, ilm; ongni yorituvchi har qanday narsa.

\* U – kitob inson ongini peshlab, ziyo sari yo'lini nurafshon qiluvchi mash'al ekanligi azaldan ma'lum. **Gazetadan.**

\* Guli: -- G'azal ermas, bu bir mehri giyodur, Munavvar aylagan dilni ziyodur. **Uyg'un va I. Sulton, Alisher Navoiy.**

\* Gap odamlarning nomida emas, albatta. Gap respublikada ziyo tarqatib kelayotgan muhtaram o'qituvchilarimiz, ularning beminnat, lekin mashaqqatli mehnatidadir. **N. Safarov, Olovli izlar.**

2). Ziyo (erkaklar ismi).

## 2-dars

### ADABIY NUTQ ME'YORLARI. NUTQNING KO'RINISHLARI

#### 6-mashq. Quyidagi izohlardan

a) uslub, b) malaka, c) sheva, d) targ'ibot, e) adabiy so'zlarining ma'nosini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring ba uni og'zaki bayon qilishga tayyolaning:

1) biror g'oya, ta'limot va shu kabilarni yoyishga, kishilar ongiga singdirishga qaratilgan ishlar;

2) til unsurlarining ma'lum vazifa bajarishiga bog'liq holda birlashadigan, o'ziga xoslanlanadigan tizimi;

3) badiiy adabiyotga, badiiy ijod faoliyatiga oid;

4) bilim va kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba; mahorat;

5) umumxalq tilining ma'lum hududga xos tarmog'i, mahalliy til.

*(Yuqorida izohlanishini talab qilyotgan so'zlar 2-topshiriqda berilgan uslublar haqidagi matindan olingan. Foydalanish uchun matnga qaralsin).*

<b>a) uslub,</b>	2) til unsurlarining ma'lum vazifa bajarishiga bog'liq holda birlashadigan, o'ziga xoslanlanadigan tizimi;
<b>b) malaka,</b>	4) bilim va kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba; mahorat;
<b>c) sheva,</b>	5) umumxalq tilining ma'lum hududga xos tarmog'i, mahalliy til
<b>d) targ'ibot,</b>	1) biror g'oya, ta'limot va shu kabilarni yoyishga, kishilar ongiga singdirishga qaratilgan ishlar;
<b>e) adabiy</b>	3) badiiy adabiyotga, badiiy ijod faoliyatiga oid;

**USLUB – [a]. USLUBIY – Uslubga oid. Uslubiy xato.**

\* San'at turlarining uyg'unlashuvi uchun umumiyl uslubiy xususiyatlarning mavjudligi zaruriy shart hisoblanadi. «Saodat».

**MALAKA** – [a. – qobiliyat, iste'dod; xususiyat, odat] Kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba, ko'nikmalar; mahorat. Malaka hosil qilish. Malaka oshirish.

\* Qambar kelib, o'zining malaka orttirgan xizmatini bajara boshlagach, Yo'lchi qorong'i supadagi taqir namat ustiga cho'zildi. Oybek, Tanlangan asarlar.

\* Jangchilar zarur bo'lgan malakani orttirishi bilanoq beto'xtov frontga yuboriladi, deb taxmin qilgan edi. **A. Qahhor, Oltin yulduz.**

**SHEVA I f. – usul, tarz; uslub; odat; odatlanganlik**

1. tlsh. Umumxalq tilining ma'lum hududga xos tarmog'i, mahalliy til.

*O'zbek tilining Farg'ona shevasi. Turli shahar va qishloqlardan kelganliklari turlicha kiyim va shevalaridan bilinib turgan yoshyosh yigitqizlar konferenszalning ichisirtini to 'ldirib yuborgan edi. **P. Qodirov, Uch ildiz.***

*\*O'z qavmlari va asl o'zbeklar bo 'lmish qamishkapaliklarni domla dag 'al nom bilan tahqir qilar va ularning shaharliklarnikidan anchayin farqli bo 'lgan sheva tillarini masxaralar edi. **P. Tursun, O'qituvchi.***

**2. ayn. Til**

*3. O'zbek shevasida she'r o'qilarkan, Qalblarning qa'rida hislar uyg'onar. Vatan maqtovlari kirib quloqqa, Zal chayqalar – odam to 'pi to 'lg'anar. **S. Akbariy.***

*\*«Afandi» demak – turk shevasida «muallim» demakdir. **H. G'ulom, Mash'al.***

*4. kam qo 'll. So 'z. Seni ham domiga tortmoq bo 'ladi Sevgi deb atalgan bu eski sheva. **G'. G'ulom.***

*\*Bosh egib tonglardan tonglargacha to Vijdon shevasiga tashbih izlaymiz. **R. Parfi.***

**TARG'IBOT - [a].** *TARG'IB – [a. – xohishni, qiziqishni kuchaytirish; rag'batlantirish]- targ'ib qilmoq (yoki etmoq) –*

*1) chuqur tushuntirish yo 'li bilan biror g'oya, ta 'limot va sh.k. ni yoymoq, kishilarning ongiga singdirmoq; shunga undamoq.*

*\*O'zbek adabiyoti yutuqlarini.. targ'ib qilishda A. Hayitmetov katta hissa qo 'shmoqda. «O'TA»;*

*2) tushuntirish yo 'li bilan biror ishga chaqirmoq, da 'vat etmoq.*

*\* ..paranji tashlashni targ'ib qilgan, ayrimlarning boshidan chachvonini olib, o 'tga uloqtirgan ekan. **J. Abdullaxonov, Xonodon.***

**ADABIY — 1).** *Badiiy adabiyotga oid. Adabiy asar. Adabiy meros. Adabiy oqim.*

**2.** *Yozuvchilarga, yozuvchilik faoliyatiga oid. Adabiy hayot. Adabiy muhit. Adabiy taxallus.*

## 1-BO‘LIM

### O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

3-dars

#### MUSTAQIL SO‘Z TURKUMLARI

#### SHARAFLI BURCH

**9-mashq.** Rivoyatni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Bir kuni **mavlono** Alisher Navoiy mulozimlari bilan otda uzoq tog‘ sayridan qaytib kelayotgan edi. Yo‘l qabriston oralab o‘tar ekan. Qabristonga yuz qadamlar qolganda mavlono otdan tushib, boshini quyi solib yo‘lida davom etibdi. Mulozimlari ham otlaridan tushib, uning ortidan ergashibdilar. Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlariga minib, yo‘lda davom etishibdi. Biroz yurishgandan so‘ng **mulozimlar** shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so‘rabdilar. Alisher Navoiy ancha vaqt sukut saqlab turibdi-da, keyin mulozimlaridan norozi ohangda shunday deb javob beribdi:

— Bu yerda xalqimizning **jigargo‘shalari**, tabarruk **padari** **buzrukvorlari** mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib, changitib o‘tish insonlik sha’niga isnoddir, nahotki shuni ham bilmasalaring? Buni bilmaslik – tiriklikdagi o‘liklik. Otabobolarimiz **xokini**, xotirasini e’zozlamoq har bir kishining sharaflı burchidir.

Mulozimlar otasi oldida ayb ish qilib qo‘ygan boladek to Hirotning qorasi ko‘ringuncha tillarini tishlab, aqlini **peshlab** boribdilar.

(*Qudrat Hikmat*)

**10-mashq.** Matndagi ajratilgan so‘zlarni lug‘at daftaringizga yozing. Quyidagi izohlardan ularga mosini tanlang:

- 1) eng yaqin kishi, tug‘ishganday yaqin birodar; farzand;
- 2) cheksiz hurmatga loyiq ota;
- 3) olim va fozil kishi;
- 4) o‘tmishda amaldorlar xizmatida bo‘lgan kishi; 5) mayda tuproq; tuproqqa aylangan inson jasadi;
- 6) asboblar tig‘i, damini tiklamoq; aql-idrokni o‘stirmoq.

<b>Jigargo‘sha</b>	1) Eng yaqin kishi, tug‘ishganday yaqin birodar; farzand;
<b>Padari buzrukvor</b>	2) Cheksiz hurmatga loyiq ota;
<b>Mavlono</b>	3) Olim va fozil kishi;
<b>Mulozim</b>	4) O‘tmishda amaldorlar xizmatida bo‘lgan kishi;
<b>Xok</b>	5) Mayda tuproq; tuproqqa aylangan inson jasadi;
<b>Peshlamoq</b>	6) Asboblar tig‘i, damini tiklamoq; aqlidrokni o‘stirmoq.

**MAVLONO** – [a. – janob, hukmdor; homiy (murojaatda: ey hukmdorimiz)]

\* *Musulmon sharqida: olim va fozil kishilarni, ustozlarni, yuksak martabali amaldorlarni ulug‘lab, ularning nomlariga qo‘shib ishlatiladigan faxriy so‘z.* – **[Navoiy:]**

\* *Keling, pirim! Keling, mavlono Jomiy. Uyg‘un va I. Sulton, Alisher Navoiy.*

*..mavlono Behzod chizgan Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro tasvirlari rasmiy doiralarda shuhrat topgan edi. P. Qodirov, Yulduzli tunlar.*

**MULOZIM** – [a]. Amaldorlarning xizmatchisi, vakili;

**JIGARGO‘ShA** – [f. – farzand] q. Jigar

**3. – [Hus – ayn. – ] Mo‘min, jigargo ‘sham, salomat keldingmi? Uyg‘un va I. Sulton, Alisher Navoiy.**

\* *Jigargo ‘shalar ovqatlangani o‘tirdilar. M. Muhammedov, Qahramon izidan.*

**PADAR** – [f. – ota] kt. – ayn. Ota –

1. *Sizning ta’biringizcha, ma’naviy bir padar o‘z o‘g‘liga yomonlik sog‘inarmi, bu to‘g‘rida javob beringiz-chi A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.*

\* *Odamlar bor – padarin mozorida yig‘lab bot, Bemeros yig‘layolmas – ta’ma bor a’molida. A. Oripov, Yurtim shamoli.*

\* Padari buzrukvor – q. Buzrukvor.

\*-Iloji yo ‘q, aka, – dedi Avaz otasining ko ‘ziga tik boqib, – agar siz padari buzrukvorim bo ‘lmanagingizda, buni suvga otib yuborajak edim. **S. Siyoev, Yorug‘lik.**

\* Padar la ’nat(i) yoki padariga la ’nat – so ‘k. Otasi la ’natlangan, la ’natining o ‘g ‘li; umuman, qarg ‘ash, haqorat ifodasi.

Padar la ’nati haromzoda Sobirjon sizning qadringizni bilmadi. **Tuyg‘un, Zulfizar.**

\* -Padar la ’nati, odobsiz! – dedi Samad, – domлага shunday so ‘zni aytadimiya! **A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.**

\* Varaqlaysiz gazetani, Duch kelasiz olovga: Mukofotni berishibdi Padar la ’nat anovga. **A. Oripov, Yillar armoni.**

\*Pul bo ‘ladimi, kulmi – padariga la ’nat. Lekin norasta bolani och qoldirma. **O‘. Hoshimov, Ikki eshik orasi.**

\*Padar(i) qusur Hazil-mutoyiba tarzidagi yengil so ‘kish. Padariga qusur bunaqalarni! Kecha kechqurun xoli topib, gapni maydalashtirib yuramanmi deb, yoniga yaqinlashsam, bu ablahni qarang, kimligimni surishtirmsdanoq shapaloqlab tushirib qolsa bo ‘ladimi, la ’nati! **Shukrullo, Saylanma.**

### **BUZRUKVOR** – [f. – ulug‘, oljanob, hurmatli] – esk. Kt. – 1).

\*Ulug‘, buyuk. Umidimiz faqatgina bir buzrukvor insonda, – dedi Abdulvohid yostiqdan bosh uzib, ingichka beliga qo ‘llarini tirab. **Oybek, Nur qidirib.**

\*Ruxsat eting, buzrukvor, o ‘sha muborak omonatni muazzam manzilga yetkazishga biz ham urinib ko ‘rsak. **M. Mansurov, Yombi.**

\* Ulkan hurmatga loyiq, muhtaram. Padari buzrukvor Ulug‘ hurmatga loyiq, muhtaram ota. Shuncha yil ta ’lim bergen ustozingga quruq borasanmi – dedilar padari buzrukvorimiz. **S. Anorboev, Hayotga yo ‘llanma.**

\* Ey ota, padari buzrukvor, so ‘zdan qaytish – nomardning ishi. «Malikai ayyor». Kuni kecha padari buzrukvorimiz meni o ‘z huzurlariga chaqirib, fotiha berdilar. **«Mushtum».**

\*Din. Aziz avliyo; mulla. Ey buvish, ko ‘nglingizda shunday bo ‘lsa, shu yerda bir buzrukvor bor. **«Nurali».**

### **XOK** – [f. – tuproq, yer; yurt, hudud; chang, to ‘zon] kt.

*1 ayn. Tupro – q. Bobolar yurti bu, chirog ‘im, Qadrlab ko ‘zga surt xokini. U. Abduazimova.*

*2 Tuproqqa yoki kulga aylangan inson jasadi. Chunki sening so ‘lim sohillaringda Uzoq bobolarning xoki bor, Amu! Mirtemir.*

**PESHLAMOQ** – Tesha, ketmon kabi asboblarni bolg‘alab urib, tig‘ini, damini tiklamoq, pesh chiqarmoq. Ketmonni peshlamoq.

\*Yo ‘l-yo ‘lakay kanal qazishga kelgan kishilarning chodirlari, oshxonalar, ketmon, belkuraklarni peshlaydigan ko‘chma ustaxonalar uchrab turadi. **S. Ahmad, Ufq.**

\*Aqlni peshlamoq Aql-idrokni o‘stirmoq, zehnni ochmoq, o‘tkirlamoq. Bilim aqlni peshlaydi. **R. Usmonov, Odobnama.**

\*Yaxshi kitob bola qalbini nurga chulg‘aydi, ma’naviy oziq beradi, aqlini peshlaydi, yaqin maslahatchisiga aylanadi. **Gazetadan.**

#### 4-dars

### YORDAMCHI SO‘ZLAR

**15-mashq.** 1. Gaplardagi xaloyiq, bir ariqdan suv ichmoq, iste’dod so‘z va iboralarining ma’nosini quyida berilgan izohlardan aniqlang. Lug‘at daftaringizga ko‘chirib, ma’nosini eslab qoling.

- 1) Odamlar, jamoa; (**Xaloyiq**)
- 2) yonma-yon, qo‘shni bo‘lib yashamoq; (**Bir ariqdan suv ichib yashamoq**)
- 3) yuqori darajali tug‘ma qobiliyat. (**Iste’dod**)

**2. Berilgan izohlar asosida qobiliyat – iste’dod so‘zlarining ma’nosini aniqlang:**

- 1) tug‘ma uquv; (**Qobiliyat**)
- 2) yuqori darajadagi tug‘ma uquv. (**Iste’dod**)

**QOBILIYAT** – [a. Layoqat, qobillik, qodirlilik].

\* Bilim, malaka, ko'nikmalardan farqli o'laroq, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ish uddalay olishidagi sub'yektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari.

**ISTE'DOD – [a. – tayyorgarlik, tayyorlik; moyillik; qobiliyat]**

1 Nihoyatda zo'r ijodiy qobiliyat; layoqat. Shoirlik iste'dodi. Iste'dod egalari. Bilasiz, butun iste'dodini xalq uchun sarflagan ulug' odamlar o'zlarini grajdanin deb ataganlar. **P. Qodirov, Uch ildiz.**

\*Har kimsa o'z iste'dodiga qarab o'zidan keyin biror iz qoldirib ketishi kerak. **J. Sharipov, Xorazm.**

\* Iste'dodli bola har qanday oilada dunyoga kelishi mumkin, lekin undagi iste'dodning namoyon bo'lishi. «**Tafakkur**».

2 Iste'dod egasi. Iste'dod – jamiyatning intellektual mulki. «**Tafakkur**».

\*Asr boshida adabiyot sahnasiga chiqqan adiblarimiz katta iste'dodlar edilar. **Gazetadan.**

\* Iste'dodlarni ham xalq o'zi yetkazib beradi, talantlar xalq ichidan yetishib chiqadi. **Gazetadan.**

## 5-dars

### UNDOV, TAQLID VA MODAL SO'ZLAR

**8-topshiriq.** Berilgan izohlardan a)uchqun, b)shu'la, d)nur, e)ziyo, f)yog'du so'zlarining ma'nolarini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling. So'zlarni "kitobiylit belgisining oshib borishi" asosida tartiblang: 1) tumanday taraluvchi yorug'lik;

- 2) bir yo'nalishda yo'nalgan yorug'lik;
- 3) lipillab, ko'rinib-ko'rinmay turgan olov yoki yorug'lik;
- 4) bilim, ma'rifat;

<b>f)yog'du</b>	1) tumanday taraluvchi yorug'lik;
<b>d)nur</b>	2) bir yo'nalishda yo'nalgan yorug'lik;

<b>b)shu'la</b>	3) lipillab, ko‘rinib-ko‘rinmay turgan olov yoki yorug‘lik;
<b>e)ziyo</b>	4) bilim, ma’rifat;
<b>a)uchqun</b>	5) olov zarrasi.

**UCHQUN – I** Yonib yoki laqqa cho‘g‘ bo‘lib turgan moddadan otilib, uchib chiquvchi zarra..

\*Yiltiragan cho‘g‘ yerga tushib, ojiz uchqunlar sachratib so‘ndi. M. Muhamedov, Qimmat bilan Himmat. To‘xta xola tandirga o‘t qo‘yganga o‘xshaydi, ko‘cha tomonga goh-goh uchqun uchib turibdi. **I. Rahim, Chin muhabbat.**

2 Narsalarning bir-biriga tegishi, urinishidan hosil bo‘luvchi olov-zarra.

\*Tohir boltani.. goh qufga, goh darvoza zan-jirining zulfiniga urar, temirdan uchqun sachrar.. edi. **P. Qodirov, Yulduzdi tunlar.**

\*Ko‘krak cho‘ntagidan mo‘jazgina yaltiroq qutichani olib, bir joyini bosgan edi, «chirs» etib uchqun sachrab, qutichaga o‘rnatilgan pilik alanga oldi. **K. Yashin, Hamza.**

3 Narsalarning sachraydigan, sochiladigan eng mayda bo‘lagi, zarrasi. Temir uchquni.

\* Sovuq shamol zo‘rayib, qor uchqunlari burunga, ko‘zga, peshonaga urila boshladи. **H. G‘ulom, Mash’al.**

\*Qalin, qora bulut yana bitta-bitta sovuq uchqun tashlab, hamma yoqni qoplab olgan. **O‘. Hoshimov, Ikki surat.**

4 ko‘chma Sezgi, hissiyat, qobiliyat va sh.k. belgisi. Lekin ko‘nglida goho yilt etgan uchqun chaqnaydi. Bu – umid, ro‘shnolik, najot uchquni. **S. Siyoev, Avaz.**

\* ..bu xotinda, shirinso‘zligi va tashqi ko‘rinishini hisobga olmaganda, satanglikdan uchqun ham yo‘q edi. **S. Zunnunova, Gulxan.**

### **SHU’LA a. – olov, alanga; mash’al**

1 Biror jismdan taraluvchi nurli energiya; yorug‘lik, nur. Oy shu’lasi. Xatni chiroq shu’lasida o‘qimoq.

\*Ammo oftobning o‘tkir shu’lasi Ko‘ksingni parchalab yordi beomon. Tarixning muzaffar, nurli yo‘lidan Dadil bormoqdalar naslimiz hamon. **Uyg‘un.**

\*Shox o‘tinning o‘choqni to‘ldirib lovullayotgan yolqini qoraygan ko‘chaga shu’la sochmoqda. **P. Tursun, O‘qituvchi.**

**2 ayn.** Yolqin. Hamon mash’ala shu’lasi ko‘rinib turgan hovlidan ancha uzoqlashgach, bir daraxtning panasiga o‘tirdilar. **S. Siyoev, Yorug‘lik.**

**NUR** – [a. – yorug‘lik, yog‘du]

1 Yorug‘lik manbaidan taralgan va ingichka tola ko‘rinishida tasavvur etiladigan ziyo, yog‘du. Quyosh nuri. **Oy xira nur sochmoqda.**

2 – fiz. Musbat yoki manfiy zarralar, elektromagnit tebranishlar oqimi. Rentgen nurlari. Katod nurlari Nur kasalligi (yoki kasali) – Radioaktiv nurlarning organizmga ta’sir etishidan yuzaga keladigan kasallik.

\* Chernobil avariyasini bartaraf etishda ishtirok etgan ko‘pchilik vatandoshlarimiz nur kasalligiga chalinmasliklari uchun profilaktika ishlari amalga oshirildi. **Gazetadan.**

\*Natijada yaponlarning bir qismi nur kasaliga mubtalo bo‘lib qolgan. **H. Hasanov, Ekvatoridan o‘tganda.**

3 Umuman, yorug‘lik, ziyo; yorug‘lik energiyasi. Elektr nuri. Baliq tirik suv bilan, Giyoh yashar nur bilan, Dengiz ravshan dur bilan, Inson erkin u bilan. – q. **Muhammadiy.**

4 – ko‘chma Haqiqat, baxt-saodat, erkinlik, ma’rifat ramzi. Bilim nuri. Ko‘cha jangi boshlangandi. Zulmat bilan nur to‘qnashgan, hayot-mamot urushi bormoqda. **Sh. Toshmatov,**

\* Erk qushi Ko‘z nuri – Ardoqli, ko‘z qorachig‘iday aziz kishi (asosan farzand haqida).

\* U – [ona] Gulnor kabi sevikli qizini, ko‘z nurini olovga otib, yana uning baxt va saodati to‘g‘risida nasihat qilishi kerak. **Oybek, Tanlangan asarlar.**

\* Ko‘z nurini to‘kib Uzoq vaqt ko‘z uzmay, kuchini ayamay, qunt bilan. Ko‘z nurini to‘kib ishlarloq. Nur alo (yoki ustiga) nur Yana ham yaxshi, ko‘ngildagidan ham a‘lo. Ixtiyor o‘zingizda, qutlayman desangiz aytib ko‘ring, xo‘p desa – nur alo nur. **M. Ismoilov, Farg‘ona t. O.**

\* Nuri diyda – q. **Diyda. 5 Nur (erkaklar ismi).**

**YOG‘DU –**

**ZIYO** – a.– nur; yiltirash] –

1).. Yog‘du, yorug‘lik, nur.

\*Qaerdandir otilgan mushakning ko‘z qamashtiruvchi yorqin ziyosi tunni go‘yo kunduzga aylantirib yubordi. **N. Safarov, Vodillik qahramon,**

\*Orombaxsh tong! Tog‘ orqasidan ko‘tarilayotgan quyoshning dastlabki zarrin ziyorlari shiypon tepasidagi shoxlar, daraxtlarning uchlariga tushdi. **R. Fayziy, Cho‘lga bahor keldi.**

2). ko‘chma Bilim, ma'rifat, ilm; ongni yorituvchi har qanday narsa. U – kitob] inson ongini peshlab, ziyo sari yo‘lini nurafshon qiluvchi mash'al ekanligi azaldan ma'lum. **Gazetadan.**

\* Guli: G‘azal ermas, bu bir mehri giyodur, Munavvar aylagan dilni ziyodur. **Uyg‘un va I. Sulton, Alisher Navoiy.**

\* Gap odamlarning nomida emas, albatta. Gap respublikada ziyo tarqatib kelayotgan muhtaram o‘qituvchilarimiz, ularning beminnat, lekin mashaqqatli mehnatidadir. **N. Safarov, Olovli izlar.**

3). Ziyo (erkaklar ismi).

## 6-Dars

### OLMOSHNING MA’NO TURLARI

**21-mashq.** Quyida berilgan izohlardan a) *lapar*, b) *baxil*, d)*saxiy*, s)*insof*, e)*omonlashmoq*, f) *yo‘ymoq* so‘zlarining ma’nolarini topib, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling:

- 1) birovga hech narsani ravo ko‘rmaydigan; sarfxarajatni yoqtirmaydigan;
- 2) to‘y va yig‘in, xalq sayillarida yigitlar bilan qizlar orasida tarafma-taraf bo‘lib birgalikda ijro etiladigan qo‘sishq va raqs;
- 3) birovdan narsasi, iliq so‘zi va mehrini ayamaydigan;
- 4)adolat va vijdon bilan ish tutish;
- 5) salomlashmoq; vidolashmoq;
- 6) biror narsaning sababini o‘zicha taxmin qilmoq.

**b) baxil**

1) Birovga hech narsani ravo ko‘rmaydigan; sarfxarajatni yoqtirmaydigan;

<b>a) lapar</b>	2) to‘y va yig‘in, xalq sayillarida yigitlar bilan qizlar orasida tarafma-taraf bo‘lib birgalikda ijro etiladigan qo‘sish va raqs;
<b>d)saxiy</b>	3) birovdan narsasi, iliq so‘zi va mehrini ayamaydigan;
<b>s)insif</b>	4)adolat va vijdon bilan ish tutish;
<b>e)omonlashmoq</b>	5) salomlashmoq; vidolashmoq;
<b>f) yo‘ymoq</b>	6) biror narsaning sababini o‘zicha taxmin qilmoq.

**LAPAR** – *To‘y va yig‘inlarda, xalq sayillarida yigitlar bilan qizlar orasida tarafma-taraf bo‘lib aytildigan terma qo‘sish; shuningdek, birgalikda ijro etiladigan qo‘sish va raqs.*

\* Anorxon bilan Haydar.. hovuz bo‘yidagi gulxonaga ikkita stul qo‘yishib olib, lapar aytishmoqda. **I. Rahim, Ixlos.**

\* Muniraning kutilmaganda lapar aytishi erkaklarni dovdiratib qo‘ydi! **E. Usmonov, Yolqin.**

### **BAXIL** – [a.– xasis, ziqna, qurumsoq]

1). Birovga hyech narsani ravo ko‘rmaydigan; sarfxarajatni yoqtirmaydigan; xasis, qizg‘anchiq.

\* Saxyt topsa – barcha yer, baxil topsa – bosib yer. **Maqol.**

\* Baxil ehsondan qochar, xasis – mehmondan. **Maqol.**

\*Himmatiku erta kunda yo‘q, yana o‘zi ham o‘lgundek baxil, niyati qalb yigit. «**Mushtum**».

\*O‘zgani ko‘ra olmaydigan, ichi qora, hasadchi, rashkchi. Baxilning bog‘i ko‘karmas. **Maqol.**

### **SAXIY** – [a. – qo‘li ochiq, saxovatli, himmatli, oliyhimmat]

1 Hyech kimdan narsasini ayamaydigan; hotam; hotamtoy; tanti. Saxyt odam.

\*Saxyt topsa, bo‘lib yer, baxil topsa, bosib yer. **Maqol.**

\*Saxyt bilan baxil bir quduqdan suv ichmas. **Maqol.**

\*Vaqt-bevaqt birovnikiga bir mehmon kelsa, otini ushlab.. ko 'nglini xushlab jo 'natsa, bul odam – saxiy. «**Alpomish**».

2 Kishilardan o 'z yordamini, xizmatini ayamaydigan, g 'amxo 'r; mehribon.

\*Saxiy ustoz. Saxiy pedagog Mehri opa tarbiyalagan yoshlarni respublikamizning hamma joyida uchratish mumkin. **Gazetadan**.

3 ko 'chma Tabiiy boyliklarga boy; to 'kin, mo 'l; mo 'l-ko 'l. Saxiy yer. Saxiy yoz.

\*Yer! Qanday boysan, saxiysan, go 'zalsan. **R. Fayziy**,

\*Cho 'lga bahor keldi. Urushdan qaytgan g 'olib otadek Qo 'ni-qo 'nji to 'lib saxiy kuz keldi. **G'.** **G'ulom**.

\*4 ko 'chma Nurini ayamay to 'kuvchi; yuqori haroratli (quyoshga nisbatan).

\*Ana, yo 'lning ikkala beti bo 'ylab saxiy quyosh nurini bearmon emib, yastanib yotgan tokzorlar orqada qoldi. «**Sharq yulduzi**».

\*Xazina yer, zilol suv, Yoz bo 'yi saxiy quyosh. **G'ayratiy**.

**INSOF** – [a. – adolat, odillik, beg 'arazlik] Adolat va vijdon bilan ish tutish tuyg 'usi, ishda, kishilarga munosabatda halollik, to 'g 'rilik.

\*Man kuchimni, terimni to 'kay, foydasini soyaparvar boylar ko 'rsin, man ikki qo 'limni burnimga tiqib qolaveray! Qani insof! **Oybek, Tanlangan asarlar**.

\* ..keksa Qosimbekni kamarga joylab, o 'zi – [Bobur] ko 'pchilik navkarlar qatori yalanglikda, qor bo 'roni tagida o 'ltirgani Sultonning insof va diyonat tuyg 'usini uyg 'ota boshladi. «**Tafakkur**»

\* Insوف бермоқ – Insوفга келтиromoқ, insofli qilmoқ.

\* Mo 'min amakimning gapi rost bo 'lsa, - [dadam aroqni] «xudo insof bergan kuni tashlaydi», – dedi Said. **E. Raimov, Ajab qishloq**.

\* ..Yaxshiki, kaltaklamadi. Xudo o 'zi insof berdi. **P. Tursun O'qituvchi**.

\*Insوف bilan aytganda Narsa-hodisa, fikr va sh.k. ning chinligini, haqiqatga mosligini qayd etadi; to 'g 'risi. Insوف bilan aytganda, ishlar yomon emas. **O. Yoqubov, Er boshiga ish tushsa**.

\* Insоф bilan aytganda, Yormat aka, bizga o 'xhash xizmatkorlarning sho 'ri quridi. **Oybek, Tanlangan asarlar**.

\* Insоф kirmoқ Insоф bilan, insоф doirasida ish tutadigan bo 'lmoq. Xayriyat, insоф kirib qopti. **S. Ahmad, Ufq**.

\* *Insof qilmoq Insof bilan ish tutmoq. -Saksonta qovunga-ya Uch so'm – dehqon teskari burildi.– Insof qiling, baqqol aka! **Oybek, Tanlangan asarlar.***

\* *Insofga kelmoq Insof hissi yuzaga kelmoq, insofan ish tutishga o'tmoq. Jonfig'on oxiri insofga kelib, shu bu yil qishda non zavodiga ishga kiribdi. A. Qahhor, Jonfig'on.*

\* *Insofdan emas Insof talablariga zidlikni bildiradi. Sizning otangiz sarboz emas, me'mor, kishini qarigan chog'larida tashvishga solish insofdan emas. **Mirmuhsin, Me'mor.***

**OMONLASHMOQ** – 1 Bir-biri bilan salomlashmoq, bir-biridan hol-ahvol so'rashmoq.

\**Elmurod chelaklarini yerga qo'ydi-da, borib – [Norjon bilan] omonlashdi. **P. Tursun, O'qituvchi.***

\**Ahmadali Ro'zixon aya bilan yo'l-yo'lakay omonlashdi, undan ko'ngil so'radi. «Yoshlik».*

2 shv. – folk. Vidolashmoq, xayrlashmoq. Xoldor ketar bo'ldi, beklar, dunyodan, Rozilanib, omonlashib qolinglar. **Ergash Jumanbulbul.**

\**Ana shunday qilib, Murodxon singlisi bilan omonlashib, yo'lga tushib jo'nayverdi. «Murodxon».*

**YO'YMOQ** – Biror narsa, hodisaning sabab yoki mohiyati, asosini o'zicha talqin etmoq, ta'birlamoq, nima bilandir bog'lamoq, o'shandan deb o'ylamoq, hisoblamoq. Tushni yaxshilikka yo'ymoq.

\**Ona o'g'lidagi sabrsizlikni ko'rib, o'qishga mehr qo'yganligiga yo'ydi. **J. Abdullaxonov, Xonodon.***

\**Odatda odamlar tush ko'rib, uni boshqa bir bo'lajak hodisaga yo'yadilar. **O. Mo'minov, Xiyobondagi uch uchrashuv.***

\* *Biroq bu holni kunning sovug'iga yo'yish, tinchi buzilgan odamning injiqligi bilan ta'birlash ham mumkin. **Sh. Xolmirzayev, Qil ko'pri.***

## IJODIY MATN. INSHO VA UNING TURLARI

### 10-dars

#### MA'LUMOTNOMA MATNI VA IJODIY-TAVSIFIY MATN

**28-mashq.** Berilgan izohlardan: a) *nazm*, b) *tig‘*, c) *shukrona*, d) *mutafakkir*, e) *devon* so‘zlarining ma’nolarini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling:

- 1) buyuk donishmand;
- 2) yaratgan bergan ne’mat uchun savob ish qilmoq;
- 3) nayza, yoy kabi jang quroli;
- 4) nazmiy asarlar to‘plami;
- 5) she’riy shakldagi ijod.

<i>d) mutafakkir</i>	1) buyuk donishmand;
<i>c) shukrona</i>	2) yaratgan bergan ne’mat uchun savob ish qilmoq;
<i>b) tig‘</i>	3) nayza, yoy kabi jang quroli;
<i>e) devon</i>	4) nazmiy asarlar to‘plami;
<i>a) nazm</i>	5) she’riy shakldagi ijod.

**NAZM** – [a. – *tizish*, *terish*; *she’r yozish*; *she’rlar*]

\*ad. *She’riy asar*; *she’riyat*, *poeziya janri*. – [Abdishukur]

\**Shoirlilik iste’dodidan tamom mahrum bo‘lishiga qaramay, u “millatni uyg‘otish” uchun vazni buzuq, fikri sayoz, rangsiz nazmlar yozdi. Oybek, Tanlangan asarlar.*

**TIG‘** – [f. – *qilich*, *xanjar*; *tikan*, *tikanak*; *nur*]

1 *Qilich*, *xanjar*, *pichoq*, *nayza kabi sovuq qurollarning umumiy nomi*.

\* *Tig‘ yarasi tuzalar, til yarasi tuzalmas. Maqol.*

\**Ammo tig‘ tegib, qo‘l yoki oyog‘i uzilganlar oh-voh urib, madad kutib yotardi. Mirmuhsin, Me’mor.*

\*Ernazar jallod, Sheralini siyosat bilan yiqitdi va po 'lat tig 'ini qinidan tortdi.  
«**Erali va Sherali**».

2 Kesuvchi asbob, qurol-yarog' va sh.k. ning keskir qirrasi, dami; turli mashina, me-xanizm va sh.k. ning keskich qismi.

\*Boltaning tig 'i. Qilichning tig 'i.

\*Ketmon tig 'ini qayiradigan tosh-metin eski paxsalarni qizlar necha chaqirim yerdan tashib kelib, dalaga to 'kishdi. **Oybek, O.v. shabadalar**.

\* Qaynarning bo 'ydon o 'tlari kosilkalarning beomon tig 'lari zarbidan yuztuban yiqilardi. **S. Anorboev, Oqsoy**.

3 Nishtar, nayza kabi asboblarning o 'tkir uchi, nayzasi. Tig ' tegizmoq (yoki urmoq) – 1) biror asbob, qurol bilan kesmoq.

\*Tepa shoxga aslo tig ' tegiza ko 'rmanglar. **N. Safarov, Oliyaxon Sultonova**.

4 – s. T. Stvol, mil. Qo 'sh tig ' miltiq. Vagondan eng keyin tushgan va miltig 'ini tig 'idan ushlab, ketmonday yelkasiga qo 'yib kelayotgan **Ahmadjon.. A. Qahhor, Oltin yulduz**.

5 ko 'chma Umuman, tig ', nayza kabi ta 'sir o 'tkazuvchi narsa, kuch. Zulm tig 'i. Jabr tig 'i. Ilmu fan tig 'i birlan jahl bag 'rini qon qil. **Hamza**.

\*«Uchiga chiqqan ma 'muriyatchi» degan sarlavha ostidagi maqolaning o 'tkir tig 'i Oyqizga qaratilgan bo 'lsa ham.. **Sh. Rashidov, Bo 'rondan kuchli**.

\*Tig ' ko 'tarmoq – Qurol-yarog' bilan urush-jangga xezlanmoq, jangga kirmoq, jang qil-moq. Taqsir, uzr, fuqarochilik,adolatsizlikka qarshi yana tig ' ko 'tarishga to 'g 'ri keldi. **Uyg'un va I. Sulton, Alisher Navoiy**.

\*Tig ' urmoq (yoki tortmoq) Tig '-yarog' bilan zerb bermoq. Tig ' urib yaralamoq. Qaysi farzand otasiga tig ' tor – tar. «**Rustamxon**».

\*(Dami) tig 'dan o 'tkazmoq Yoppasiga tig '-yarog' bilan o 'ldirmoq. Podshoh-Hyech kim menga shu sirni oshkor qilmasa, shahar xalqini dami tig 'dan o 'tkazib, tuproq bilan barobar qilaman, – debdi. «**Ertaklar**».

\*Yaqinda Ali uyqudan turadi, zulfiqorini ko 'tarib, dindan chiqqan.. bandalarni tig 'dan o 'tkazadi, dedilar. **S. Ahmad, Hukm**.

\* Quyosh (yoki kun, saraton) tig 'i – 1) quyosh nuri, shu 'lasi, yog 'dusi. Kun tig 'ida yonib-o 'chib Ko 'rinadi ketmonlar. **T. To 'la**;

2) Quyosh harorati. Kunlarning birida, saratonning tig 'ida bog 'bonning etlari uvushibdi, momog 'i qurishibdi. **Yo. Shukurov, Uch savol**.

\*Quyosh (yoki kun, tong) tig‘ urdi (yoki tortdi, yoydi, yordi) Quyosh chiqdi, quyosh nur, shu’la taratdi, yog‘du sochdi. Kun tig‘ urib qolgan edi. O‘rtalik allaqachon yorishgan. **G‘. G‘ylom, Shum bola.**

\* Kun tig‘ tortib, daryoning u tomonidagi adirlarning sirti to‘q yashil, jilg‘alari qora tusga kirdi. **A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.**

\*Sharq osmonining tepasida tong tig‘ ura boshlagan bo‘lsa ham, devorlar, daraxtlar ichiga ko‘milgan shahar hali ancha qorong‘i edi. **M. Ismoiliy, Farg‘ona t. O.**

\* Choshgoh mahalida quyosh bulutlar orasidan tig‘ yorib chiqdi. **R. Rahmon, Mehr ko‘zda.**

\*Qo‘lga tig‘ olmoq – ayn. Tig‘ ko‘tarmoq.

\* Urushni boshlagan men emas, sensan, endi jazosini tortasan o‘zing, Qo‘lga tig‘ olishga majbur etgan sen. Endi shu tig‘ bilan o‘yilar ko‘zing. **Uyg‘un.**

**SHUKRONA** a. + f. • – minnatdor(chi)lik, tashakkur; rahmat aytish Qanoat va mammunlik, shukur qilish ifodasi.

\* Ertasiga kampir bu sevinchquvonchlarning shukronasiga xotin-xalajni yig‘ib, mushkulkushod o‘qittirdi. **G‘ayratiy, Dovdirish.**

\*Ko‘nglingda ikki unsur hukmron ekan: biri – taqdiri azal shukronasi, biri – qasdi jon. **S. Siyoev, Yorug‘lik.**

**MUTAFAKKIR** – [a. •– fitkr yurituvchi, fikrllovchi, o‘ylovchi] kt.

\*Chuqur falsafiy fitkrlash iste’dodiga ega bo‘lgan kishi, tafakkur egasi. Sharqda o‘tmishda yashab ijod etgan barcha mutaffakirlar..

\* xalqlar do‘stligi va ittifoqini orzu qilib, ajoyib fikrlar aytganlar. «**O‘TA**

**DEVON- II** – [f. – davlat idorasi; sud mahkamasi] – tar.

\* I O‘tmishda Sharq musulmon mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyo xonliklarida amal qilgan oliy davlat amaldorlarining majlisi.

Topdingiz, sohibi devon bugun menga nohaq ozor berdi. **M. Osim, Ibn Sino qissasi.**

**DEVON** – I [f. – she’rlar to‘plami] Muayyan bir shoirning radif va qofiyalarga rioya etgan holda alifbo sirasi bilan tartib etilgan she’rlarining (dostonlardan tashqari) to‘liq to‘plami. **Navoiy devoni. Nodira devoni.**

\*Haqiqatan ham Navoiy forsiy devoni bilan Jomiydan so‘ng fors-tojik adabiyotini yangi bir bosqichga ko‘tardi. «**O‘TA**».

\*Xufton namozidan so‘ng.. poychiroq yoniga o‘tirib, Fuzuliy devonini varaqlar edi. A. **Qodiriy**, O‘tgan kunlar.

## 11-dars

### INSHO – IJODIY ISH

**31-mashq.** Berilgan izohlardan a)*insho*, b)*bilim*, c)*ko‘nikma*, d)*malaka*, e)*tafakkur*, f)*mas’uliyat*, g)*izlanish* so‘zlearning ma’nosini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring:

- 1) borliq haqidagi yoki ilmiy, madaniy, ma’rifiy, ma’naviy, harbiy va boshqa sohalarga oid nazariy, amaliy ma’lumotlar, tushunchalar majmui;
- 2) tashkil etish; yaratish, qurish, barpo qilish;
- 3) biror ishda orttirilgan malakadan kamroq tajriba;
- 4) o‘ylash, fikr yuritish;
- 5) kasbni, ishni yaxshi o‘zlashtirish natijasida orttirilgan ko‘nikmadan balandroq mahorat;
- 6) yangilik topish, yaratish harakatida bo‘lish, shunday maqsadli harakat, faoliyat; 7) biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo‘lgan javobgarlik.

<b>b) bilim</b>	1) borliq haqidagi yoki ilmiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, harbiy va boshqa sohalarga oid nazariy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar majmui;
<b>a) insho</b>	2) tashkil etish; yaratish, qurish, barpo qilish;
<b>c) ko'nikma</b>	3) biror ishda orttirilgan malakadan kamroq tajriba;
<b>e) tafakkur</b>	4) o'ylash, fikr yuritish;
<b>d) malaka</b>	5) kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan ko'nikmadan balandroq mahorat;
<b>g) izlanish</b>	6) yangilik topish, yaratish harakatida bo'lish, shunday maqsadli harakat, faoliyat;
<b>f) mas'uliyat</b>	7) biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo'lgan javobgarlik.

<b>INSHO</b> – [a. – tashkil etish; yaratish, qurish, barpo qilish; ijod, bayon; tahrir]
*O'quv yurtlarida ona tili yoki adabiyotdan yozma ish. Insho olmoq. Insho yozmoq.
*Gavhar ikkita imtihondan a'lo oldi-yu.. inshosi to'rt bo'lib qoldi. <b>O': Hoshimov, Qalbingga qulog sol</b>
*Insho qilmoq – esk. Barpo qilmoq, qurmoq.

<b>BILIM 1).</b> Ob'ektiv borliq haqidagi yoki muayyan (ilmiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, harbiy va.b) sohalarga oid ilmiy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar majmuui; ilm.
Til bilimi. Yer bilimi. Huquq bilimi.
*Bilim baxt keltirar. <b>Maqol.</b>
*Bilim – oltindan qimmat, qilichdan keskir, zambarakdan kuchli. <b>Gazetadan.</b>
Chinakam xayol genial bilim talab qiladi. <b>S. Karomatov, Oltin qum.</b>

\* *Bizdan talab qilinadigan narsa butun kuch va harbiy bilimni ishga solish.. N. Safarov.*

*Shu – [gazeta va jurnallar o‘qish] bilan dunyoviy bilimlarga bo‘lgan tashnaliklarini qondirar, olamdagи gaplardan xabar topar edi. K. Yashin, Hamza.*

\* *O‘qimishlilik darajasi, ma’lumot, qobiliyat (eruditsiya).*

\* *Uning bilimi zo‘r. Bilimim yetishmaydi.*

\* *Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni yiqar. Maqol.*

\* *Bu mansabga u halol mehnati, bilimi, el ishiga sadoqati tufayli erishdi. Gazetadan.*

\* *Menga qolsa, institutga eshik qolib, teshikdan kirmagani ma’qul.. o‘z bilimi bilan kirsin. O‘. Hoshimov, Qalbingga qulog sol.*

\* *Yodgor uning otini bilolmay qolgan bo‘lsa ham, bilimiga tan bergen, uzoq vaqtgacha qizning gaplarini, chiroyli chehrasini unutolmay yurgan edi. O‘. Hoshimov, Qalbingga qulog sol.*

\* *Bilim yurti 1) o‘quv yurti (maktab, institut va sh. K.) Pedagogika bilim yurti;*

*2)tar. Ma’lum muddat, yilgacha: o‘rta pedagogik o‘quv yurtlarining nomi. Toshkent o‘zbek bilim yurti.*

**KO‘NIKMA** – *Biror ishda orttirilgan mahorat, malaka. Mehnat ko‘nikmalar. Ko‘nikma hosil qilmoq.*

\* *Studiya menga eng zarur bilim va ishda ko‘nikmalar berdi. H. Nosirova,*

\* *Men o‘zbek qiziman. Yuzaki tanish bo‘lsa ham, o‘scha ko‘nikmalar qo‘l kelib qoldi. «O‘zbekiston qo‘riqlari».*

**MALAKA** – *[a. • – qobiliyat, iste’dod; xususiyat, odat] Kasbni, ishni yaxshi o‘zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba, ko‘nikmalar; mahorat.*

\* *Malaka hosil qilish. Malaka oshirish. Qambar kelib, o‘zining malaka orttirgan xizmatini bajara boshlagach, Yo‘lchi qorong‘i supadagi taqir namat ustiga cho‘zildi. Oybek, Tanlangan asarlar.*

\* *Jangchilar zarur bo‘lgan malakani orttirishi bilanoq beto ‘xtov frontga yuboriladi, deb taxmin qilgan edi. A. Qahhor, Oltin yulduz.*

**TAFAKKUR** – *[a. • – fikr yuritish, o‘ylash, fikrlash]*

1. Ob'ektiv voqyelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati; fikrlash.

\* Til tafakkur bilan bevosita bog'liqdir. Insoniyat yuksak xayolot va tafakkur kuchi bilan yaratgan barcha ma'naviy-badiiy boyliklar orasida og'zaki ijod namunalari alohida ajralib turadi. «**Fan va turmush**».

2. O'yplash, fikr yuritish, muhokama; o'y.

\* Bir soatlik tafakkur bir yillik toatdan afzal. **Oybek, Navoiy.**

\* Ki har ishniki qildi odamizot, Tafakkur birla bildi odamizot. **Alisher Navoiy.**

\* Oraga uzoq, vazmin xomushlik tushdi. Malika bir nuqtaga tikilib, tafakkurga cho'kdi. **T. Jalolov, Oltin qafas.**

### **MAS'ULIYAT – [a. – javobgarlik, hisob berishlik]**

\* Biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo'lgan javobgarlik. Mas'uliyat yuklamoq. Mas'uliyatni o'z ustiga olmoq. Mas'uliyat sezmoq. Mas'uliyatga tortmoq.

\* Xalq nomzodlari o'zlarining intizomliligi, yuksak mas'uliyat hissi bilan ajralib turadi. **Gazetadan.**

## **13-dars**

### **INSHO REJASI**

**37-mashq.** Berilgan izohlardan a)muqarrar, b)chiston, s)mantiq, d)fasl so'zlarning ma'nosini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling:

- 1) gap, fikr, harakat kabilarning aqlga monandligi,
- 2) vujudga kelishi aniq, shubhasiz, turgan gap;
- 3) narsa yoki hodisaning muhim belgilarini tavsiflab, nimaligini topishni o'quvchiga havola etadigan she'riy shakl;
- 4) vaqt, muddat, davr; yilning to'rtdan bir qismi; bo'lak, qism.

<i>s)mantiq</i>	1) gap, fikr, harakat kabilarning aqlga monandligi,
<i>a)muqarrar</i>	2) vujudga kelishi aniq, shubhasiz, turgan gap;
<i>b)chiston</i>	3) narsa yoki hodisaning muhim belgilarini tavsiflab, nimaligini topishni o‘quvchiga havola etadigan she’riy shakl;
<i>d)fasl</i>	4) vaqt, muddat, davr; yilning to‘rtadan bir qismi; bo‘lak, qism.

***MUQARRAR – [a. vujudga kelishi aniq, shubhasiz.]***

<b>CHISTON</b> – [ <i>f. &lt; – u (bu) nimadir</i> ]
1 <i>Topishmoq, jumbo – q.</i>
2 <i>Qochiriqli gap, ibora; qochiriq, qochirim.</i>
* <i>Ha, tilingizdan olganmi, nega indamaysiz – chiston qildi yana Lobarxon.</i>
<b>Gazetadan.</b>
* <i>Olimboy aka endi to ‘yu hashamlarda ilgarigidek gapirmas, askiyaga aralashadigan bo ‘lsa, yumshoqroq qilib, suyab chiston qilar edi. S. Ahmad, Oydin kechalar.</i>
3 ad. <i>Sharq she’riyatida lirik janrlardan biri: narsa yoki hodisaning muhim belgilarini majoziy tavsiflab, uning nima ekanligini topishni o‘quvchiga havola etadigan, ikki baytdan o ‘n baytgacha bo ‘lgan she’riy shakl.</i>
* <i>Shoiraning – [Uvaysiyning] she’rlari «Devon»da jamlangan bo ‘lib, u asosan chiston janrida katta shuhrat qo-zongan. S. Matjon va Sh. Sariev, O‘zbek adabiyoti.</i>

<b><i>MANTIQ</i></b> – [ <i>a. – nutq, til; so ‘zlash; logika</i> ]
1 <i>To ‘g ‘ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan.</i>
* <i>Nasriddin Tusiy.. jabr, tib va mantiq nazariyasi bilimlarining boshqa sohalari bo ‘yicha ham ko ‘pgina kitoblar yozgan. Mirmuhsin, Me’mor.</i>
2 <i>Gap, fikr, harakat va sh. K. Ning aqlga monandligi, asosliligi.</i>

*Xotininining bu gapi Bo‘taboy akaning jon-jonidan o‘tib ketdi, lekin bundagi kuchli mantiq tilini bog‘ladi-yu, hyech narsa deyolmadı. A. Qahhor, Qo‘shchinor.*

\* Studentlar ham qiziq-da. Bir-birlariga hech aqlga sig‘maydigan, mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigan laqablar qo‘yishadi. F. Musajonov, Himmat.

3. Ichki qonuniylik, qonuniyat. Nedir, nedir hayot mantiqi O‘sish, qarish qonuni nega M. Shayxzoda. Mantiq talabi shu erur, shohim. S. Siyoev, Yorug‘lik.

**FASL – [a. – bo‘lim, qism; yil vaqt, mavsum; bo‘linish]**

1. Bir yilni tashkil etadigan to‘rt mavsumning biri (qish, bahor, yoz, kuz).

\* Toshkentda uch fasl yoz: Bahor – shoshgan ichki yoz. Yoz – katta va asl yoz. Kuz – kechikkan kechki yoz. M. Shayxzoda, Toshkentnoma.

\*Har faslning o‘z xislati bor. Har faslning – o‘z fazilati.. Uyg‘un.

\* Har faslning o‘z husn-latofati bor, degan gapni yil fasllari to‘g‘risidagina emas, umr fasllari to‘g‘risida ham aytsa bo‘lar ekan. A. Qahhor, Asarlar.

\*Uyg‘onish fasli – ko‘chma Erta bahor.

\*Ayon bir xislating bordir azaldan, Seni atamishlar uyg‘onish fasli. A. Oripov, Yillar armoni.

\*Fasli bahor ko‘chma Umrning eng yashnagan, kamolga yetgan davri.

\*Hojixonning fasli bahori ham, husnu malohati ham, kuchu quvvati ham tugalishga qarab yuz tutdi. M. Ismoilov, Farg‘ona t. O.

2. esk. Asarning biror bobbi, qismi. Kitob to‘rt fasldan iborat. Bu borishdan – [Otabek] biror ish chiqara oldimi, yo‘qmi, bu to‘g‘rida biz kelasi fasllarning birida o‘rganarmiz. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.

\*Har o‘ltirganda nahot bir hikoya yoki biron romanning bir faslini bitirolmamasam. A. Qahhor, Sarob.

3. ko‘chma Vaqt, muddat, davr. O‘t solasan qalbimga, ey gul, Sevgi fasl tanlamas ekan. J. Jabborov, Tog‘lar sadosi.

\*Sevishmak go‘zal fasl, sevgi yoshlik muttasil. G‘ayratiy.

\* Bir fasl – Birpas, bir oz. Bir fasl jim bo‘lgan mehmonxona ichida yana tapirtupur, to‘polon boshlandi. S. Ayniy, Qullar.

Janoblari bir fasl o‘tirib tursalar, hozir olib chiqaman. «Oltin beshik».

## 24-dars

### SO‘Z BIRIKMASI VA SO‘ZLAR QO‘SHILMASI, QO‘SHMA SO‘Z

**64-mashq.** Berilgan izohlardan a)*madrasa*, b)*mohir*, c)*me’mor*, d)*poydevor*, e)*fursat*, f)*boqiy*, g)*oliv* so‘zlarining ma’nosini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling:

- 1) bino devorlarining asos qismi;
- 2) vaqtning zum, damdan keyingi kichik qismlaridan biri;
- 3) abadiylikka ega;
- 4) eng yuqori;
- 5) o‘tmish sharqida oliv ma’lumot beruvchi ta’lim muassasasi; 6) imorat qurilishini loyihash bo‘yicha mutaxassis.

<b>d)<i>poydevor</i></b>	1) bino devorlarining asos qismi;
<b>e)<i>fursat</i></b>	2) vaqtning zum, damdan keyingi kichik qismlaridan biri;
<b>f)<i>boqiy</i></b>	3) abadiylikka ega;
<b>g)<i>oliv</i></b>	4) eng yuqori;
<b>a)<i>madrasa</i></b>	5) o‘tmish sharqida oliv ma’lumot beruvchi ta’lim muassasasi;
<b>s)<i>me’mor</i></b>	6) imorat qurilishini loyihash bo‘yicha mutaxassis

**MADRASA – [a. – məktəb, o ‘quv yurti; fəndək yə ‘naliş, məktəb]**

I – tar. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida, shuningdek, chor Rossiyasining ko‘pchilik musulmonlar yashaydigan hududlarida diniy oliv o‘quv yurti.

\* Nodira Anvarni o‘qitmoqchi, hatto madrasalarga yubormoqchi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

2. O‘zbekiston musulmonlari idorasi qoshidagi diniy məktəb.

**MOHIR – [a. – mahoratlı, malakalı, usta; chaqqon]**

\* Yuksak mahoratga ega bo‘lgan, mahorat qozongan; usta.

* <i>Mohir suvchi. Mohir yozuvchi. Mohir tashkilotchi.</i>
* <i>Shogird qancha mohir bo ‘lsa, quvonar ustod. G‘. G‘ulom.</i>
* <i>To ‘g ‘ri, keksalarimiz dehqonchilikda juda mohir.. Oybek, O.v. shabadalar.</i>

<b>ME’MOR</b> – [a. – binokor, imoratsoz; arxitektor] Me’morchilik mutaxassis.
*..bu binoning haqiqiy san’at darajasiga ko’tarilishi Xuroson me’morlari – ustoz Qavom, ustoz Najmuddin Buxoriy.. nomi bilan bog’liqdir. <b>Mirmuhsin, Me’mor.</b>

<b>POYDEVOR</b> – [f. – devorning ostki qismi, asosi]
1. Imorat yoki inshootning ost qismi; mashina, mexanizmlarning asosi.
*Tosh poydevor. Ustun poydevori. Bir hovuch suv ayvonning pishiq g’ishtdan urilgan poydevoriga sachradi-da, shimilib ketdi. <b>O‘. Hoshimov, Qalbingga quloq sol.</b>
* Imoratning poydevori xarsang toshlardan ko’tarildi, devorlari sinch qilindi. « <b>Yoshlik</b> ».
* U hovliga kirishi bilan, ayvon poydevoriga suyanganicha, boshini osiltirib u xlabelotgan onasini ko’rdi. <b>T. Malik, Shaytanat</b> .
2. ko ‘chma Zamin; negiz, baza.
*Mehnat – rohatning poydevori. <b>Maqol</b> .
*Insonni ma’naviy shaxs sifatida shakllantirishda maktab poydevor desak bo‘ladi. <b>M. Jo‘ra, Noshirnoma</b> .
* Ta’limning poydevori bilimning hayotda kerakligini bolaning ongiga yetkaza bilişdir. <b>R. Usmonov, Odobnoma</b> .
*Har tomonlama o’zaro aloqalarimizga poydevor bo‘lib xizmat qiluvchi mazkur hujjat asosida mamlakatlarimiz o’rtasidagi hamkorlik tobora ravnaq topayotir. <b>Gazetadan</b> .

<b>FURSAT</b> – [a. – maqbul, qulay vaqt; imkoniyat; ishdagi uzilish, ta’til]
1 Biror ishni bajarish uchun eng qulay vaqt, payt.
* Fursat poylamoq. Fursat keldi. Fursatdan foydalanmoq.

<p>* Hasratlashishga juda qulay fursat tug 'ildi. Kimning dardi yo 'q deysiz!</p> <p><b>I. Rahim, Chin muhabbat.</b></p>
<p>* Fursat – oltin, sen ko 'krak kerib, Oltiningni sochib yuribsan. <b>E. Vohidov, Muhabbatnoma.</b></p>
<p>* Fursatni boy (yoki qo 'ldan) bermoq – Qulay vaqt, paytdan foydalanmay, uni be-korga, bemaqsad o 'tkazmoq.</p>
<p>* Hozir.. o 'ylanib o 'tirish, fursatni boy berish payti emas. <b>M. Ismoiliy, Farg'ona t. O.</b></p>
<p>* Hofiz fursatni qo 'ldan bermay, safar anjomlarini tayyorlab, ikki navkar bilan yo 'lga chiqdi. <b>M. Osim, Zulmat ichra nur.</b></p>
<p>* Fursatni qochirmoq – ayn. Fursatni boy bermoq.</p>
<p>*Zuhra chindan ham meni tanigan! Fursatni qochirmsadan, chorasini ko 'rish kerak! <b>N. Safarov, Tanlangan asarlar.</b></p>

<p><b>BOQIYLIK 1). Abadiylik, mangulik, doimiylik.</b></p>
<p>*Ariqlarning shildirab oqishi, to 'lqinlarning mavji boqiylik timsolidir. <b>Gazetadan.</b></p>
<p>*..asrlar davomida insoniyat bunyod etgan madaniy yodgorliklar umrning boqiyligi demakdir. <b>Gazetadan.</b></p>
<p>* Uzoq umr ko 'rishlik.</p>
<p>* Baraka – inoqlikda, Boqiylik – quvnoqlikda. <b>Maqol.</b></p>
<p>* Mustahkamlik, sobitlik.</p>
<p>* Otabekning bu maktubi ortig 'i bilan o 'zining Kumushga bo 'lgan munosabatining hamon – eski holida boqiyligini e 'lon qilar va o 'zining osonlik bilan raqibga berilmasligini so 'zlar edi. <b>A. Qodiriyl, o 'tgan kunlar.</b></p>

<p><b>OLIY - [a. – yuqori, yuksak, baland] –</b></p>
--

<p>* 1 Mavqyei, martabasi, rahbarlik roli va sh.k. jihatidan eng yuqori; bosh.</p>
<p>* Oliy Majlis. Oliy sud. Oliy bosh qo'mondon.</p>
<p>* 30 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi o 'z ishini davom ettirdi. <b>Gazetadan.</b></p>

* Janobi oliylari - 1) - esk. oliv tabaqaga mansub yoki oliv mansabga ega bo'lgan kishi (podshoh, xon, amir, bek va sh.k.) va ularning nomini ulug'lab aytiladigan murojaat shakli.
* - Erta bilan janobi olivga ariza va sovrinimizni tortiq qilgandan keyin, agar ruxsati oliv bo'lsa, so'ngra savdoga kirisharmiz, – dedi karvonboshi. <b>S. Ayniy, Qullar.</b>
* Zoti oliylariga podshoh hazratlarining iltifotlari baland emish. <b>Oybek, Navoiy;</b>
2) Hozirda: oliv darajadagi yozishmalarda hukumat yoki davlat boshlig'iga hurmat yuzasidan bevosita yoki uning nomiga qo'shgan holda murojaat shakli. Prezident janobi oliylari. Bosh vazir janobi oliylari.
* Farmoni (yoki amri) oliv yoki oliv farmon Eng yuqori tashkilot, davlat organi yoki boshliqning farmoni.
* - [Salimboyvachcha:] Xo'sh, aytin-chi, podshoning mardikor olishiga nima deysiz Mana, farmoni oliv chiqdi. <b>Oybek, Tanlangan asarlar.</b>
2 Sifat jihatidan eng yuqori, eng yaxshi. Oliy nav. Oliy sifat. Bog'da hovuz bo'yiga shinam shiyponlarga yozilgan dasturxonlar yozilganicha, besh yulduzli oliv nav konyaklar ochilganicha, so'yilgan bo'rdoqilar so'yilganicha qolib ketdi. <b>O. Yoqubov, Diyonat.</b>
3 Eng yuqori darajali, eng yuqori, yuksak. Oliy maqsad.
* O'zbek adabiyoti haqiqatan har jihatdan barkamol, tafsinga loyiq, xalqimizning oliv maqsadi uchun kurashda katta kuch bo'lib qoldi. <b>K. Qahhorova, Chorak asr hamnafas.</b>
4 Taraqqiyotning eng yuqori darajasiga erishgan, barkamol. Tashkilotning oliv formasi.
5. Ta'lif tizimidagi yuqori bosqich. Oliy o'quv yurti. Ba'zan oliv ma'lumotli kishilar o'z tarjimai hollarini bir varaqqina yozib berishga og'rinadilar. <b>Shukrullo, Saylanma.</b>
6. Eng kuchli, eng yuqori. Sirasini aytganda, mavsum boshidayoq oliv ligaga berila-yotgan qo'sh yo'llanmadan birini qo'lga kiritish oson bo'lmasligi ko'zga tashlanmoqda. <b>Gazetadan.</b>
7 Yuqori, murakkab. Oliy matematika.
8 Yuqori, so'nggi. Oliy jazo.

## MUSTAHKAMLASH DARSLARI

### 25-26-darslar

### MUMTOZ MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

**65-mashq.** Matnni ifodali o‘qing.

<b>TALAB VODIYSI</b>	<b>Talab vodiysining sifati (Nasriy bayoni)</b>
Chun talab vo/diysig‘a qo‘y/sang qadam, Ollinga har/ dam kelur yuz / ming alam.	Talab vodiysig‘a qadam qo‘ysang, oldingga har dam yuz ming dard-u alam duch keladi.  Har lahma unda yuz malollik, har nafas yuz ming o‘zga holat yuzlanadi.
Har dam anda/ yuz <b>malolat</b> / yuzlanur, Har nafas ming/ <b>sa’b</b> holat/ yuzlanur.	Istamoqlik azobi ko`ngulni zor etadi, lekin topa olmaslik ruhni abgor etadi. Bunda jonne kuydirish mahrumlik, vaslga va’dasi muddati— noma'lumlik bo'ladi. Mashaqqat va kulfatlar jismingga nish sanchib, behad ulkan dard jismingni pora- pora qiladi. Sen noyob durni qo’lga kritishni xohlaysan, ammo uni topa olmaysan. Buning uchun dunyo asbob- uskunalarini tark etmoq zarurdir.
Jonni kuydur/mak bo`lub mah/rumliq, Vaslining <b>mi’/odi</b> noma’/lumliq.	Solik o’z yo’lida g’ov bo’ladigan mol- u mulk va boshqa narsalardan voz kechib, foniylikning to’rt “ ALLOHU AKBAR”ini baland ovozda aytmog’i kerak.
Ranj-u <b>ko`shish</b> / sanchibon jis/mingg`a <b>nesh</b> , Dardi noyob/ aylabon jo/ningni <b>resh</b> .	1. Sharofiddin SHARIPOV,f.f.n. Vahob RAHMON O‘zRESda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi nasriy bayoni. “Tafakkur” nashriyoti, Toshkent – 2020.
Istabon top/may duri no/yobni, Mundadur tar/k aylamak as/bobni.	
Mol-u mulk-u/ har nedur <b>so/likka</b> band, To`rt <b>takbi/ri fano</b> ur/moq baland.	
<b>(Alisher Navoiy, “Lisonut-tayr”)</b>	

**66- mashq.** Berilgan izohlardan a)malolat, b)sa'b, s)afgor, d)mi'odi, e)ko'shish, f)nesh, g)resh, h)solik, j)Takbiri fano matndagi ajratilgan so'zlarning ma'nosini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va yodlang

- 1) Malol kelish; og'rinish;
- 2) Xor bo'lish, ezg'in holatga tushish;
- 3) Muddat, ijro vaqt;
- 4) Sa'y-harakat;
- 5) Nish, tig';
- 6) yara, jarohat;
- 7) O'tkinchi dunyo uchun haqni ulug'lash; 8) Komillik sari harakat qilayotgan kishi; 9) Qiyin, og'ir.

<b>a)malolat</b>	1) Malol kelish; og'rinish;
<b>s)afgor</b>	2) Xor bo'lish, ezg'in holatga tushish;
<b>d)mi'odi</b>	3) Muddat, ijro vaqt;
<b>e)ko'shish</b>	4) Sa'y-harakat;
<b>f)nesh</b>	5) Nish, tig';
<b>g)resh</b>	6) yara, jarohat;
<b>j)Takbiri fano</b>	7)O'tkinchi dunyo uchun haqni ulug'lash;
<b>h)solik</b>	8) Komillik sari harakat qilayotgan kishi;
<b>b)sa'b</b>	9) Qiyin, ogir.

**MALOLAT** – [a. – zerikish; tashvish, g'ashlik] Ko'ngil g'ashligi, diltanglik.

\* Amir Dushanbega kelgach.. uning – [Abdulhofizning] yosh qizini oldirib keldi, Temurshoh qizining o'lgani sababli ko'nglida paydo bo'lgan malolatni bartaraf qildi. **S. Ayniy, Doxunda.**

**AFGOR** — yaralangan, majruh] kt.

1) Jarohat olgan, majruh.

2) Ezilgan. Qullik zanjirida afgor bo'lganlar.. G'. G'ulom.

\*Chori ota.. uzun, ser qadoq barmoqlari bilan chakkalarini ush lab, afgor bir holda cho'kib o'tirdi. **S. Nu rov. G'**

1)arvon. Afgor etmoq (yoki aylamoq) Afgor holga solmoq. Yengolmasa aqling gar, Hayoting afgor etar. **Q. Muhammadiy.**

\*Ta'nayu malomat toshlari majruhu afgor ayladi. **Habibiy.**

**KO'SHISH** – [f. – harakat, urinish; intilish; ovoragarchilik, tashvish] – ko'shish qilmoq (yoki ko'rsatmoq) – kam qo'll. \*Harakat qilmoq; intilmoq, chalishmoq.

\*Lekin biz deymizki, turmushimizda bir qadar isloh yuzaga chiqsin, bema'ni ishlarni yo'qotaylik, dini islomning ravnaqiga ko'shish qilaylik. **Oybek, Tanlangan asarlar.**

\*Sal o'tmay angladiki.. bu chaqqon davlatlar shunchaki Buxoroga qayishganlari.. «insoniyatning manfaatdorligi» uchun unga ko'shish ko'rsatishmayapti. **Sh. Xolmirzaev, Qil ko'pri.**

\* Bolam, dardni kasal odam bilsa, o'ziyam tuzalishiga ko'shish ko'rsatar ekan. **Sh. Xolmirzaev, Saylanma.**

**SOLIK** – [a. – yo'lchi, yo'ldan yuruvchi; ochiq, bo'sh yo'l;

\*sufiylikda uchinchi bosqichga yetishgan zohid]

\*Tasavvufda: suluk (tariqat)ni ixtiyor qilgan, lekin hali biror maqom yoki martabaga erishmag'an murid

**TAKBIR** – [a. • – kengaytirish, kuchaytirish; ulug'lash, maqtash; xudoni ulug'lab, «Allahu akbar» iborasini aytish]

\*din. Alloho ulug'lash bilan bog'liq ibora («Allahu akbar» – Allah buyukdir)ni talaffuz etish, tilga olish.

\* Xatib domla.. oq bo'yra ustidagi tobut yoniga boradi va sallasining peshini tushirib, takbir uchun qo'l ko'taradi. **A. Qodiri, Obid ketmon.**

\* Samad bo'qoq indamay, chetga burilib ketdi. Shukur so'fi shom namozi uchun takbir tushira boshladi. **A. Qodiri, Mehrobdan chayon.**

## 27-topshiriq. Matnni ifodali o‘qing.

<p><b>TALAB VODIYSI</b> (davomi)</p> <p><i>Har nekim g`ayri talabdur tashlamoq, O`zni maqsad manziliga boshlamoq.</i></p> <p><i>Qolmasa olam mato‘idin jihot, O`zga nav’ o`lg`ay sanga ul dam sifot.</i></p> <p><i>Ganjin yetkay asar vayroninga, Zoti nuridin yorug`lug`joningga.</i></p> <p><i>Ul yorug`lug` shavq o`tin tez aylagay, Kim talab raxshin sabukxez aylagay.</i></p> <p><i>Joning`a yetkay talabning rohati, Qolmagay ranj-u taabning shiddati.</i></p> <p><i>Durg`a topqon soyi ko`nglung xosliq, Bo`lg`oy osonroq sanga g`avvosliq.</i></p> <p><b>(Alisher Navoiy, “Lison ut-tayr”)</b></p>	<p><b>Talab vodiysi</b> (<i>Nasriy bayoni</i>)</p> <p>Bu yo'lda unga bolgan ishtiyoqdan boshqa hamma narsani tashlab, o'zni maqsad manzili tomon boshlashi lozim.</p> <p>Agar olam matosidan biron ashyo qolmasa, senda u dam o'zgacha sifatlar paydo bo'ladi.U xazinadan vayroningga obodlik kelib, zoti nuridan joningga yorug'lik yetishadi. Bu yorug'lik sendagi shavq o'tini tobora alangalatib, talab otingni uchqur qiladi.</p> <p>Bunda o'zingda bir talab o'rnida yuz talab topasan. Bu payt tog'lar sening ko'zingga oddiy daladek bo'lib ko'rindi. Joningga talab rohati yetadi, mashaqqat chekish shiddati sendan forig bo'ladi.Ko'ngling dur topishga qanchalik muhabbat qo'ysa, sen uchun g`avvoslik qilish shunchalik oson bo'ladi. Visol quyoshi shu'la ko'rsatgach, shoming tongga ulanib ketadi.</p> <p>2. Sharofiddin SHARIPOV,f.f.n. Vahob RAHMON O‘zRESda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi nasriy bayoni. “Tafakkur” nashriyoti, Toshkent – 2020.</p>
--	--

**69-topshiriq. Quyidagi izohlardan ajratilgan so‘zlarning ma’nosini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va yodlang:**

- 1) suv tagida harakat qilish, suzish;
- 2) sayin, sari;
- 3) mashaqqat, mushkullik;
- 4) zavqli harakat;

- 5) ot, ulov;  
 6) davlat, boylik; 7) yengil, chaqqon.

<b>G`avvos</b>	1) suv tagida harakat qilish, suzish;
<b>Soyi</b>	2) sayin, sari;
<b>Ranj</b>	3) mashaqqat, mushkullik;
<b>Shavq</b>	4) zavqli harakat;
<b>Raxsh</b>	5) ot, ulov;
<b>Ganj</b>	6) davlat, boylik;
<b>Sabukxez</b>	7) yengil, chaqqon.

<b>G`AVVOS</b> – a. – suv tagiga tushuvchi, tez-tez sho ‘ng ‘uvchi] –
1). <i>Suvga sho ‘ng ‘uvchi, suv ostida dur izlovchi shaxs.</i>
* <i>Yetar maqsadga mehnat birla mehnatkash qilib jur’at. Topar g‘avvos bo ‘lib daryoi mehnatdan duri rohat. <b>Habibi</b>.</i>
2). <i>Suv o ‘tkazmaydigan maxsus kiyimda suv osti ishlarini bajaruvchi shaxs. Kemaning yukini g‘avvoslar necha asrlardan keyin – yaqindagina suv yuzasiga chiqardilar. <b>H. Karimov, San’at sehri.</b></i>

<b>MATO</b> – [a. – mol, ashyo; yuk]
1 <i>Gazlama, material, materiya. Paxta ipdan to ‘qilgan mato. Bunday bo ‘yoq bilan bo ‘yalgan mato o ‘ngib ketmaydi. «Fan va turmush».</i>
2 <i>Mol, buyum, narsa.</i>
* <i>-Yo qudratingdan, ishonmaydi-ya! – dedi Turobjon – [xotiniga] keltirgan matoni titkilab, – mana, chaynab ko ‘r! <b>A. Qahhor, Anor.</b></i>

<b>SHAVQ</b> a. – histuyg ‘u, ehtiros; kuchli orzu, havas, istak
1 <i>kt. Kuchli havas, intilish; qiziqish, ishtiyoq. Bu g‘azalda.. yosh yigitning hissi, shavqi, nash’asi yangradi. <b>Oybek, Navoiy.</b></i>
* <i>Bu tiladabiyot muallimi ta ‘lim va tarbiya ishini sevar, yuragida tobora kuchaygan bir shavq bilan maktabda ishlar edi. <b>Oybek, Nur qidirib.</b></i>
2 <i>Shunday intilish, qiziqish tufayli yuzaga kelgan ko ‘tarinki ruhiy holat; zavq.</i>

\**Shavqqa to ‘lib kuylamoq. Guli: G‘azalkim, so ‘zlagay ishqdin, safodin. G‘azaldin bu kabi shavq olmagan kim **Uyg‘un va I. Sulton, Alisher Navoiy.***

*\*Garmonchi ham shavqidan beixtiyor o'rtaga tushib, o'yin ayni doliguliga kelganda, maydon gumburlab ketdi. **Oybek, Quyosh qoraymas.***

## 4-BO'LIM GAP

### 28-dars

#### GAPNING IFODA MAQSADI

##### 32-topshiriq. Matinni o'qing.

##### KO'RNING JAVOBI

Sayyor ismli ko'r arablar orasida eng mashhur ekan. Bir kuni ko`chada unga tegishib:

- Hoy, Sayyor, Xudodan tila, ko`zing evaziga biror nima bersin, – debdi.
- So`radim – berdi, – debdi ko'r.
- Nima berdi?
- Senga o'xshagan ahmoqlarning basharasini ko`rmaslikni!

**35-topshiriq.** Berilgan izohlardan a) sayyor, b) tegishmoq, c)ahmoq, d)karomat, e)evaz, f)bashara so'zlarining ma'nosini topib, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling:

- 1) sayr qiluvchi, sayohatchi;
- 2) tegajoqlik qilmoq;
- 3) bilib turib xato qiladigan qishi;
- 3) mo'jizasimon holat;
- 4) o'rniga, badaliga to'lanadigan yoki olinadigan haq, narsa; badal; 5) xunuk ko'rinishli, yoqimsiz qiyofa.

a) sayyor	1) sayr qiluvchi, sayohatchi;
b) tegishmoq	2) tegajoqlik qilmoq;
c)ahmoq	3) bilib turib xato qiladigan qishi;
d)karomat	4) mo'jizasimon holat;
e)evaz	5)o'rniga, badaliga to'lanadigan yoki olinadigan haq, narsa; badal;

*f) bashara*

6) xunuk ko‘rinishli, yoqimsiz qiyofa.

**SAYYOR** - [a. – doimo harakatlanuvchi, harakatchan]

1 Bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurib xizmat qiladigan. Sayyor ko‘rgazma. Sayyor ustaxona. Sayyor kino.

2 Doimiy joydan boshqa yerga borib o’tkaziladigan, uyushtiriladigan. Sudning sayyor majlisi. Sayyor ilmiy sessiya.

3 Muqim turar joyidan boshqa joylarda kezib yurib, ish olib boruvchi. Sayyor muxbir. Unda-bunda sayyor attorlarning «ip ketdi, igna ketdi..» kabi qichqiriqlari.. shahar shovqiniga madad berib turadi. **M. Ismoiliy, Farg’ona t. o.**

4 - esk. kt. - ayn. sayyoh. Nosirboy ham bo’sh kelmaydi: -Men! Nomim Nosir sayyori Samarqandiy. **A. Qodiriy, Obid ketmon.**

5 Sayyor (erkaklar ismi).

**TEGINMOQ** - kam qo’ll.

Daxl qilmoq, tutinmoq; gap-so’z yoki qo'l bilan tegmoq.

Eshikni ochsa ham, idish-tovoqlarga teginsa ham, tars-turs, qars-qurs qilib, kimdandir o‘ch olayotganday bo'lardi. **R. Rahmon, Mehr ko'zda.**

Holin bilmay, har kim halok bo'ladi, Kim bunga teginsa, tayin o'ladi. «Alpomish».

**AHMOQ** — esi past, tentak]

1) Aql bilan ish qilmaydigan, akdga zid, bema’ni ishlar qiladigan, shunday ishlarga yo’l qo‘yadi gan. Esing kirmadi sen ahmoqning. Boshimizni baloga qo‘yib, o‘zing bu yoqlarda tuproqqa qori shib yuribsan. **S. Ahmad, Ufq.**

Ahmoq qilmoq Laqillatmoq, aldamoq. Innaykin, ishim bitdi, eshagim loydan o‘tdi, deb o‘zini laqillatib ketaverardim. **Xamza, Boy ila xizmatchi.**

Haqorat ifodalaydi. Ablah odam ekan san! — dedi — imom — . Siz ham ahmoq mulla ekansiz! — dedi Safar bo‘zchi. **A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.**

**KAROMAT** - [a. – obro’-e’tibor; saxovat, saxiylik; mo’jiza]

1 Xudoning, g’ayritabiyy kuchlarning aralashuvi bilan, ular yordamida vujudga keladigan g’aroyib hodisa(lar), mo’jiza.

2 - din. Biror voqyea-hodisaning qachon va qanday bo'lishini ilohiy bilim asosida oldindan bilish, oldindan aytib berish; bashorat.

Karomat nog'orachilarda bo'ladi. Qo'shningning xotini tug'sa, ertalob nog'ora ovozidan bilasan. **T. Obidov, Yusufjon qizi - q.**

3 - esk. Oldindan aytigan xabar, fikr-mulohaza. Karomatingiz juda to'g'ri. Eshon va eshon ayaning har bir gapini karomat bilgan muridlarning tushunchasini o'zgartmoq, eshondan e'tiqodini qaytarmoq oson emas. **S. Ahmad, Hukm.**

Karomat qilmoq. - 1) oldindan aytmoq, oldindan bilib, bashorat qilib aytib bermoq.

Agar shahardagi qo'l bergen donishmand pirim kelib- -Hoy Madamin, bir kun emas, bir kun amaldan ajrab, xalq oldida bo'yin egasan, – deb karomat qilsa, pir bo'lishiga

qaramay, qamchi bilan rosa savalardim. **P. Tursun, O'qituvchi;**

2) oldindan xabar bermoq, fikr bildirmoq. Xuddi dehqonlarning yuragiga qo'l solib, dardini topganday, karomat qilib aytishini qarang-a. **R. Fayziy, Cho'lga bahor keldi.**

Karomat ko'rsatmoq - s. t. Ajablanadigan yoki qoyil qoladigan ish qilmoq, mo'jiza ko'rsatmoq.

O'qib, nima karomat ko'rsatardingiz, bolam Juda shahar olib berarmidingiz **M. Jaloliddinova, Jur'at.**

– Doktor chaqiraymi, Polvon amaki -Qo'y, inim.. doktoring nima karomat ko'rsata olardi. **R. Rahmon, Mehr ko'zda.**

Sohibi karomat Oldindan aytuvchi, bashorat qiluvchi.

4 Karomat (erkaklar va xotin-kizlar ismi).

**EVAZ** - o‘rniga, badaliga to‘lanadigan yoki olinadigan haq, narsa; badal;

**BASHARA** – [a.– teri; po'st]

1). Kishi boshining old qismi; bet, yuz. Eshik g'ich etib ochildida, tirkishidan boshini yashil chorsи bilan tang'ib, yuziga qatiq surib olgan ayolning basharasi ko'rindi. **U. Nazarov, Odamlar.**

Voy, basharang qursin, nima balo bo'ldi Hammomning go'laxiga o'xshab ketibsan. **Oydin, Hazil emish.**

Basharang qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalama. «**Qanotli so'zlar**».

Kishining ruhiy holatini, xarakterini gavdalantiruvchi holat, ko'rinish; aft, avzo.

*Isfandiyorning zahar basharasini ko'rishdan qutulibsan, — dedi Ko'kan. J. Sharipov, Xorazm.*

*Aka-ukaning basharasiga razm solib, kinoya bilan dedi: Ko'zlariningiz bejo, nima bo'ldi, tinchlikmi Oybek, Tanlangan asarlar.*

*[Ko'chma] Kishining ma'naviy qiyofasi. Odamlarning «har ikki dunyosi» uchun ham go'yo jonkuyarlik qilgan bu xudo vakili – [Zag'chako'z] xurjunini to'ldirib, shaharga borganda, asl basharasini ko'rsatar edi. P. Tursun, o'qituvchi.*

*G'ofir tobora avjiga chiqar, boyning haqiqiy basharasini ochishda davom etar edi. K. Yashin, Hamza.*

*Aniqlanmish vazifasidagi so'z bilan birga kelib, «o'xshash», «o'xshagan», «simon» ma'nolarini bildiradi. Odamlar gurkirab kulib turgan paytda ularning yoniga mulla bashara bir kishi kelib qo'shildi. M. Ismoiliy, Farg'ona t.o.*

*Shu payt dumi, quloqlari qirqilgan ayiq bashara it otni quvib qoldi. M. Mansurov, Yombi.*

*Qopqopa, xabash bashara Musa soatga qapab turar edi. P. Tursun, o'qituvchi.*

## 29-dars

### MUMTOZ MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

<p><b>TALAB VODIYSI (davomi)</b></p> <p>Ollingga kel/sa agar <b>pi/li damon</b> Ko`rgosen pash/sha hamon-u/ pil hamon.</p> <p>Gar yo`lungni /tutsa yuz she/r-u <b>palang</b>, Bo`lg`ay olling/da nechukkim/ <b>mo`ri lang</b>.</p> <p>Ajdahodin /yetmagay ko`/ngulda ranj, O`yla bo`lmish/ bo`lg`ay ul <b>mash'/uf</b> ganj.</p> <p><b>Kufr</b> ila iy/mong`a urg`ay/sen ilik,</p> <p>Bu <b>tama'din/kim</b> ochilg`ay/ bir eshik.</p> <p>Chun eshik o/childi ne kuf/r-u ne din, Ichkari kir/gach qutulding/ barchadin.</p> <p>Kufr-u iymon/ <b>rohravg`a /kesh</b> emas, Asl yo`lda <b>/bandi rohe, /besh</b> emas.</p> <p><b>(Alisher Navoiy, “Lison ut-tayr”)</b></p>	<p><b>TALAB VODIYSI</b> <i>(Nasiy bayoni)</i></p> <p>Agar bu payt oldingga mast fil kelsa ham sen uni pashshacha nazar-pisand qilmaysan.</p> <p>Agar yo'lingni yuz sher yoki arslon to'ssa, ularni sen cho'loq chumolidek ko'rasan ko'rasan.U xazinaga erishsang, ko'nglingga ajdahodan xavf yetmaydi.</p> <p>Kufr va imondan qo'lyuvasan, shundan so'ng oldingda bir eshik ochiladi. Eshik ochilib, ichkari kirganingda, unda na kufr, na din qoladi, ularning barchasidan qutulasan.</p> <p>Chunki kufr yoki imon bu yo'lga kirgan kishi uchun maslak emas. Bular asl yo'ldagi to'siqdan boshqa narsa emasdir.</p> <p>Sharofiddin SHARIPOV,f.f.n. Vahob RAHMON O‘zRESda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi nasriy bayoni. “Tafakkur” nashriyoti, Toshkent – 2020. (2,157-158-betlar)</p>
--	--

**75-mashq.** Berilgan izohlardan matndagi ajratilgan so‘zlarning ma’nosni aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va yodlang:

- 1) mast, quturgan fil;
- 2) yo‘lbars;
- 3) cho‘loq chumoli;
- 4) kofirlik, dindan qaytganlik;
- 5) istak, xohish;
- 4) yo‘lovchi, maqsadga intilgan kishi;

5) maqsad, mo‘ljal; 6) yo‘ldagi band, to‘sinq; monelik; 7) afzal, tuzuk.

<b>Pili damon</b>	1) mast, quturgan fil;
<b>Palang</b>	2) yo‘lbars;
<b>Mo`ri lang</b>	3) cho‘loq chumoli;
<b>Kufr</b>	4) kofirlik, dindan qaytganlik;
<b>Tama'</b>	5) istak, xohish;
<b>Rohravg`a</b>	4) yo‘lovchi, maqsadga intilgan kishi;
<b>Kesh</b>	5) maqsad, mo‘ljal;
<b>Bandi rohe</b>	6) yo‘ldagi band, to‘sinq; monelik;
<b>Besh</b>	7) afzal, tuzuk.

<b>Kesh/ Kish I – odat, fe'l; yo'l, maslak, qo'llanma; Mas'hab</b>
*kufr-u imon rohravg'a kesh emas, Asl yo'lda bandi rohi besh emas. <b>Alisher Navoiy “Lison ut-tayr”.</b>
<b>II – O‘qdon</b>
*Ursa har kirpik tuman jong‘a nesh, Bilki, budur hinduyi qotilga kesh. <b>Alisher Navoiy “Lison ut-tayr”.</b>
<b>Kufr – kofirlik, dinsizlik; islomni tanimaslik:</b>
*Kufr ila imong‘a urg‘aysen ilik, Bu ta'madinkim ochilg'ay bir eshik. <b>Alisher Navoiy “Lison ut-tayr”.</b>
<b>Lang – cho‘loq, oqsoq.</b>
*Navsafrsen sen-u maqsad yiroqu Markab lang, Yo'l maxuf, aylama zinxor ora yerda maskan. <b>Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”</b>
<b>Mash’uf – maftun, oshiq, shaydo.</b>
*Va andin mash’uf va mustag’raq bo’libturlarki, ba’zi bu kalimani eshitgach, behush bo’lib yiqilibturlar.
<b>Alisher Navoiy ”Nasoyim ul-muhabbat”</b>
<b>Mo'r – chumoli qumursqa.</b>

*\*Oxir chu ajal anga maqom ayladi go'r, Tufroq  
ichida qildi vatan o'ylaki mo'r.*

**Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo"**

**Pil – fil Shaxmat donalaridan biri.**

*\*Yana ming qiloda pili bor edi va aning zamonida pil Hindistondin o'zga yerda  
bolaladi. Alisher Navoiy "Tarixi mulki ajam"*

## 31-dars

### MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

**41-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing.

### TILSHUNOS VA QAYIQCHI

Bir kun mag'rur tilshunos sohilda turgan qayiqqa minib narigi qirg'oqqa o'tmoqchi bo'ldi. Sohilda yo'lovchi kutib turgan qayiqchilardan biriga yuzlandi. Qayiq yaqinlashdi. Olim qayiqqa o'tirdi. Dengizni tomosha qilib ketayotgan olim qayiqchidan so'radi:

- Sen hech **nahv** o'qiganmisan?
- Yo'q men **johil** bir qayiqchiman. Olim:
- E voh, juda xafa bo'ldim. Demak, yarim umring behuda o'tibdi, – deya achinib qayiqchiga qaradi.

Shu vaqt **dovul** turdi. Keyin dengizning o'rtasida chayqala boshladi, qayiqchi butun kuchi bilan xavfdan qutulish uchun harakat qildi. **Bo'ron** borgan sayin kuchayar, qayiq esa cho'kish arafasida edi. Shu vaqt qo'rquvdan dir-dir titrayotgan olimdan qayiqchi so'radi:

– Ey, har narsani bilgan olim do'stim. Suzishni bilasanmi?

Yo'q javobini olgan qayiqchi:

– Voh, voh, sen umringni behuda sarflabsan. Hozir butun umring ketdi. Chunki birozdan keyin qayig'im cho'kadi. Yaxshi bilginki, bu yerda hozir nahv (grammatika) emas, **mahv** ilmi lozim. Agar mahv ilmini bilsang, qo'rmasdan dengizga sakra, – dedi.

(Jaloliddin Rumiy, "Masnaviy")

**42-topshiriq.** Berilgan izohlardan matndagi ajratilgan so‘zlarning ma’nosni aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va yodlang: a) nahv, b) johil, c) dovul, d) bo‘ron, e) mahv

- 1) tilning sintaktik qurilishi haqidagi soha;
- 2) o‘qimagan, savodsiz kishi;
- 3) kuchli shamol;
- 4) yomg‘ir aralash kuchli shamol; 6) daf qilish, yengish.

<b>a) nahv</b>	1) tilning sintaktik qurilishi haqidagi soha;
<b>b) johil</b>	2) o‘qimagan, savodsiz kishi;
<b>c) dovul</b>	3) kuchli shamol;
<b>d) bo‘ron</b>	4) yomg‘ir aralash kuchli shamol;
<b>e) mahv</b>	5) daf qilish, yengish.

**NAHV** - [a. – tomon; chekka, burchak; sintaksis] esk. - ayn. sintaksis.

<b>JOHIL</b> – [a. – nodon, o‘qimagan, bilimsiz]
<i>Jaholatda qolgan, ilm-ma'rifatdan mahrum; qoloq, madaniyatsiz, nodon.</i>
<i>Jahl – johilning quroli. Maqol.</i>
<i>– [Qozi ellikkoshiga– ] Siz aralashmay turing, ellikkoshi, johilsiz. To'mtoq gapirib, ishning pachavasini chiqardingiz! <b>Hamza, Boy ila xizmatchi.</b></i>
<i>So'fiev nodon, johilgina bo'lmay, o'ziga xiyla ishongan g'irrom ham ekanligi ko'rinish turardi. <b>H. Nazir, Ko'kterak shabadasi.</b></i>

<b>DOVUL-</b> Vayronlik keltiruvchi kuchli bo'ron.
<i>Dovul turdi. Dovulda qolmoq.</i>
<i>Sal o'tmay osmon oqarib, atrof yorisha boshladi-yu, tungi qora dovulning qabih ishi butun dahshati bilan namoyon bo'ldi. <b>O. Yoqubov, Diyonat.</b></i>
<i>Yolg'izlik qursin, yolg'izga qorong'i tunda shabada ham dovul bo'lib tuyular ekan. <b>I. Rahim, Ixlos.</b></i>

<b>BO'RON</b> – 1). To'zon yoki qoryomg‘ir aralash esadigan shiddatli shamol.
<i>Bo'ri bo'ronda quturar. Maqol.</i>

<p><i>Hamma yoqni qum bo'roni qopladi. Omon ko'rinxmay qoldi. <b>H. Nazir, Yonar daryo.</b></i></p>
<p><i>Qum bo'roni o'tov kigizlarini, baliqchilarning to'rlarini osmonda uchirib yurdi. <b>A. Muxtor, Qoraqalpoq qissasi.</b></i></p>
<p><i>Zargarov to'xtab, pastga tushdi. Atrof zimziyo, bo'ron quturib ko'z ochirmasdi. <b>A. Muxtor, Bo'ronlarda bordek halovat.</b></i></p>
<p><i>[ko'chma] To'xtamasdan yog'(il)ayotgan narsa. To'plarning o'q bo'roni avvalgi kuch va g'azab, qahr bilan samoda hukmron edi. <b>Oybek, Quyosh qoraymas.</b></i></p>
<p><i>[ko'chma] Shiddatli, davomli harakat, oqim; to'fon.</i></p>
<p><i>Xalqning qudratiga, bo'roniga hyech qanday tog' dosh kelolmas! – dedida, Sultanmurod chiqib ketdi. <b>Oybek, Navoiy.</b></i></p>
<p><i>Nahot yovuz bo'ron xasdek uchirgay Q– ar tomirimda otashin qonlar. «<b>Guldasta</b>».</i></p>
<p><i>Xalq qo'shiqchilarni qarsak va qiyqiriq bo'roni bilan olqishladi. <b>Oybek, O. v. shabadalar.</b></i></p>
<p><i>Ichki, ruhiy kechinmalar g'alayoni, tug'yoni. Lekin ichidagi haligi jang bo'roni bir nafas ham tinmadi. «<b>Mushtum</b>».</i></p>
<p><i>Mana, o'zingiz ko'rib turibsiz, shunaqa gaplardan keyin oshiq qalbida bo'ron ko'tarilmaydimi <b>X. To'xtaboev, Shirin qovunlar mamlakati.</b></i></p>
<p><i>Qo'zg'aling, hyey, histuyg'ular bo'roni, Ko'pdan sizga ko'z tutardim umidvor. Dilshoda, Umidim. Bu so'zlar Yo'lchining yuragida bo'ron yasadi, u totli, zavqli hayajon bilan qaltirardi. <b>Oybek, Tanlangan asarlar.</b></i></p>
<p><i>[ko'chma] Xavfxatar, dahshat.</i></p>
<p><i>Tinchlik daraxtini olovlardan, bo'ronlardan asrashimiz kerak. «<b>Saodat</b>».</i></p>
<p><i>U nene daryolarning to'lqinlarini o'lim bo'ronlari orasida kechib o'tmadi. <b>Oybek, O. v. shabadalar.</b></i></p>
<p><i>Senga na bo'ronlar kor qila olur, Seni na yo'qotib, bor qila olur. <b>A. Oripov, Yillar armoni.</b></i></p>
<p><i>[ko'chma] Balo, ofat, kulfat. Nifoq bo'roni xarob etgan Xorazmni osonlikcha zabt etib, behisob o'ljalari olib kelganidan u xursand. <b>M. Osim, Karvon yo'llarida.</b></i></p>
<p><i>Ana o'shanda ko'rasan Xorazmda fitna bo'ronining boshlanishini. <b>M. Osim, Karvon yo'llarida.</b></i></p>
<p><i>Xalqlar boshiga zulm bo'ronini yog'dirgan va ofatlar keltirgan sariq vabo – Gitler mashinasi zil ketdi. <b>N. Safarov, Olovli izlar.</b></i></p>
<p><i>Bo'ron (erkaklar ismi).</i></p>

**MAHV** - Daf qilish, yengish.

## 32-dars

### Mustahkamlash darsi

### GAPNING IFODA MAQSADI VA TUZILISHIGA KO'RA TURLARI YUZASIDAN TAHLIL

#### HILM NIMA?

Anushervon Buzurgmehrdan:

- Hilm nima? – deb so`rabdi.
- Hilm – axloq dasturxonining tuzi. *Hilm* so`zini teskari o`qisang, milh, ya`ni “tuz” bo`ladi. Hech bir ovqat tuzsiz ta`mga ega bo`lmaydi. Hech bir xulq ham hilm, ya`ni muloyimliksiz kamol topolmaydi, – deb javob berdi. Anushervon yana undan:
  - Hilmning belgilari qanday bo`ladi? – deb so`radi.
  - Uning uch alomati bo`ladi, – deb javob berdi Buzurgmehr, – birinchisi – birov senga qovog`ini solsa yoki achchiq so`zlarni aytsa ham, unga nisbatan shirin so`z aytasan, agar u o`z fe`li bilan xafa qilsa, uni xursand qilishga urinasan. Ikkinchisi – g`azab o`t olib osmonga o`rlagan paytda ham sukut qilib, xomush bo`lib turasan. Uchinchisi – biror kimsa kirdikori bilan g`azabga loyiq bo`lsa ham, g`azabni ichga yutib, o`zingni bosasan!

(“Sharq hikoyat va rivoyatlari”).

**47-topshiriq.** Berilgan izohlardan a) *hilm*, b) *axloq*, c) *milh*, d) *xulq*, e) *qovog`ini solmoq*, f) *o`rلamoq*, g) *xomush bo`lmoq*, h) *kirdikor*, i) *o`zini bosmoq*, j) *langar*, k) *munofiq* so`zlarning ma’nosini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling:

- 1) so`zi va amali bir bo`lмаган kishi;
- 2) qирғоңға ташланыб, кемани ушлаб турадиган мослама;
- 3) hayajon holatida o‘zini tutmoq;
- 4) yashirib qilingan noto‘g‘ri ishlar;
- 5) g‘amgin holatga tushmoq;
- 6) balandga ko‘tarilmoq;

- 7) achchiqlanib qoshini chimirib olmoq;  
 8) xulqning arab tilidagi ko‘plik shakli;  
 9) tuz;  
 10) kishining o‘zini tutishi, ma’naviy qiyofasi; 11) muloyimlik, halimlik.

<b>k) munofiq</b>	1) so‘zi va amali bir bo‘lmagan kishi;
<b>j) langar</b>	2) qirg‘oqqa tashlanib, kemani ushlab turadigan moslama;
<b>i) o`zini bosmoq</b>	3) hayajon holatida o‘zini tutmoq;
<b>h) kirdikor</b>	4) yashirib qilingan noto‘g‘ri ishlar;
<b>g) xomush bo`lmoq</b>	5) g‘amgin holatga tushmoq;
<b>f) o`rlamoq</b>	6) balandga ko‘tarilmoq;
<b>e) qovog`ini solmoq</b>	7) achchiqlanib qoshini chimirib olmoq;
<b>b) axloq</b>	8) xulqning arab tilidagi ko‘plik shakli;
<b>c) milh</b>	9) tuz;
<b>d) xulq</b>	10) kishining o‘zini tutishi, ma’naviy qiyofasi;
<b>a) hilm</b>	11) muloyimlik, halimlik.

***AXLOQ — a. eUl.I) — kishining tabiat]***

\*Muomala, xattiharakat odobi. Aslini ol ganda, axloq — ma’naviyatning o‘zagi. **Gazeta dan.**

\* Rahbar axyuqidagi asosiy narsa so‘z va ish birligini o‘z faoliyatining mazmuni deb bilishdir. “**Fan va turmush**”.

***XULQ-ATVOR – [xulq + atvor] Fe'l-atvor, xarakter.***

\*Hamida xulq-atvori shamolga o‘xshagani bilan ko‘p narsaga aqli yetardi. **S. Anorboev, Mehr.**

\* Bola yetti yoshga to‘lib, maktabga borgan yili uning xulq-atvorida birmuncha burilish paydo bo‘ladi. «**Fan va turmush**».

***O‘RLAMOQ – I Yuqoriga, tepalikka tomon yurmoq, yo‘nalmoq, chiqmoq.***

\* Toqqa o‘rlab Ochil ketib boradi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li.

\*Ayoli yosh boladay uning qo 'lidan tutadi. Yetaklashib, yuqoriga o 'rlaydilar.  
**N. Norqobilov, Bekatdagi oq uycha.**

\*Qirga o 'rlab ketadigan so 'qmoqda bir eshakli boryapti. **T. Murod, Yulduzlar mangu yonadi.**

**2** Ko 'kka (osmonga) ko 'tarilmoq; yuqorilamoq. Sulton ulardan – [quyunlardan] qochib, mashinani dam chapga, dam o 'ngga burdi, nihoyat, qutuldik deganimizda, yana bittasi ro 'paramizdan osmonga o 'rlab qoldi. **A. Muxtor, Davr mening taqdirimda.**

\*Uylar-ning mo 'risidan ko 'tarilgan tutun osmonga o 'rlaydi. **M. Hazratqulov, Jur'at.**

**KIRDIKOR** – [f. – yaratuvchi, vujudga keltiruvchi (xudoning sifati)] Umuman, qilingan ishlar, xatti-harakatlar; odatda ma 'lum shaxs yoki shaxslarga oid nomaqlish, xatti-harakatlar; qilmish.

\*Oyimxon Tojiboyning hamma kirdikorini bilar, bularni jamoat ham bilib qo 'yishini istar edi. **P. Tursun, O 'qituvchi.**

\*Uning – [Umrining] kirdikorini men bilaman, undan men jirkanaman deb yursam, butun qishloq bilar ekan, butun qishloq jirkanar ekan. **A. Qahhor, Xotinlar.**

**LANGAR I** - [f. ] Kemani va b. Suzib yuruvchi vositalarni suv yuzida ma 'lum bir joyda to 'xtatib, ushlab turish uchun zanjirga biriktirib, suv ostiga tashlanadigan og 'ir temir changak.

\* Kema ko 'm-ko 'k suvlari chayqalib turgan qo 'ltiqqa langar tashladi. **M. Mahmudov, Mangu kuy izlab.**

**MUNOFIQLIK** – Munofiqona ish, xatti-harakat.

\* Bu yerda samimiysizlik va munofiqlik, bir-birini aldash Elmurod uchun oddiy bir haqiqat bo 'lib qolgan edi. **P. Tursun, O 'qituvchi.**

## 5-BO'LIM SODDA GAP SINTAKSISI

**35-dars**

## SODDA GAP. GAP BO'LAKLARI

**58-topshiriq.** Quyida berilgan izohlardan ushbu so‘zlarning ma’nosini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling: a) evaz, a) evaz, c) moyil bo‘lmoq, d) xushomadgo‘ylik, e) xiyanat qilmoq, f) o‘zini chetga olmoq:

- 1) o‘zidan zo‘rga soxta mulozamat ko‘rsatmoq;
- 2) va’dasida turmaslik;
- 3) aralashishni istamaslik;
- 4) o‘rniga, badaliga;
- 5) “kak-kak” ovoz chiqarib sayraydigan tog‘ sayroqi qushi; 6) yon bosmoq, rozi bo‘lmoq.

<b>d) xushomadgo‘ylik</b>	1) o‘zidan zo‘rga soxta mulozamat ko‘rsatmoq;
<b>e) xiyanat qilmoq</b>	2) va’dasida turmaslik;
<b>f) o‘zini chetga olmoq</b>	3) aralashishni istamaslik;
<b>a) evaz</b>	4) o‘rniga, badaliga;
<b>a) evaz</b>	5) “kak-kak” ovoz chiqarib sayraydigan tog‘ sayroqi qushi;
<b>c) moyil bo‘lmoq</b>	6) yon bosmoq, rozi bo‘lmoq.

## 36-dars

### MUMTOZ MATN VA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH

**88-mashq.** Matnni diqqat bilan o‘qing. Unga mos mavzu tanlang.

**Afv** deb kechurmakni aytilar. Bir kishi qilgan kamchiliklarini bo‘yniga olub, o‘kunub, kechurmakni so‘rasa, afv qilmak lozimdur. Chunki afv yaxshi **xulqlarning afzali**, insoniyatning **fazilatidur**. Janobi Haq Qur’oni karimda afvni maqtab **madh qilmishdur**. Olijanob kishilar uzrni qabul qilur. Bir kishi qusur va **qabohatini** bo‘yniga olub uzr aytsa, afv qilur, kechirur. Kattalik va ulug`likning lazzati birovdan o‘ch olmakda emas, balki afv qilmakdadur.

Masalan, Ahmad Mahmudga bir yomon ish qilub dilini og`ritdi. Mahmud Ahmaddin o`chini oldi. Bas, Ahmad ila Mahmudning orasidagi yomonlikdagi farq na o`ldi. Holbuki, har ikkisi ham bir-biriga yomonlik qildi. Har ikkisi ham g`amlik va **parishon bo`ldi**. Bir yomonlik ikki bo`ldi. Agarda Ahmadning qabohatiga Mahmud afv mukofotini bersa, ikkisi ham shod-u **masrur** o`lur hamda Janobi Haq afv qiluvchilarni suyar. O`zi ham afv, **mag`firat** qiluvchidir. No`siravon: “Bir gunohkorni afv qilmakdan qanday lazzat olganimni hech kimga aytmayman”, – demish.

(Abdulla Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”)

**60-topshiriq.** *Afv, xulq, afzal, madh qilmoq, uzr, qusur, masrur so‘zlaridan tavsiya etiladigan so‘zlar asosida ma’nodoshlik qatori hosil qiling:* axloq, tarbiya, odob, adab, xulq, xulq-atvor, yurish-turish, yaxshi, durust, tuzuk, maqtamoq, olqishlamoq, ko‘kka ko‘tarmoq, ta’rif-tavsif qilmoq, kechirim, ma’zur, nuqson, kamchilik, xato, yetishmovchilik, mast, shodon, xursand.

Afv	Xulq	Afzal	Qusur	Madh qilmoq
Ma'zur	Axloq	Yaxshi	Nuqson	Maqtamoq
Kechirim	Odob	Durust	Kamchilik	Olqishlamoq
	Adab	Tuzuk	Xato	Ko‘kka ko‘tarmoq
	Xulq-atvor		Yetishmovchilik	Ta’rif-tavsif qilmoq
	Tarbiya			

### 38-dars

#### MATN VA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH

**65-topshiriq.** *a) jo‘yali, b) kerik, c) siyrat, d) javraqi, e) mag‘rib, f) notob so‘zlarining ma’nolarini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling:*

- 1) orasi ochilgan; teshiklari katta;
- 2) yoqimsiz gaplarni ko‘p gapiradigan;

- 3) tobi qochgan, kasallangan;
- 4) kunbotish tomon, g‘arb;
- 5) o‘rinli, muvofiq;
- 6) odamning ichki olami, ruhiy dunyosi.

<b>b) kerik</b>	1) orasi ochilgan; teshiklari katta;
<b>d) javraqi</b>	2) yoqimsiz gaplarni ko‘p gapiradigan;
<b>f) notob</b>	3) tobi qochgan, kasallangan;
<b>e) mag‘rib</b>	4) kunbotish tomon, g‘arb;
<b>a) jo‘yali</b>	5) o‘rinli, muvofiq;
<b>c) siyrat</b>	6) odamning ichki olami, ruhiy dunyosi.

**NOTOB** – [f. – kuchsiz, nimjon; chidamsiz]

\*Tobi yo‘q, kasal, betob.

\*Xudo bergen bir o‘g‘il, bir qizim bor. Ularni notob deb eshitdim. Oybek,  
**Tanlangan asarlar.**

**MAG‘RIB** – [a. – kunbotar (joy va vaqt); g‘arb; oqshom]

\*esk. Kt. G‘arb, kunbo – tar.

\*Bir to‘da yigit mag‘ribdan to mashriqqacha yetgan lak-lak lashkari bo‘lgan temuriylar sultanatini qulata olarmidингиз! **Mirmuhsin, Me’mor.**

**JAVRAQI** – Hadeb gapiraveradigan, vaysaqi.

**SIYRAT** – [a. – tarjimai hol, turmush tarzi; obro‘, e’tibor, tarix, umr yo‘li]  
kt.

\*Ichki olam; ruhiyat.

\*Odamning suratiga qarama, siyratiga qara. Maqol.

\*Xullas, surat bor-u, siyrat yo‘q. Siyratsiz tana o‘lik emassi S. Siyoev,  
**Yorug‘lik.**

**KERIK** – 1 Orasi ochiq, kerilgan; teshiklari katta.

*\*Mirhoji boshi yumaloq, katta burnining kataklari kerik.. gerdaygan boy.  
Oybek, Ulug‘ yo‘l.*

*2 ko‘chma O‘ziga bino qo‘ygan; taltaygan, kerilgan. Mana bugun ham mingboshining kerik xotini.. «Itvachchalarini ergashtirib chiqmasin, biram suq, biram ifloski bolalari», deganini eshitib, bormadi. **M. Ismoiliy, Farg‘ona t. O.***

## 41-dars

### MATN VA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH

**71-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o`qing. Talaffuzi va yozilishi bugungi me'yordan farqlanuvchi so`z va qo`shimchalarini belgilang.

#### SO‘Z CHAMANIDA ZAMONA VA TAVORIX

Darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilg‘an bu dong‘dor **saroyni** Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagи bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to‘la. **Saroy** ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo‘shab hujralariga qaytqanlar, ko‘b **hujralar** kechlik osh pishirish ila mashg‘ul, shuning uchun kunduzgiga qarag‘anda **saroy jonliq**: kishilarning shaqillashib so‘zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko‘kka ko‘targudek. Saroyning to‘rida boshqalarg‘a qarag‘anda ko‘rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to‘shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo‘z ko‘rpalar ko‘rilgan bo‘lsa, munda ipak va adres ko‘rpalar, narigilarda qora **charog‘** sasig‘anda, bu hujrada sham’ yonadir, o‘zga hujralarda yengil tabi’atlik, serchaqchaq kishilar bo‘lg‘anida bu hujraning egasi – boshqacha yaratilishda.

... Otasining **valine’mati** bo‘lg‘an bir **bekning** zulmini iqrор etish haqiqatan ham taajjubka loyiq edi. Azizbekning Turkiston xonlig‘ining eng zolim va mustabid sanalg‘an **beklarining** biri va uning o‘z qaramog‘ida bo‘lg‘an Toshkand aholisiga qilg‘an zulmlari Farg‘onaga doston, ammo Akram hojining bu savoli Azizbekning eng yaqini bo‘lg‘an bir kishining o‘g‘lini sinab ko‘rishlik uchun edi. Bu sinash natijasi Akram hojining taajjubini orttirdi va buning sirrini bilishka qiziqsindi...

Hasanalining sinashi nihoyatiga yetkandek bo‘ldi, hatto yuqoridag‘i javobni eshitkan vaqtida nima uchundir o‘zini bir turlik kulgidan arang to‘xtatib qolg‘an edi. Yana o‘rtada xomushlik hukm surib, Hasanali ishni tuzikroq ochish va yo shu ko‘yi

goldirib ketaberish talashida edi. Hasanali bekning har bir siriga o‘zini mahkam deb hisoblag‘anliqdan darhaqiqat, Otabekka **mahram** bo‘lishg‘a loyiq bir mehribonchiliqqa ega bo‘lg‘anliqdan xo‘jazodasi bilan ochiq so‘zlashish fikriga keldi. Bir necha daqiqa muqaddima uchun reja qurib o‘lturgandan so‘ng tilga keldi.

... Bu kunlarda Marg‘ilonda shunday xabar chiqib qoldi. “Toshkand hokimi bo‘lg‘an Azizbek Qo‘qong‘a qarshi bosh ko‘targan. Xon tomonidan xiroj (zakot, soliq) uchun yuborilg‘an **devon** beklarini o‘ldirgan!” Ikkinci kun bu xabar tag‘i ham boshqacha to‘n kiydi: “Musulmonqul Normuhammad qushbegiga besh ming sipoh qo‘sib, Toshkand ustiga jo‘natqan!”

... Xalq: “Kerak, albatta, kerak, taqsir! Agar ruxsat bersangiz, bu kundan boshlab **qo‘rg‘onlarni tuzata beramiz!**”

**72-topshiriq.** Berilgan izohlardan *dongdor, hujra, kigiz, valine’mat, mustabid, mahram, xo‘jazoda, muqaddima, xiroj, devon, zakot, qushbegi* so‘zlarining ma’nolarini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va eslab qoling:

- 1) shuhrat qozongan, dovrug‘i ketgan;
- 2) madrasa, qorixona va masjidda shogirdlar, domlalar yashashi uchun ajratilgan kichik xona(lar); odam yashaydigan kichik xona;
- 3) jundan bosib (presslab) tayyorlanadigan qalin pishiq palos, namat;
- 4) o‘ziga qaram kishilarni moddiy jihatdan ta’minlab turuvchi, ularga ne’mat beruvchi shaxs;
- 5) mutlaq hukmronlikka ega bo‘lgan hokim, istibdod egasi;
- 6) ishonchli xizmatkor, do‘st;
- 7) xo‘jayinning o‘g‘li; asilzoda kishining farzandi;
- 8) bir ish, narsa, matnning boshi;
- 9) tashkilotning yozishmalar amalga oshiriladigan bo‘limi;
- 10) diniy soliq;
- 11) o‘tmishda hukumat boshlig‘i.

<b>Dongdor</b>	1) shuhrat qozongan, dovrug‘i ketgan;
<b>Hujra</b>	2) madrasa, qorixona va masjidda shogirdlar, domlalar yashashi uchun ajratilgan kichik xona(lar); odam yashaydigan kichik xona;

<i>Kigiz</i>	3) jundan bosib (presslab) tayyorlanadigan qalin pishiq palos, namat;
<i>Valine'mat</i>	4) o'ziga qaram kishilarni moddiy jihatdan ta'minlab turuvchi, ularga ne'mat beruvchi shaxs;
<i>Mustabid</i>	5) mutlaq hukmronlikka ega bo'lgan hokim, istibdod egasi;
<i>Mahram</i>	6) ishonchli xizmatkor, do'st;
<i>Xo'Jazoda</i>	7) xo'jayinning o'g'li; asilzoda kishining farzandi;
<i>Muqaddima</i>	8) bir ish, narsa, matnning boshi;
<i>Devon</i>	9) tashkilotning yozishmalar amalga oshiriladigan bo'limi;
<i>Zakot, Xiroj</i>	10) diniy soliq;
<i>Qushbegi</i>	11) o'tmishda hukumat boshlig'i.

**DONGDOR – Dong chiqargan, dovrug 'i ketgan; shuhratli, mashhur.**

\*Dongdor mexanizator. Dongdor vrach. Uning she'rlaridagi fasohat, topqirlilik, bu yigitning quvvai hofizasi dongdor shoirni maftun etdi. S. Siyoev, **Yorug'lik.**

\* Barhayot Oybek bu – qutlaydi mamnun, Qutlar G'afur G'ulom – dongdor zamondosh. A. Oripov, **Yillar armoni.**

**HUJRA – [a. – xona, bo'lma; kayuta]**

1 Kishi yashaydigan kichkina xona, uycha.

\* Ra'no shu so'zni aytib, orqasiga qayta berdi, eshikni boyagicha yopib, hujradan yiroqlashdi. A. Qodiriy, **Mehrobdan chayon.**

\*Cho 'lda men o'zimga kichkinagina hujra qurib olganman. «O'zbekiston qo'riqlari». Davlatyor qaytdi. Elmurod chiy to'siqlik ayvon oldidan asta odimlab, o'z hujrasiga o'tdi. P. Tursun, **O'qituvchi.**

2 tar. Madrasa, qorixona va masjidda shogirdlar, domullalar yashashi uchun ajratilgan kichik xona(lar). Bu hujralarning ko‘pchiligi bir eshikli va oldi ravoqli bo‘lib, odam ham, havo ham, ziyo ham o‘sma bir eshikdan kirardi. **S. Ayniy, Esdaliklar.**

\**Madrasa hujrasi sochadi ziyo, Asrlar qa’riga zulmatni quvib. A. Sher.*

**KIGIZ** – Yungdan bosib tayyorlanadigan qalin pishiq palos; namat.

\**O‘choqqa yaqinroq yerda, kigiz ustiga solingan ko‘rpachada, kichkina bir sariq, bujur odam ko‘k piyolada choy ho‘plab o‘tiribdi. P. Tursun, O‘qituvchi.*

*Kigiz bosish Yungdan namat, palos kabi buyumlar (uy jihozlari va oyoq kiyimlari) tayyorlash. Kigiz etik – s. T. Valenka, piyma.*

\* ..ko‘n etik, kigiz etik, pochapo‘stin.. qo‘ying-chi, bozordagi yoymachida nima bo‘lsa, hammasidan bor edi. **S. Siyoev, Yorug‘lik.**

**VALINE’MAT** – ne’mat egasi, boquvchi; olihimmat, saxiy

1 *O‘ziga qaram kishilarni moddiy jihatdan ta’minlab turuvchi, ularga ne’mat beruvchi shaxs. Bu kishi Jamolboy mening valine’matim, pirim bo‘ladi, – jiddiy javob berdi Abdishukur. Oybek, Tanlangan asarlar.*

\* *Mulla Abdurahmon ham valine’mati bo‘lgan Anvarning rioyasini unuta yozdi. Qodiriyl, Mehrobdan chayon.*

\**Barakalla! Akbarali mingboshi senga kim bo‘ladi! – Otaxon. Valine’mat.*

**CHo‘lon, Kecha va kunduz.**

\**Olihimmat, saxiy odam; xayrsaxovatli, qo‘li ochiq kishi.*

**MUSTABID** – [a. – o‘z xohishicha ish qiluvchi; zolim, zulmkor]

\**Mutlaq hokimiyatga ega bo‘lgan hokim, istibdod egasi. Azizbek Turkiston xonligining eng zolim va mustabid sanalgan beklarining biri va uning o‘z qaramog‘ida bo‘lgan Toshkent aholisiga qilgan zulmlari Farg‘onaga doston. A. Qodiriyl, O‘tgan kunlar.*

\**Mustabid shohlarning razolati ham shundaki, ular faqat o‘z nomlari emas, balki o‘z eli nomiga ham dog‘ tushirishga qodirdirlar. O. Yoqubov, Ko‘hna dunyo.*

\**Mustabid tuzum mafkurachilar eliga sadoqatli, obro‘-e’tiborli odamlarni yo‘q qilish payida bo‘lganlar. M. Qo‘shjonov, Diyor.*

**MAHRAM** – [a. – man, harom qilingan; haramga kirish huquqi bor]

1 – tar. Buxoro va Xiva xonligida: saroy amaldorlarining yozishma ishlarini boshqargan lavozimli kishi va uning mansabi.

\* Karvonboshi amir haqiga uzun duo qilgandan keyin yonini ochib, mahramga yigirma tanga xizmatona.. berdi. **S. Ayniy, Qullar.**

2 – esk. Ishonchli xizmatkor, cho'ri. Mahramlar piyolalarda may keltiradilar. «**Yoshlik**».

3 – esk. Sirdosh do'st, hamdam. Hasanali.. Otabekka mahram bo'lishga loyiq bir mehribonlikka ega bo'lganlikdan bek bilan ochiq so'zlashish fikriga keldi. **A. Qodiriy, O'tgan kunlar.**

\*Eng yaqin o'rtog'i.. Zebixon bo'lib qoldi. Ikkalasi sirdosh, mahram. **Cho'lpon, Kecha va kunduz.**

4 – din. Shariatga ko'ra, ayol kishi yuzi ochiq holda ko'rishishi mumkin bo'lgan, ammo nikoh noravo bo'lgan yaqin erkak qarindosh (ayolning otasi, o'g'illari, aka-uka, amaki, buva, tog'a, qaynotasi); zid. Nomahram.

5 sft. Man qilingan, taqiqlangan; bosh-qalardan sir tutiladigan, maxfiy; nojoiz.

\*Keling endi, birpas totuv bo'lib, mahram gaplardan gapirishib, ko'ngildagi kuduratlarni yozaylik. **Hamza, Boy ila xizmatchi.**

6 – etn. – ayn. Bachcha. Avval uni – [Mamaraimni] mullavachchalar sudradi, keyin imonsiz mudarris o'ziga mahram qilib oldi. **M. Ismoilov, Farg'onat. O.**

**XO'JAZODA** – [f. – xo'janing farzandi avlodni]

1 Xo'jayinning o'g'li (- q. Xo'jayin).

\*Xo'jazodasidagi bu holat uni – [Hasan, alini] har turli mulohazalarga olib keta boshladi. **A. Qodiriy, O'tgan kunlar.**

2 Xo'ja (- q. Xo'ja 3) avlodidan kelib chiqqan kishi.

\*Keling, o'zbeklar sarasi.. Savdogar xo'jazodalar, Sizmi o'zbekning to'rasini «**Tohir va Zuhra**».

**MUQADDIMA** – [a. – old qism; kirish joyi, qismi; nutq, asarning boshlanmasi]

*1 Adabiy-badiiy, ilmiy, musiqiy asarlar va b. Ning boshlanish qismi; kirish, debocha. Kitobning muqaddimasi. Muqaddima bermoq.*

*\*Bu xil muqoyasaga.. Istambulda nashr etilgan Fuzuliy devoniga yozilgan muqaddimani misol qilib ko‘rsatish mumkin. «O‘TA».*

*2 Gap va nutqda asosiy maqsadga ko‘chishdan oldin aytilgan so‘zlar, gapning daromadi. Bo‘taboy qisqacha bir muqaddimadan keyin majlisni ochib, binokorlik brigadasining boshlig‘i To‘laganga so‘z berdi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.*

*\*Mehmon gapning muqaddimasini yaxshigina boshlagan, endi biror yo‘l topib, asli muddaoga o‘tishi kerak edi. S. Ayniy, Doxunda.*

*\*3 Biror ishning boshi, dastlabki bosqichi, debochasi.*

*\* Kumushning erdan chiqqan xabarini Kumushning o‘zidan ham ilgari tushungan va Otabekdan ham ilgari sezgan Homidning sovchisi boshqa sovchilarning muqaddimasi edi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.*

### **XIROJ – [a. – chiqarish; yer solig‘i]**

*\*Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyoda o‘rta asrlar va yangi davrda davlat tomonidan undirilgan yer solig‘i (7-asrda arablar tomonidan joriy qilingan).*

*\*[Navoiy:] Aziz fuqaro! Hirot beklari tarafidan nohaq solingan xiroj bekor qilindi. Uyg‘un va I. Sulton, Alisher Navoiy.*

*\*Xiva xoni Muhammad Rahim I xirojni pul bilan undirishni joriy qilgan. «O‘zME».*

### **ZAKOT – a. – poklik, poklanish; sadaqa]**

*1).. din. Shariatga muvofiq, puldor, badavlat musulmonning o‘ziga qarashli mol-mulki va daromadining qirqdan bir ulushi miqdorida (ro‘za vaqtida) bevabechoralarga, kambag‘al-qashshoqlarga beradigan xayr-sadaqasi.*

*\* Mana, Farg‘onaning eng aziz, eng badavlat, eng xalqparvar odami – Sodiqjon boyvachcha yaqinda butun Qo‘qon xalqiga zakot berdilar. K. Yashin, Hamza.*

*2). tar. O‘rta Osiyo xonliklarida: chorva va mol-mulkning qirqdan bir ulushi miqdorida har yili xazina foydasiga olingan soliq.*

\*Soliqlarning uchinchi turi – zakot – mol-mulkdan olinadigan davlat solig‘i edi. **F. Ozodaev, Toshkent tarixidan ocherklar.**

\* ..dehqonlar.. kosiblar hamisha amirning xiroj, zakot singari soliqlarining jabrini tortar.. xonavayron bo‘lardi. **Gazetadan.**

**DEVON- II – [f. – davlat idorasi; sud mahkamasi]**

\* tar. – 1 O‘tmishda Sharq musulmon mamlakatlarida, jumladan, O‘rta Osiyo xonliklarida amal qilgan oliy davlat amaldorlarining majlisi.

\* Topdingiz, sohibi devon bugun menga nohaq ozor berdi. **M. Osim, Ibn Sino qissasi.**

**QUSHBEGI** – tar. Amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqi vazirga teng bo‘lgan yirik amaldor; hokim.

\* Qushbegi – [bosh vazir] o‘rnidan turib, supachadan tushib kelib, ark darvozasining ostonasi ustida tik turdi. **S. Ayniy, Esdaliklar.**

\* Azizbek Toshkentdan jo‘natildi. Uning o‘rniga Qo‘qondan Normuhammad qushbegi belgilanib keldi. **A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.**

## 44-45-dars

### NAZORAT ISHI VA TAHLILI

**79-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o`qing. Undagi asosiy fikrni yozma bayon qiling.

### MIQYOSI NAFS

**Miqyosi** nafs deb qiladurgan amallarimizni, ishlarimizni shariat, insoniyat qonuniga muvofiq o`lub, o`lmaydig`ini vijdonimiz ila o`lchab ko`rmakni aytilur. Nafs o`lchovi haqiqiy bir o`lchovdurki, insonning o`z nafsigiga loyiq ko`rmagan muomalani boshqalar haqida ijro etmoqg`a qo‘ymas, fikr egalari, insof sohiblari har vaqt nafs o`lchovidan tashqari harakat qilmas. Agarda bir sabab ila shariat hukmidan, insoniyat qonunidan chet ketsa, bu **qabohatini** nafs o`lchovi ila bilub, ikkinchi martaba qilmasga **qasd** va niyat qilub, shariat nizomidan, insoniyat chiziq`idan chiqmaslikg`a **sa'y** va g`ayrat qilur.

Alhosil, nafs o'lchovi ta'rifdan tashqari insonlar uchun eng foydali, har kimcha **maqbul** buyuk bir fazilatdur.

Buyuk Iskandar: "Dunyoda eng haqiqiy, to'g'ri o'lchov nafs o'lchovidurki, bu mezonda zarra **nuqson** yo'qdur", – demish.

Ibn Sino hakim: "Insonning **fazl-u kamolining** o'lchovi nafsning o'lchovi ila o'lchanur", – demish.

Dunyoda har narsaning maxsus o'lchovi bo`lar, Banda **af'olini** vijdoni ila tortib ko`rar.

Bir ishiga vaznda kelsa og`ir o`z nafsiga, Ul ishing qandog` bo`laklarga ravo, loyiq ko`rar.

(Abdulla Avloniy, "Turkiy guliston yoxud axloq").

**80-topshiriq.** Berilgan izohlardan matndagi ajratilgan so`zlarning ma'nosini aniqlang. Lug`at daftaringizga ko`chiring va eslab qoling:

- 1) ahd, kirishmoq;
- 2) astoydil urinish;
- 3) me'yor darajasidan pastlik; yetishmovchilik;
- 4) qabul qilingan, e'tirof etilgan;
- 5) fazilatlar buyukligi;
- 6) fe'l-atvor, xarakter; 7) chegara, me'yor;

<b>Qasd</b>	1) ahd, kirishmoq;
<b>Sa'y</b>	2) astoydil urinish;
<b>Nuqson</b>	3) me'yor darajasidan pastlik; yetishmovchilik;
<b>Maqbul</b>	4) qabul qilingan, e'tirof etilgan;
<b>Fazl-u kamol</b>	5) fazilatlar buyukligi;
<b>Af'oli</b>	6) fe'l-atvor, xarakter;
<b>Miqyos</b>	7) chegara, me'yor;

**MIQYOS** – [a. – o'lchov, mezon; o'lchagich] Ko'lam, masshtab.

\* Ish miqyosi.

\*Jahon miqyosida ahamiyatga ega bo'lgan masala. Keng miqyosda tekshirish olib bormoq. Agar bu misolni respublika miqyosida oladigan bo'lsak, yanada quvonchli natijalarni ko'ramiz. **Gazetadan.**

**QABOHAT** – [a. – qabih ish, qabihlik, razillik; beadablik .ot]

1. *Qabih ish, yaramas xatti-harakat; qabihlik.*

\*«*Qanday pastkashlik, qanday yaramas qabohat! Shu mahalgacha sezmaganimga hayronman!*» deb o ‘yladi G‘ulomjon. **M. Ismoiliy, Farg‘ona t. O.**

\**Intizor har uy dilovar, Dilkusholar bazmiga, Gar oyoq qo ‘ysa qabohat, Yig‘lagay ostona ham.* **E. Vohidov, Muhabbat.**

2 *sfat. Qabohatli, razil, qabih. Qabohat ish.*

*Bozorning ustini tuman olibdi, Odamlarga qabohat kun bo ‘libdi. «Ochilov».*  
*Bu qabohat qirg‘in poyoniga yetmay, davlatpanoh a’yonlari qurshovida jar yoqasida qator tizilgan o ‘lim dorlari tomon yurdi.* **S. Karomatov, So‘nggi barxan.**

**SA’Y-HARAKAT** – Astoydil harakat; urinish. Boshda bunday sa’yharakatlar Avazga tabiiydek tuyuldi. **S. Siyoev, Yorug‘lik.**

\**Ko ‘lmak singari xor bo ‘lmay degan dangasa odam sa’y-harakatdan tinmasin, dangasa bo ‘lmasin, behuda xayollarni ko ‘p surmasin.* **Gazetadan.**

\**Ularning sa’y-harakatlari tufayli jinoyatchilikning oldi olinadi, hududda osoyishtalik hukm suradi.* **Gazetadan.**

**QASD** – [a. – maqsad, niyat; intilish, ishtiyoq; g‘araz]

1 *Albatta amalga oshirish ko ‘zda tutilgan, jazm etilgan qat’iy niyat; azmqror, ahd.*

\* *Uydan chiqishdanoq uning – [Otabekning] qasdi bu kunni dalada o ‘tkazmoq edi.* **A. Qodiriy, O’tgan kunlar.**

\**U Munisxon dan uni sovitish qasdida edi.* **A. Qahhor, Sarob.**

\**Qasd qilmoq Biror niyatda bo ‘lmoq, maqsadni ko ‘zda tutmoq.* Ertadan boshlab beparvoroq bo ‘lishga qasd qildim. **S. Siyoev, Yorug‘lik.**

\**Agar G‘ulomsher qasd qilsa, har qan-day ishning uddasidan chiqishiga hamma ishonar edi.* **Oybek, Nur qidirib.**

2 *Haqorat, yomonlik uchun javob qaytarish (hisoblashish) niyati; adovat, o ‘ch, alam.* *Qasd qilmoq. Birovga qasd qilma.* Sen jinni bo ‘ldingmi Yo menda boshqa bir qasding bormi? «**Latifalar**».

\* *Mening fashizmdan bo ‘lak hyech kimda qasdim yo ‘ – q.* **Uyg‘un.**

\**Shermuhammadning esa xotin jo ‘nidan menda qasdi bor.* **K. Yashin, Hamza.**

\*Joniga qasd qilmoq (yoki etmoq) O'ldirish, yo'q qilish uchun harakat qilmoq, suiqasd qilmoq.

\*Botiralining joniga qasd qilgan kim bo'lsa ham, yurtning qarg'ishiga qoldi.  
**H. G'ulom Mash'al.**

Joningda qasding bormi Joningdan to'ydingmi Jondan bezor bo'ldingmi O'lging keldimi Joningda qasding bormi, buncha aroqning ketidan quvmasang. «**Mushtum**».

\* Qasdiga tushmoq Payiga tushmoq, o'ch olish, yo'q qilish va sh.k. uchun harakat qilmoq. Dushman tushar davlatlining qasdiga. «**Oysuluv**».

\* Qasdida bo'lmoq.

1) biror maqsadda, niyatda bo'lmoq;

2) o'ch olish, yo'q qilish, o'ldirish yoki qo'lga tushirish va sh.k. niyatda bo'lmoq.

\* Uyingiz orqasini teshib, Kumush qasdida bo'lувчи.. ham shu battol Homid ekan. **A. Qodiriy, O'tgan kunlar.**

**MAQBUL** – [a. – qabul qilingan, ma'qullangan] kt.

\* Qabul qilsa, ma'qullasa bo'ladigan, ma'qul keladigan. Maqbul gap. Maqbul asar. Maqbul bo'lmoq. Ma'qul va maqbul tadbirni shoyad siz janobdan eshitgaymiz. **Oybek, Navoiy.**

\* Hamadoniy va Farhod Oynagulni ona yurtiga o'tkazib yuborishning maqbul yo'li haqida aniq fikrga kelishdi. **A. Hakimov, Ilon izidan**

**NUQSON** – [a. – kamayish, ozayish; kamchilik, nuqs]

1 Kishi nomiga nomunosib, uni salbiy jihatdan ko'rsatadigan belgi; kamchilik, illat, qusur, ayb.

\*Uning bir nuqsoni – yolg'onchiligi. Qizini yer-ko'kka ishonmagan, uning butun nuqsonlarini bir fazilat deb bilgan onasi.. bu qizni katta shavkat va dabdaba bilan uzatishni orzu qilar edi. **Oybek, Tanlangan asarlar.**

2 Jismoniy yoki ruhiy kamchilik, illat. Uning bir nuqsoni bor: sal oqsab yuradi.

3 Sifat jihatidan yetishmovchilik, kamchilik, kam-ko'st. Yog'ochning nuqsonlari. Ishdagi nuqsonlar.

**FAZL-KAMOLOT**— fazlu kamolot – Ijobiy xislat(lar) va kamolot, fazl va yetuklik, balog‘at.

U o‘z xo‘jasining fazlu kamolotini taqdirlab, unga xizmat qilishni o‘zi uchun bir sharaf deb hisoblar edi. **Oybek, Navoiy.**

## 49-dars

### ATOV GAP

**91-topshiriq.** *Musofir, mijja qoqmay, jin (ko‘cha) so‘zlarining izohlarini aniqlang va lug‘at daftaringizga ko‘chiring:*

- 1)safardagi kishi;
- 2)uyqusiz holda bo‘lish; 3)  
faqat odam yura oladigan tor;
- 4) boshi berk.

<b><i>Musofir</i></b>	1) safardagi kishi;
<b><i>Mijja qoqmay</i></b>	2)uyqusiz holda bo‘lish;
<b><i>Jin (ko‘cha)</i></b>	3) faqat odam yura oladigan tor;
<b><i>Jin (ko‘cha)</i></b>	4) boshi berk.

***MUSOFIR*** – [a. safardagi kishi].

***MUSOFIRLIK*** – ayn. *Musofirchilik*.

\* *Musofirliklar o‘tdi. Yur, qaytaylik o‘z yurtga. «Oq olma, qizil olma».*

***MIJJA*** – [f. – kiprik] – ayn. *Kiprik. Rangi siniqqan, xasta, ko‘zi yumuq, mijjalari bir-biriga yopishib qolgandek. S. Nurov, Durdona.*

2 *Kiprik osti. Saodat darhol yuvinib, artinib, oynaga qaradi. Ko‘zlar kirtayib, mijjalari ko‘pchib qolibdi. I. Rahim, Ixlos.*

\**Mijja qoqmaslik Uxlamay, bedor yotish. Vohid kechasi mijja qoqmasdan, vagonning tamburida papirosh chekib, tong ottirgan edi. O. Yoqubov, Tilla uzuk.*

***QOQMOQ*** – 1 Zarb bilan kiritmoq (qoziq, mix kabilar haqida).

*Yerga qoziq qoqmoq. Yog‘ochga mix qoqmoq. Ungur chu-qurlashgan sari qoziqlar shu zaylda qoqib borilsa, yo‘ldan adashmaymiz. **M. Ismoiliy, Farg‘ona t. O.***

\* [Unsin] Ichkari uyda o‘tirib, mahsilarga shon qoqadi, shondan tushiradi, pardozlaydi, qoragul, lok surkaydi. **Oybek, Tanlangan asarlar.**

2 Mixlab yopishtirmoq, mahkamlamoq.

\*Pol qoqmoq. Otga taqa qoqmoq. Tomga tunuka qoqmoq.

\*Nima uchun devorlarga gilam qoqmadinglar **M. Ismoiliy, Farg‘ona t. O.**

\* Nima bo‘ldi-yu, hyech kim bilan kengashmay.. pravleniening eshigiga shunday bir e‘lonnoma qoqib qo‘ydi. **A. Qahhor, Qo‘schinor chiroqlari.**

3 Urib ovoz chiqarmoq, taqillatmoq, dukillatmoq.

\*Hamma uxlaganda, u mullavachchaning hujrasini qattiqroq qoqsangiz, hammasini ko‘rasiz. **J. Sharipov, Xorazm.**

\* Samandarov.. qalamning opqachu bilan stolni qoqib, g‘ovurni bosdi. **A. Qahhor, Qo‘schinor chiroqlari.**

\* [Sharofat] Uyning narigi devorini qoqib, qo‘schnini chaqirish uchun o‘rnidan arang turdi. **H. Ziyoxonova, Arzanda.**

4 yelkaga yoki orqaga kaft bilan se-kingina urmoq, shappatilamoq. Kerishayotgan jangchining yelkasiga panjasи bilan qoqib: -Ketdikmi, Dehqonboy! – dedi o‘zbek tilida bir jangchi. **N. Safarov, Jangchi shoir.**

\* Bobom meni qattiq quchib, qo‘li bilan orqamni bir-ikki qoqadi, tag‘in ishga tutinadi. **Oybek, Bolalik.**

5 Urib, chertib, silkitib va b. Yo‘l bilan ichidagi, ustidagi narsani tushirmoq, shu yo‘l bilan tozalamoq.

\*Gilamning changini qoqmoq. Iliq qoqmoq. Burnini qoqmoq. Dasturxonni qoqmoq. Kiyimlarni qoqmoq. Telpakning qorini qoqmoq.

\* U etakka ilashib qolgan paxtalarni qoqayotganda, boshidagi chopon birdan sirg‘alib, tushib ketdi. **M. Ismoiliy, Farg‘ona t. O.**

\* Imom, to‘polonda boshidan tushib, tuproqqa qorishgan sallasini qoqibqoqib, qaytadan o‘rarkan, o‘z qavmiga va ‘z-nasihat qildi. **Oybek, Tanlangan asarlar.**

\* Siz kelguningizcha, men ko‘r-pachalariningizni qoqib, supurib qo‘yaman. **Mirmuhsin, Me’mor.**

6. Urib yoki silkib, mevalarni tushirmoq. Jiyda qoqmoq. Olma qoqmoq. Shaftoli qoqmoq.

\*Salomatning onasi ellikboshining bog‘idagi azim tup yong‘og‘ini qoqayotganda, yiqilib yotib qoldi. **S. Ahmad, Hukm.**

\* Men sizga aytsam, bahorda gul terib, kuzda o‘rik qoqib berib, ko‘nglini olib yurdim. **P. Tursun, O‘qituvchi.**

7. Biror a’zoni silkitmoq, qimirlatmoq. Qoshini qoqmoq. Qanot qoqmoq. Shakar buvi belini ushlab, kifini qoqqancha bobilladi. **H. Nazir, Tomosha.**

\* Rais darrov o‘rnidan turdi, bir qo‘lini opqasiga qo‘yib, ikkinchi qo‘lini boshi uzra kamalak qilib, ikki-uch yelka qoqdi-da, shunday yo‘g‘on gavdali bo‘lishiga qaramasdan, bedanaday yo‘rg‘aladi. **A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.**

8. (ko‘chma) Holdan toydirmoq, toliqtirmoq.

\*Yur biznikiga, – taklif etdi rais, – andak dam ol, birga ovqatlanaylik, mashina kishini qoqib qo‘yadi. **Oybek, O.v. shabadalar.**

\* Yo‘l qoqib, o‘zi adoyi tamom bo‘lgan-u, ketidagi Zulxumordan nomus qilganidan ham yo‘ldan qolmay chidab boradi. **M. Mansurov, Yombi.**

\* Kecha meni ot qoqqan ekan, o‘rnimga kirishim bilan qotib uxbabman. **A. Qodiriy, Uloqda.**

9. etn. Qoqim qilmoq, qoqim qilib «davolamoq». Hakka kelib cho‘qisin, Mulla kelib o‘qisin, Qoqimchi kelib qoqsin, Ko‘zing suv bo‘lib oqsin. «**Folklor**».

\* Jonimni qoqay Aylanay, o‘rgilay, tasaddug‘ing bo‘lay. O‘tiring, aylanay, o‘tira qoling, jonimni qoqay. **M. Ismoiliy, Farg‘ona t. O.**

\*Jonini qoqmoq Jonini, o‘zini fido qilmoq. Tabassum-la ikki yosh yerga boqib, Ona xizmat qilardi jonin qoqib. **M. Alaviya.**

\*Im qoqmoq Bosh irg‘atib, im (imo) bilan ishora qilmoq. Seitov sekretarga «chaqiring», deganday im qoqdi. «**Mushtum**».

\*Qizlar «bu nima ekan», deb bir-birlariga im qoqishdi. **H. Nazir, Bir tup g‘o‘za.** \*Kiprik qoqmoq

1) kipriklarni pirpiratib, ko‘zni ochib yummoq. Sekretar qiz ko‘zlarini suzib, bir-ikki kiprik qoqdi. **S. Ahmad, Bosh og‘rig‘i;**

2) bo‘lishsiz shaklda – uxlamaslik, ko‘z yummaslik. Tong otganda kiprik qoqmasdan, Tag‘in qir bag‘rida hozir bo‘laman. **Mirtemir.**

Mijja qoqmaslik – ayn. Kiprik qoqmoq

2. Bo 'ron bo 'lib, kuchli yomg 'ir quydi, brigadir mijja qoqmay dala aylandi.  
**«O'zbekiston qo 'riqlari».**

\*Miyani (yoki qulqoq-miyani) qoqib qo 'lga bermoq Ko 'p gap gapirib, javrab, joniga tegmoq. Toshkentdan yap-yangi mashina olib kelishi haqida maqtanaverib, miyamizni qoqib qo 'limizga berdi. **I. Rahim, Zangori kema kapitani**.

\* Birodarlar, Rixsiev qulqoq-miyamni qoqib qo 'limga berdi.. **T. Murod, Ot kishnagan oqshom**.

\*Og 'ziga qoqmoq (yoki urmoq) Gapini bo 'lmoq, gapirtirmaslik. Darsiga tushunmay savol bersang, darrov og 'zingga uradi. **R. Azizzxo 'jaev, Yashil chayla**.

\* Sim (yoki telefon) qoqmoq – s.t. Telefon orqali so 'zlashmoq; telefon qilmoq. Isfandiyorga sichqonning uyasi ming tilla bo 'ldi. U ketma-ket Toshkentga sim qoqar edi. **S. Siyoev, Avaz**.

\*Murodova Qosimovga, Qosimov esa boshqarmaga telefon qoqa boshladi. **I. Rahim, Ixlos**.

Tanda qoqmoq – kam qo 'll. – ayn. Tanda qo 'ymoq

2. – q. Tanda. Tikuvchilik arteliga tanda qoqaverib, ishdan qoladigan bo 'ldi..  
**G'ayratiy, Dovdirash**.

\*Chetga qoqmoq Nazar-pisand qilmaslik, pastga urmoq. Keyin Gulnorga xudo beradi, u erka-arzanda xotin bo 'lib.. ko 'ngliga nima kelsa, shuni qiladi, bizni har narsadan chetga qoqadi, balki boshimizda yong 'oq chaqadi. **Oybek, Tanlangan asarlar**.

\*Etak qoqmoq Bahridan o 'tmoq; kechmoq. -Tortaver aravangni o 'zlarin! – dedim-da, etak qoqib chiqib ketdim. **M. Abdurakov, Chigal yozildi**.

\*Ko 'nsa, ko 'ndi, ko 'nmasa, etagimni qoqib chiqaman-ketaman. **S. Ahmad, Uf – q.**

\* Eshik qoqmoq

1) eshik taqillatmoq. Mashinadan tushib, o 'ymakorli jigarrang bir eshikni qoqdim. **U. Nazarov, Odamlar**;

2) ko 'chma yaqinlashib qolmoq, yaqinlashganidan (kelganidan) xabar bermoq. Ilg 'orlar uchun buyruq kuzda berilgan edi.. bahor eshik qoqyapti, «qanisiz, opa» deydi. **N. Safarov, Xadicha Ahrorova**.

\*Qanot qoqmoq – q. Qanot – 1. O 'y-xayolim Vatan bo 'ylab qoqadi qanot!  
**Yo. Mirzo, O 'g'il mehri**.

<p>*Quloq qoqmoq – 1) quloq solmoq. Yoshlaringga arz etar-mishsan: «Qachon tugar yorimning jangi» Yosh demishki: «G‘arbga quloq sol, Kelayotir zafar ohangi». <b>T. To‘la</b>;</p>
<p>2) qulog‘iga yetkazmoq; aytmoq. Dono xalqimiz ham bu haqda hamisha qulog‘imizga qoqib turadi: «Go‘zallik yuzda emas, aqlida!» <b>M. Ismoiliy</b>, Insonda hamma narsa go‘zal bo‘lishi kerak;</p>
<p>3) e’tiroz bildirmoq, qarshilik qilmoq.</p>
<p>*Hoji ona me-ning onam bo‘ladi! Kimki onamning so‘ziga qulog qoqsa, xafa qilsa, unday xotin menga – talo – q. <b>Hamza, Boy ila xizmatchi</b>.</p>

## 50-dars

### SO‘Z-GAP

**92-topshiriq.** Matnni o`qing.

### BEHUDA SO`ZDAN SUKUT AFZAL

Behuda so`zlashdan ko`ra jim o`tirish afzal ekanligi haqida Rum qaysari, Hind rojası, Chin **fag`furi** o`rtasida munozara bo`lib o`tgan edi. Ular o`zaro bir fikrga keldilar va bir ma’nodagi so`zlarni turli bayon ipiga tizdilar. Rum qaysari shunday dedi:

– Aytgan barcha so`zlarimdan qattiq nadomat chekdime, ammo aytmagan so`zlarimdan hech pushaymon bo`lmadim!

Hind rojası aql daryosidan noyob dur hozirlab, bayon ipiga terdi-yu, dedi:

– So`z o`qi kamonidan hali otilmagan ekan, u mening qo`l ostimdadir, og`iz kamonidan otilib chiqsa, unga endi egalik qilolmayman! U davom etib dedi:

– Har so`z o`qi kamonidan uchsa va har kalima og`iz zindonidan ko`chsa, uni qaytarib olaman deyish xomxayollikdir!

Chin fag`furi so`z bo`stonidan gulasta hozirlab, tuhfa qilgan holda dedi:

– So`z qushi og`iz qafasida ekan, uning ixtiyor mening **izmimdadir**. Bordi-yu, u til **oshyonasidan** parvoz qilsa, hech qachon uni tutib bo`lmaydi!

**(“Sharq hikoyat va rivoyatlari”)**

**Quyidagi izohlardan ajratilgan so`zlarlarning ma’nosini toping:**

- 1) “qushlarning boshpanasi;
- 2) “bir kishi yoki narsaning boshqa bir kishi yoki narsaga bo‘ysunishi”;
- 3) “mamlakatning boshlig‘i”;
- 4) “qabila yoki urug‘ning hukmdori”;
- 5) “qavmlarning birlashmasi”.

<b>ROJA</b> – [sansk. <i>Raja</i> > f. + hind. – hind hukmdorlarining nomi] tar. Hindistondagi hokimlar unvoni.
<b>IZM</b> – [a. – iroda, qasd, niyat; qat’iy qaror]
1 Boshqarishda, biron-bir ishni bajarishda va sh.k. da ixtiyor, erk.
*Yakshanba kuni To‘y, u, – dedi u birkesarlik qilib. – Qizning izmi otada. <b>I. Rahim.</b>
* Chin muhabbat. Qurilishda men boshliqman, Bo‘riev. Mablag‘ ham, odamlar ham, jumladan, siz ham mening izmimdasiz. <b>A. Muxtor, Tug‘ilish.</b>
*Hoji bobo do‘konning izmini menga topshirib, ichkariga kirib ketdi. <b>F. G‘ulom, Shum bola.</b>
2 esk. Amr, farmon; ijozat, ruxsat. -Janoblari ham keldilar, – ellikboshi o‘tirgan joyidan e’lon qildi va mirzoning izmini kutdi. <b>Sh. Toshmatov, Erk qushi .</b>
*Izm bermoq – Ijozat yoki ruxsat bermoq. Xiyol qo‘zg‘almoqchi edi, Dadashev izm bermadi. <b>I. Rahim, Taqdir.</b>
* Izmiga solmoq O‘z yo‘liga yurgizib, o‘ziga bo‘ysundirmoq. Mexanizatorlar mashinalarni o‘z izmiga solib, paxtadan yuqori hosil olmoqdalar. <b>Gazetadan.</b>
<b>OSHYONA</b> – [f. – in, uya; uy, boshpana] – kt. – esk. Binoning yuqori qavati; yuqori qavatdagi xona.

## 51-dars

### YIG‘IQ VA YOYIQ GAP

#### Uyga vazifa

**94-topshiriq.** Matnda berilgan shaxslarning fe’li tavsifi asosida uning tashqi ko‘rinishini yozma tasvirlang.

## **YUSUFBEK HOJI**

Yusufbek hojining qiziq bir tabiatи bor: xotin bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo‘lsa-bo‘lsin, uzoq so‘zlashib o‘lturmaydir. Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib uy ichidan birartasining so‘zlari va yo kengashlari bo‘lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so‘zlab beradilar; maqsad aytib bitkandan so‘ng sekingina ko‘tarilib uning yuziga qaraydirlar. Hoji bir necha vaqt so‘zlag‘uchini o‘z og‘zig‘a tikiltirib o‘lturg‘andan so‘ng, agar ma’qul tushsa, “xo‘b” deydir; gapka tushunmagan bo‘lsa, “xo‘sh” deydir; noma’qul bo‘lsa, “durust emas” deydir va juda ham o‘ziga noma’qul gap bo‘lsa, bir iljayib qo‘yish bilan kifoyalanib, mundan boshqa so‘z aytmaydir va aytsa ham, uch-to‘rt kalimadan nariga oshmaydir. Uy ichi uning bu fe’liga juda yaxshi tushunganliklaridan, ko‘pincha, bir og‘iz javob olish bilan kifoyalanadirlar. Ammo Otabek bilan birar to‘g‘rida so‘zlashmakchi bo‘lsa, uni aksar mehmonxonaga chaqirib yoki chaqirtirib oladir.

## **XUSHRO‘YBIBI VA ZAYNAB**

Xushro‘ybibi Zaynabning egachisidir. Mohirabonudan ikki o‘g‘ul va ikki qiz dunyog‘a kelib, to‘ng‘uchi Azimbek, undan keyingisi Xushro‘y (yoshlig‘ida Xushro‘y o‘rniga Xushra der edilar), uchunchisi Karimbek va to‘rtinchisi bizning Zaynab edi. Zaynab egachisi Xushro‘ydan yetti yosh chamasi kichik edi. Garchi bu ikki egachisingil bir qorindan talashib tushkan bo‘lsalar ham, sajiya – xarakterda tanib bo‘lmasliq darajada bir-birlaridan farqlik edilar. Sajiyadagina emas, surat va siymo vajida ham katta o‘zgaliklar bor edi.

Xushro‘y uzun bo‘ylik, qotmaroq va zarcha tanlik edi. Zaynab qisqa bo‘y, go‘shtdor va oq tanlik edi. Xushro‘yning harakati yengil va lafzi tez edi. Zaynab lappos va o‘nta so‘zga arang bitta javob qaytaradirk‘an edi. Xushro‘yning ko‘zi o‘ynab, har sekundda o‘yoqqa alang‘lar edi. Singlisi bo‘lsa birav bilan betma-bet kelib so‘zlashqanida ham ko‘zini hamisha bir nuqtadan uzmas edi.

**95-topshiriq.** Berilgan so‘zlardan *aysh-u kom, tojdor, bojdor, ko‘lanka, anjuman, af’ol, nadim* so‘zlarining ma’nosiga mos keluvchi so‘zlarni toping: hukmdor, soya, rohat-farog`at, bojxona xodimi, soliq yig`uvchi, yig`in, majlis, yaqin, sirdosh do‘st, hamsuhbat, shoh saroyida eng yaqin xizmatkor, mahram va maslahatchi.

**AYSH-ISHRAT** — ayshu ishrat Davomli yoki surunkali kayfsafo, mayxo ‘rlik, ishrat. Ayshishrat qilmoq.

\* Butun boshshgini ayshishrat, fahsh, buzuqlig olamida sovurib.. nihoyat taqdir uni zavqsafo tax tidan uning iflos ostonasiga otgan edi. **Oybek, Tanlangan asarlar.**

**TOJDOR** – [a. + f. – toj egasi; tojli]

1 Toj-taxt sohibi, toj kiygan, taxtga o ‘tirgan hokimi mutlaq; podsho. Elimda podshoman, bir o ‘zim tojdor, Behad kishi turar menga xizmatkor. «**Erali va Sherali**».

\*Mamlakat parokanda, zolim tojdorlar qon ustiga qon to ‘kurlar. **P. Qodirov, Yulduzli tunlar.**

2 Boshida toji, o ‘simtasi bo ‘lgan, tojli. Tojdor xo ‘roz.

**BOJDOR** – [f.– boj oluvchi] – . bojgir. Birov – bojdor, Birov – tojdor. **Maqol.**

**KO’LANKA** – 1 Oftob nuridan to ‘silgan joy; soya.

\*Abduvahob ayvondagi ko ‘lankaga o ‘tirdi, o ‘g ‘ilchasini tizzasiga olib, peshonasidan o ‘pdi. **Sh. Toshmatov, Erk qushi.**

\*Mashina teraklarning quyuq ko ‘lankasi ostida uchib borarkan, Qudratning do ‘stlari ko ‘m-ko ‘k va bo ‘liq paxtazor dalalarni unga ko ‘rsatib, faxrlanar edilar. **Z. Fatxullin, So ‘nmas yulduz.**

2 Kishi va narsalarning yorug ‘likka qarama-qarshi tomonga tushadigan soyasi. Aravani ot tortar, ko ‘lankasini it tortar. **Maqol.**

\*Olis-olislarda yigitlarning ko ‘lankalari ko ‘rinadi. «**O’zbekiston qo ‘riqlari**». Ro ‘paradagi uyda chiroq yondi. Darparda orqasida tebranib turgan ko ‘lanka to ‘xtadi. **Gazetadan.**

\* Qarag ‘aylarning ko ‘lankasi tungi sokin havoda qimir etmay turardi. **M. Muhamedov, Qahramon izidan.**

3. Uzoqda, qorong ‘ilikda, tumanda g ‘ira-shira ko ‘ringan narsa; qora, sharpa. Ko ‘ngli aldamagan ekan- uzoqdan alaqanday ko ‘lanka qorayib ko ‘rindi. **X. Sultonov, Onamning yurti.**

\* Bashorat yaqin bordi, ko ‘lanka yana qimirladi. **A. Muxtor, Opa-singillar.**

4 ko ‘chma Biror ichki ruhiy holatning (mas. Tashvish, g ‘am, azob) ifodasi, aksi. She ‘riyat boshiga zulmat ko ‘lankasi tushdi. **Zulfiya, Xayollar, tuyg ‘ular.**

\* ..uning – [Madrayimning] nuroniy chehrasini, xuddi quyoshni bulut bosganidek, qayg‘u-alam ko ‘lankasi chulg‘ab oldi. «**Mushtum**».

\* Iqbol xola uning chehrasidagi alam ko ‘lankasini ilg‘amadi. **O‘. Hoshimov, Qalbingga qulog sol.**

5.ko ‘chma (3-sh. Egalik va o‘.-p. K. Shaklida) Biror kimsaning himoyasi; panoh, homiylik. Birovning ko ‘lankasida yashamoq. -Qalay, Homidbek, yurtlaringiz tinchlikmi -Xudoga shukur, davlatlari ko ‘lankasida. A. **Qodiriyl, O‘tgan kunlar.**

6. Kam qo ‘ll. Narsalarning boshlang‘ich shakli, hali to ‘la shakllanmagan umumiyl ko ‘rinishi. Chigit ekish boshlanguncha, yangi qishloqning ko ‘lankasi ko ‘rinib qoldi- ..hali ochilmagan ko ‘chalarning ikki yuziga sakson besh mingdan ortiq ko ‘chat o ‘tqazildi. **A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.**

\* Ko ‘lankasi qolibdi Juda ozib ketibdi, ramaqijon bo ‘lib qolibdi. So ‘rila ko ‘lankasi qolgan sovliq nimaga yaraydi **S. Anorboev, Oqsoy.**

\*Ko ‘lanka (sini) solmoq Salbiy ta ‘sirini o ‘tkazmoq. – [Nigoraning].. bu tabassumi zo ‘rma-zo ‘raki ekanini, qandaydir g‘ussa yuziga ko ‘lanka solib turganini Sherbek bir boqishdayoq payqadi. **S. Anorboev, Oqsoy.**

\*Urush barcha qatori Maqsuda opaning ham boshiga o ‘z ko ‘lankasini soldi. Gazetadan. O‘z ko ‘lankasidan (ham) qo ‘rqmoq Har narsadan qo ‘rqadigan, xavfsiraydigan bo ‘lmoq. Lekin Madamin yuragini oldirib, o ‘z ko ‘lankasidan qo ‘rqadigan bo ‘lib qoldi. **P. Tursun, O‘qituvchi.**

\* O‘zi xon, ko ‘lankasi maydon – q. Xon. Qora ko ‘lanka Yomonlik, balo ramzi. Bilaman, ana, hozir sen turgan o ‘lka Boshida qanot yozgan qora ko ‘lanka. **G‘ayratiy.**

**ANJUMAN** — yig‘in, majlis] Umuman, biror hodisa, tantana munosaba ti bilan bo ‘ladigan yig‘in, majlis. Odatda u — Avaz — bir g‘azal aytar, kelasi anjumanda shoiri zamonlar mazkur g‘azalga nazira bog ‘lar edilar. **S. Siyoyev, Avaz.**

\*Mazkur anjumanda oliv o ‘quv yurtlari tayyorlagan 1)1)8 ish namoyish etildi. “**Fan va turmush**”.

\* ..Imom alBuxo riy tavalludining 1)200 yilligi munosabati bilan O‘zbekistonda birinchi marta xalqaro anjuman o ‘tkazshdi. **Gazetadan.**

**NADIM** – [a. – birga ovqatlanuvchi, hamtovoq; ulfat] – kt.

1.Yaqin, sirdosh do ‘st; hamsuhbat.

2 esk. Shoh saroyida: eng yaqin xizmatkor, mahram va maslahatchi.

\*Malikul sharobning o‘zi ham yoshligida sultonning suyukli nadimi bo‘lgan.

**O. Yoqubov,**

\* Ko‘hna dunyo.

3 Nadim (erkaklar ismi).

**Af’ol-** Fe’llar, harakatlar, qilmishlar, ishlar.

Nedin bas kelib tarki royi savob,

**Qilur noxush af’olni irtikob. (Saddi Iskandariy) A.NAVOIY**

Odat, axloq, qiliqlar.

Ato hargiz o’g’il ko’ngliga boqmay, O’g’ilga

ham hargiz ato af’oli yoqmay.

Otamning bo’lib erdi Yoshi uluq,

Men af’olindin bor edim qayg’uluq. (Saddi Iskandariy) A.NAVOIY

## 52-53-darslar

### MATN VA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH

**96-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o`qing.

#### OHANGLARGA YO‘G‘RILGAN SO‘ZLAR

Tashqari eshikdan ta’zim qilib kirgan **choshnagir** ayol ovozini qo‘rquv bilan pasaytirib xabar berdi:

– Osmonda yulduzlar siyrak qoldi. Hademay tong yorishur. Hazrati oliv saharliksiz qolurlarmu?

Tong otib, azon aytigandan so‘ng ro‘za o‘z kuchiga kiradi, hech kim hech narsa yeb-ichishi mumkin bo‘lmay qoladi. Uzun va issiq yoz kunida podshohni saharliksiz qoldirish begimlar uchun o‘zlari och-nahor qolishlaridan qo‘rqinchliroq edi.

... Osmon oqarib qoldi. Tong yorishgan sari **qandildagi** shamlarning nuri xira torta boshladи.

Azon aytadigan payt o‘tib boryapti. **Arkdan** tashqaridagi masjidning imomi **koshinlik** minoraga chiqib, **bakovulning** ishorasini sabrsizlik bilan kutyapti. Axir Mirzo hazratlari saharlik qilib ulgurmasdan, azon aytish xatardan xoli emas. Ovqat

yeilib, choyga o‘tilganda Umarshayx mirzo xotinlariga vaziyat qanchalik og‘irlashayotganini aytib berdi.

Shu payt masjid tomondan azon tovushi eshitildi. Choy ichayotgan Xonzoda begin shoshilib piyolasini dasturxonga qo‘ydi. Umarshayx mirzo xotinlariga bir-bir qarab, dedi:

– Mo‘ysafidlar: “To‘rt **muchang** butun bo‘lsin”, - deb duo qilurlar. Fotima **Sulton**, Qutlug‘ **Nigorxonim**, Qorako‘z begin, farzandlarimiz Xonzoda begin, Jahongir **mirzo** – har biringiz oilamizning aziz bir muchasidirsiz. Istaymenki, bu mushkul vaziyatda hamma muchalarimiz butun bo‘lsin, bir-birlariga **mehr-u shafqat** ko‘rsatsin. **Ilik** o‘z o‘rnida aziz. **Ko‘z** o‘z o‘rnida **mo‘tabar**. Agar ko‘z bilan ilik birbiriga **nizo qilsa**, bundan har ikkisi jabr **ko‘rur**.

(P.Qodirov, “Yulduzli tunlar”)

**99-topshiriq.** Quyida berilganlardan ajratib **ko‘rsatilgan so‘zlarga** mos keluvchi izohni toping, lug`at daftaringizga ko`chiring va eslab qoling:

- 1) ziddiyatda bo‘lmoq;
- 2) ulug‘, aziz;
- 3) qo‘l;
- 4) oyoq, qo‘l, tana va bosh a’zolari;
- 5) yoshi o‘tib qolgan kishi;
- 6) o‘zgalar orasida eng oldi, sarasi;
- 7) ayollarga hurmat yuzasidan murojaat qilganda qo‘llanadigan so‘z;
- 8) yoqish uchun shamlar solib ilib qo‘yiladigan uy jihizi; 9) chinniga o‘xshatib ishlangan, yaltiroq, naqshli g‘isht plitkasi; 10) ish boshqaruvchilik lavozimi.

<b>Nizo qilmoq</b>	1) ziddiyatda bo‘lmoq;
<b>Mo‘tabar</b>	2) ulug‘, aziz;
<b>Ilik</b>	3) qo‘l;
<b>Mucha</b>	4) oyoq, qo‘l, tana va bosh a’zolari;
<b>Mo‘ysafid</b>	5) yoshi o‘tib qolgan kishi;
<b>Aziz</b>	6) o‘zgalar orasida eng oldi, sarasi;
<b>Begin</b>	7) ayollarga hurmat yuzasidan murojaat qilganda qo‘llanadigan so‘z;
<b>Qandil</b>	8) yoqish uchun shamlar solib ilib qo‘yiladigan uy jihizi;
<b>Koshin</b>	9) chinniga o‘xshatib ishlangan, yaltiroq, naqshli g‘isht plitkasi;

**QANDIL I** – [a. – chiroq, chilchiroq, lyustra < yun.

\* Kandela – sham, shamchiroq < lot. Candela – sham]

\* Bir necha sham yoki lampochka qo'yiladigan oyoqli yoki osma chiroq; chilchiroq, lyustra. Devoriy qandil.

\* Osma qandil. Oltin qandildagi elliklab shamlarning nuri.. uyga bir xayoliylik berar edilar. **A. Qodiriy, O'tgan kunlar.**

\* O'rnidan turib, devordagi vklyuchatelni chiqillatgan edi, uch lampali qandil yog'dusi notinch va hayajonli yuzlarga tushdi. **P. Qodirov, Uch ildiz.**

\* Katta dolon, har bir uyda qiy-chuv, yerda chiroq, qandillar osig'li – **q. J. Sharipov, Xorazm.**

**ARK I** — f. — ichki qal'a] map.

\* Poytaxtdagi qasr; xon yoki amirning atrofi baland devor bilan o'rالgan qo'rg'onsaroyi. Fitnachilar amir jo'nab ketgan kunning er tasi tunda arkka hujum qildi. **B. Ahmedov, Ulug'bek.**

\* Ark ichi kimxob va zar chakmon kiy gan, kumush kamar bog'lagan va katta salla o'raganlar bilan to'ldi. **J. Sharipov, Xorazm.**

**KOSHIN** – [f. – kafel, koshin]

1 Chinniga o'xshatib ishlangan, yaltiroq, naqshli g'isht plitkasi. Dehlida masjid va mezanalar keragidan ortiqcha. Hallarini, koshinlarini, naqshlarini qaerdadir ko'rgandaymiz. **Z. Akramov, Hindiston lavhalari.**

2 Bir-biriga zich qilib yopishtirilgan rang-barang shisha, marmar, tosh, yog'och va sh. K. Dan yasalgan surat yoki naqsh. U madrasalar ichki-tashqi keng sahnga, baland va mustahkam devorga, hashamatli toq-ravoq va guldstalarga ega bo'lib, ba'zilarining peshtoqlari, gumbazlari va devorlari rang-barang koshinlar bilan bezatilgan bo'lar edi. **S. Ayniy, Esdaliklar.**

**BAKOVUL** – bukovul 1). – esk. Tar.

\* Podshoh, xon va lashkarlarga ovqat tayyorlash ustidan nazarat olib boruvchi, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o'zi totib ko'rvuchi mansabдор; bosh oshpaz (1).5).asr va undan keyingi davr). Naql qilishlaricha, ushbu taom – [ajabsanda] Bobur saroyining bakovullari ijodiga mansub emish. **K.**

**Mahmudov, o'zbek tansiq taomlari.**

\**Gunoh shulkim, – dedi Bobur qat’iy ohangda, – bakovullarimiz sizdan qattiq ranjibdirlar: tortgan taomlaridan loaqal bir luqma tanavvul etmas emishsiz.* «***Yoshlik***».

\* Bakovul bo ‘shashgancha bir chekkada turardi. «***Sharq yulduzi***».

\**Tar. Oltin o’rda xonligida qo ‘shinga maosh ulashish, o ’jalarni taqsimlash singari vazifalarni bajaruvchi yuqori mansabdar.* – shv.

\**To ‘ylarda taom tayyorlovchi oshpaz, pazanda.*

\**Yuzlari tandirdan endi uzilgan nondayin qipqizil, mo ‘ylovli bir odam bakovul bo ‘ldi.* «***Yoshlik***».

\**To ‘y va bayram (hayit) munosabati bilan o ‘tkaziladigan kurash, poyga, uloq (ko ‘pkari) kabi musobaqalarni boshqaruvchi. Bular to ‘yga bakovul ham bo ‘ladi. Har kim qo ‘ldan kelganini qiladi.* «***Intizor***».

\* Ahmadjon ota, Meliqo ‘zi va bakovullar muzika sadolari ostida o ‘rtaga tushdilar. «***Yoshlik***».

\**Tayyor oshga bakovul Tayyoriga ayyor, qulay vaziyatdan foydalanib qoluvchi odam. Qiz bo ‘yiga yetgandan keyin, Mamasaid «tayyor oshga bakovul» bo ‘ldi: «Men eng yaqin tog ‘aman, shuning uchun ota o ‘rniga otaman», deb da ‘vo qildi.* **P. Tursun, o ‘qituvchi.**

\**Tayyor oshga bakovul, deb shuni aytarkanlarda!* **S. Zunnunova, Olov.**

**MO‘YSAFID** – [f.– oppoq soch]

1 Soch-soqoli oqargan, mo ‘ylari oqargan. Mo ‘ysafid odam. Haqorat qilingan mo ‘ysafid boshlarini solintirib qaytib ketdi. **M. Ismoilov, Farg‘ona t. O.**

\* Ko ‘rina boshladi boshda oq tuklar, Mo ‘ysafid ismini tashiy boshladim. **G‘. G‘ulom.**

2 Keksa, chol. Ko ‘pchilik yigirma bilan qirq orasidagi yigitlar bo ‘lib, orada uch-to ‘rtta qirq-ellik yoshlilar, hatto oltmishta yaqinlashgan bir mo ‘ysafid ham ko ‘rindi. **A. Qodiriy, Obid ketmon.**

3 – s. T. Ara – q. Ostonaqul birinchi qadahni «Mirzakarim oshnasining salomatligiga» ichdi. Keyingi qadahni «bu-ku mo ‘ysafid, sen uchun zahar ichishga tayyorman!» deb ko ‘tardi. **S. Abduqahhor, Sanamay sakkiz dema.**

**MUCHA** – esk. – I Kishi a’zosi. – [Qambar:]

\* *Qani, torting chilimni, muchangiz cog‘ bo ‘lsa ham, chilim so ‘rishdan boshqa ishga yaramaysiz!* **Oybek, Tanlangan asarlar.**

\*To 'rt mucha Oyoq, qo 'l, ko 'z va qulo – q. To 'rt muchasi sog‘ odamga bekorchilikdan yomon dard yo 'q ekan. **S. Siyoev, Avaz.**

2 – tlsh. – ayn. Gap bo 'lagi – q. Bo 'lak – l. Gapning bosh muchalari.

**SULTON** – [a. – olivy hukmdor, podsho]

1 Musulmon davlatlarida amir, xon, shohlar unvoni. Kishi yurtida sulton bo 'lguncha, o 'z yurtingda ulton bo 'l. **Maqol.**

\*Bu choqqacha qancha zamonlar o 'tdi, Qancha podsho, amir ham xonlar o 'tdi, Yo 'q-yuqa kambag‘al bilan ishi yo 'q.. O 'z kayfini surib sultonlar o 'tdi. **Ergash Jumanbulbul o 'g'li.**

\* Jahonda eng ko 'p sarmoyaga ega bo 'lgan Bruney sultoni – 1788 xonadan iborat bo 'lgan saroyda yashaydi. «**Fan va turmush**».

2 ko 'chma O 'zgalar ichida eng oldingisi, sarasi; shohi. Sabo, arzimni yetkur, mohi tobon bir kelib ketsun. Tamomi husn elining shohi – sulton bir kelib ketsun. Hamza. Man sizni bilaman, olivjanob, har qanday mayda gaplardan ustun turadigan, kek saqlamaydigan yigitsiz. Yigitlarning sultonisiz! **S. Nurov, Narvon.**

Javohirlar sultoni – olmos faqatgina zebu ziynat bo 'libgina qolmasdan, balki zabardast hamda nozik texnika mahsuloti hisoblanadi. **Gazetadan.**

3 Sulton (erkaklar va xotin-qizlar ismi).

**MIRZO** – [a. + f.]

**MEHR I** – [f. – sevgi, muhabbat; moyillik]

1 Insonning o 'z tug 'ishganlariga, yaqin kishilariga va umuman, odamga, narsaga bo 'lgan samimiyy muhabbat; yaxshi ko 'rish tuyg 'usi. Onalik mehri.

\*Mehrini qozonmoq. Vatanga bo 'lgan mehr va muhabbat. Mehr bilan o 'qimoq. Ishga mehr qo 'ymoq. To 'satdan vujudini qamragan onalik mehri g 'olib kelib, tortgan azobi ham esidan chiqdi. **P. Tursun, O 'qituvchi.**

Illi yor sevgisi ham mehri shunda. Shoirning ilhomni, she 'ri ham shunda. **M. Alaviya.**

\*Yoshlar o 'rtasida dehqonchilik kasbiga mehr uyg 'otishga e 'tiborni kuchaytirish kerak. **Gazetadan.**

\* Bu o 'rik bir vaqtlar Murotalining otasi tomonidan ekilgan va mehr bilan parvarish qilingan edi. **Sh. Rashidov, Bo 'rondan kuchli.**

2 Shafqat, rahmdillik. Odamning yuragida mehr bo 'lishi kerak. Kerakli vaqtida ko 'maklashish kerak. **Oybek, Tanlangan asarlar.**

\* Mehr qo 'ymoq Mehrini bermoq, mehr bog 'lamoq. Men faqat o 'zim chizgan suratga – o 'z ijodimga mehr qo 'yganman, xolos! **P. Qodirov, Yulduzli tunlar.**

\* Mehri tovlanmoq Mehri qo 'zg 'almoq, mehri jo 'sh urmoq. Onasi o 'g 'lini podshoh bo 'lmasidan oldingi nomi – [Botirjon] bilan atab, mehri tovlanib gapirgani Boburga juda yoqimli tuyuldi. **P. Qodirov, Yulduzli tunlar.**

**SHAFQAT** a. – rahmdillik, achinish, hamandardlik; iltifot Ayash, rahm histuyg 'usi; shunday histuyg 'uli munosabat.

\* Og 'ainilar o 'zlarining ahilligi, birbiriga mehri, shafqati bilan hammaning diqqatini jalb etar, havasini keltirar edi. **Oybek, Quyosh qoraymas.**

\* Kimki ulug 'roq – anga xizmat kerak, Kimki kichikroq – anga shafqat kerak. **Gazetadan.**

\* Bu gal ham uning mo 'ltirab qarab turishi xotinida shafqat emas, g 'azab qo 'zg 'atganiga ishonmasdi. **S. Ahmad, Saylanma.**

\* Shafqat qilmoq Shafqatli munosabatda bo 'lmoq, shafqat ko 'rsatmoq; ayamoq. Mana shunday ot! Eng muhimi – dushmanga shafqat qilma. **K. Yashin, Hamza.**

\* Amin buva: «Unga tushuntirsak.. xalqqa achinar, shafqat qilar», deb o 'ylagan edi. **M. Ismoilov, Farg 'ona t. O.**

**ILIK** – 1 esk. – ayn. Qo 'l

1 (asosan egalik qo 'shimchalari bilan qo 'llanadi). Sabr aylasang, murodingga yetarsan, Nasib bo 'lsa, yor ilkidan tutarsan. **«Tohir va Zuhra».**

\* ..Xitoy qizlari mo 'g 'ul yigitlari ilkiga tushmaslik uchun yonib turgan uylar ichiga o 'zlarini urganlarini o 'z ko 'zim bilan ko 'rdim. **M. Osim, Karvon yo 'llarida.**

\* Sizga mening maslahatim – Andijonda ko 'p turmang. Ilikka tushib qolursiz. **P. Qodirov, Yulduzli tunlar.**

2 Boldir suyagi, oyoqning tizzadan to 'piqqacha bo 'lgan qismi. Yana bu oyoq yo iligidan, yo tizzasidan qirqilgan bo 'lsa ham mayli edi. **S. Zunnunova, Ko 'k chiroqlar.**

\* Ha, ko 'chaga chiqmaysan, eshitdingmi Hoy bola! Iligingni sindiraman-u, kasalingni boqib o 'tiraveraman. **N. Safarov, Saodatning qissasi.**

*3 Odamlar hamda qo'y, mol va sh. K. Hayvonlar oyoqlarining ichida moysimon modda bo'luvchi qismi; ana shu qismning (go'shti bilan) pishirilgani. -Qani, barradan oling, o'g'lim, – dedi u ilik uza – tib. – Qo'rwmang, bu parranda etiday yengil hazm bo'ladi. A. Mirahmedov, Qo'ylar qo'ziladi.*

*\*Maxsum yeb tozalangan ilikni asta dasturxonga qo'ydi-da, hayajon ichida baqrayib o'tirgan Boboqulga tikildi. S. Anorboev, Oqsoy.*

*4 Shu suyak ichidagi moysimon modda, to'qima (iste'mol etiladi va nihoyatda quvvat-mador bo'luvchi taom sifatida qaraladi). Yana bunday to'qimalar paysimon suyaklar ichidagi ilik, yapaloq suyaklar orasidagi mijik va kemik deb ataluvchi yog'lardan ham iborat bo'ladi. K. Mahmudov, O'zbek tansiq taomlari.*

*\* Bo'lmasa, iligini siz qoqib yeng, dada.. – dedi o'g'il. R. Fayziy. Sen yetim emassan Iligi baquvvat (yoki to'q) – Kuch-madori yaxshi, kuch-quvvatga to'la; bo'liq. ..qopni bir hamla bilan orqaga olib, dadil ko'tarildi-yu, g'izillab yurib ketdi. Sakson ota orqadan qarab qoldi va ichida dedi: «Iligi baquvvat ekan!».*

*Oybek, O.v. shabadalar.*

*\* Hakim aka har yilgidek bu yil ham g'o'zani yoshligidan «iligi to'q», baquvvat qilib o'stirish uchun harakat qilmoqda. N. Rixsiev, Mirishkor.*

*\* Iligi puch (yoki puchaymoq) Tinka-madori qurigan; nimjon bo'lib qolmoq. Axir bechoralarning ishlashi uchun ham kuch-quvvat, mador kerak-ku. Iligi puchayib qolgan odam nima ishga yaraydi M. Hazratqulov, Jur'at.*

*\* Iligi to'la (yoki to'lmoq) yetarli kuch-quvvatga ega, yetarli kuch-quvvatga ega bo'lmoq. O'tga yaxshi o'rganib, iligi to'lgandan so'ng ajratdim. S. Anorboev, Oqsoy.*

*\*Temirtosh esa hokimning kiyimi ostidan bilinib turgan mushaklariga qarab, «Moy bilan go'shtni ko'p yeb, iligi to'lgan», deb o'yladi. M. Osim, Karvon yo'llarida.*

*\*Ilik uzildi – q. Iliguzildi. Ko'klam chog'i, ilik uzildi palla, odamning sillasi qurib, lohas bo'laveradigan kunlarning biri. X. Sultonov, Onamning yurti.*

*\*Ilik yuvmoq – esk. Qo'l yuvmoq, aloqani uzmoq; kechmoq. Qolmadi hurmat ahli olamda Olamu olam ahlidin yuv ilik. Bobur.*

### ***MO‘TABAR – [a. Ulug‘, aziz].***

**NIZO** – [a. – bahs, tortishuv; janjal, to ‘qnashuv; kurash] O‘zaro kelishmovchilik yoki qarama-qarshilik, dushmanlik, adovat orqasida tug‘ilgan holat, munosabat; ixtilof, nifoq. Davlatlar o‘rtasidagi nizolar. Milliy nizolar. Nizo urug‘ini sochmoq.

\*Musulmonqul o‘z g‘arazi yo‘lida orada yo‘q nizolarni qo‘zg‘ab, kuyovi Sheralixonni o‘ldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi. **A. Qodiriy, O‘tgan kunlar**

\* Nizo solmoq yoki nizo urug‘ini sochmoq – Qarama-qarshilikni, kelishmovchilikni vujudga keltirmoq. Daho o‘ylab, ulug‘ shoir bilan ayoli orasiga nizo solishni topdi. **T. Murod, Yulduzlar mangu yonadi.**

\* Oradan nizoni ko‘tarmoq O‘zaro kelishmovchilik, qarama-qarshilikni yo‘qotish.

– [Abdurahmonboy Qudratga:]

\*Uy-joyingni qaytaray, davlatimdan bahramand qilay, oradagi nizoni ko‘tar! **N. Safarov, Tanlangan asarlar.**

**99-topshiriq.** Qiyidagi izohlardan bakovul, shig`ovul, salom og`asi, dodxo, ponsadboshi, hudaychi so‘zlarining ma’nolarini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va qo‘llash uchun eslab qoling:

- 1) podshoh, xon va lashkarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, bosh oshpaz;
- 2) Buxoro xonligidaadolat, haq-huquq istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluvchi va uning javobini arzchilarga yetkazuvchi lavozimli kishi;
- 3) Buxoro va Xiva xonliklarida elchilarni kutib olish, xon huzuriga olib kirish, saroydagi qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug‘ullangan shaxs;
- 4) xon va amirning huzuriga ish va arz bilan kelganlar haqida xon, amirga xabar beruvchi va xon, amirning javobini ularga yetkazuvchi amaldor;
- 5) Qo‘qon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor; 6) amir, xon saroyida rasmiy marosimlarga boshchilik qilib, uni nazorat qilib turgan lavozimli shaxs.

<i>Bakovul</i>	1) podshoh, xon va lashkarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, bosh oshpaz;
<i>Dodxo</i>	2) Buxoro xonligidaadolat, haq-huquq istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluvchi va uning javobini arzchilarga yetkazuvchi lavozimli kishi;
<i>Shig`ovul</i>	3) Buxoro va Xiva xonliklarida elchilarni kutib olish, xon huzuriga olib kirish, saroydagi qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug‘ullangan shaxs;
<i>Hudaychi</i>	4) xon va amirning huzuriga ish va arz bilan kelganlar haqida xon, amirga xabar beruvchi va xon, amirning javobini ularga yetkazuvchi amaldor;
<i>Dodxo</i>	5) Qo‘qon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor;
<i>Salom og`asi</i>	6) amir, xon saroyida rasmiy marosimlarga boshchilik qilib, uni nazorat qilib turgan lavozimli shaxs.

### ***BAKOVUL – bukovul***

1). – esk. Tar. *Podshoh, xon va lashkarlarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o‘zi totib ko‘rvuchi mansabdor; bosh oshpaz (1).5).asr va undan keyingi davr).*

\* *Naql qilishlaricha, ushbu taom – [ajabsanda] Bobur saroyining bakovullari ijodiga mansub emish. K. Mahmudov, o‘zbek tansiq taomlari.*

\* *Gunoh shulkim, – dedi Bobur qat’iy ohangda, – bakovullarimiz sizdan qattiq ranjibdirlar: tortgan taomlaridan loaqal bir luqma tanavvul etmas emishsiz. «Yoshlik».*

\* *Bakovul bo‘shashgancha bir chekkada turardi. «Sharq yulduzi».*

\*Tar. Oltin o'rda xonligida qo'shinga maosh ulashish, o'jalarni taqsimlash singari vazifalarni bajaruvchi yuqori mansabdor. – shv. To'ylarda taom tayyorlovchi oshpaz, pazanda. Yuzlari tandirdan endi uzilgan nondayin qipqizil, mo'ylovli bir odam bakovul bo'ldi. «**Yoshlik**».

\* To'y va bayram (hayit) munosabati bilan o'tkaziladigan kurash, poyga, uloq (ko'pkari) kabi musobaqalarni boshqaruvchi. Bular to'yga bakovul ham bo'ladi. Har kim qo'ldan kelganini qiladi. «**Intizor**». Ahmadjon ota, Meliqo'zi va bakovullar muzika sadolari ostida o'rtaga tushdilar. «**Yoshlik**».

\*Tayyor oshga bakovul Tayyoriga ayyor, qulay vaziyatdan foydalanib qoluvchi odam. Qiz bo'yiga yetgandan keyin, Mamasaid «tayyor oshga bakovul» bo'ldi: «Men eng yaqin tog'aman, shuning uchun ota o'rniqa otaman», deb da'vo qildi. **P. Tursun, o'qituvchi**.

**\*Tayyor oshga bakovul, deb shuni aytarkanlarda! S. Zunnunova, Olov.**

**SHIG'OVUL** tar. Buxoro va Xiva xonliklarida elchilarini kutib olish, ularni xon huzuriga olib kirish, saroydagi qabul marosimlarini boshqarish va nazorat qilish bilan shug'ullangan mansabdor shaxs.

\* Ertalab xon saroyidan shig'ovul egarlog'liq bir ot keltirib, ta'zim bilan elchini arkka chorladi. **M. Osim, Elchilar**.

**SALOM** – [a. – tinchlik, xavfsizlik; ko'rishish, salomlashish]

1 Kishilarning o'zaro uchrashgan paytlarida urf-odatga ko'ra bir-biriga aytadigan so'zi. Alangali salom. Qizg'in salom. Salom ham farz, alik ham farz.

\*Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber. **Maqol**.

\*Salom, professor! Xush kelibsiz, – dedi Hamza va Stepanovga qarab qulochini ochdi. **K. Yashin, Hamza**.

\* G'ulomjon egilib salom berdi, sog'-salomatlik so'radi. **M. Ismoiliy, Farg'ona t. O. Duoyi salom – q. Duo**.

\*Salom aytmoq – ayn. Salom yo'llamoq. Havodan aylanib uchgan turnalar, Borib bizning elga salom aytinqlar, Ey aziz turnalar, mening tilimdan Do'stu yoronlarga salom aytinqlar. «**Tohir va Zuhra**».

\*Salom alaykum – ayn. Salom –

1. Salom yo'llamoq Biror shaxs yoki noma orqali salom aytib yubormoq.

\*Hammalari sog'-omon, – dedi Nizomiddinxo'ja. – Sizga matbaa, gazetalardagi muharrir, musahhih do'stlaringiz salom yo'llashdi. **K. Yashin, Hamza**.

\* Salom yo‘q, alik yo‘q To‘satdan, hyech kutilmaganda, dabdurustdan. U kirgach, salom yo‘q, alik yo‘q, tomdan tarasha tush-ganday: -Nimalar deb valdirayapsan, – deb o‘shqirdi. «**Mushtum**».

\* Salomini yeb qo‘ymoq Ko‘pincha, salom bermagan bolalarga aytiladigan hazil ibora. Erta turib kech keldi, Salomini yeb keldi. «**Boychechak**».

\*Soyasiga salom bermoq – q. Soya.

2 – tar. Amir, xon bilan ertalabki uchrashuv va undagi salom-alik marosimi. Ertalab xonning haramdan chiqish vaqtি yaqinlashgan, salom va istiqbol uchun xoslardan sakkiz-to‘qqiz kishi yig‘ilgan edilar. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

\* Salom og‘asi – tar. Amir, xon saroyida rasmiy marosimlarga boshchilik qilib, uni nazorat qilib turgan lavozimli shaxs. Supachalar ustida udaychi, shig‘ovul, salom og‘asi, tunqotar va darbon kabi tashrifot xodimlari o‘tirardilar. **S. Ayniy, Jallodlar.**

\* 3 – etn. Kelinchakni to‘ydan keyingi kun erta bilan olib chiqib, kuyovning ota-onalariga, qarindosh-urug‘lariga ta’zim qildirish marosimi va umuman kelinchaklar ta’zimi; kelinsalom. Ertalab, odat bo‘yicha, Nuri to‘r ro‘mol yopinib, beshikdagi boladan to keksalarga qadar – hammaga salom qilar ekan. **Oybek, Tanlangan asarlar.**

\* – [Rohila:] Jon qizim, eringni izzat qil! Qaynanangni izzat qil! Ertalab salomga chiqayotibsamni **A. Qahhor, Og‘riq tishlar.**

4. Sahnada, o‘yin-tomosha maydonlarida aktyorlarning tomoshabinlarga ta’zi-mi. Zulfizar raqsini tugatib, mahliyo bo‘lib o‘tirgan tomoshabinga salom qilishi bilan, birdan hamma yoqni gulduratib qarsaklar ko‘tarildi. **K. Yashin, Hamza.**

5. **Salom (erkaklar ismi).**

#### **DODXOH** – [f. –da ‘vogar; odillik istovchi]

1 – esk. Kt. Adolat talab etuvchi, adolat istovchi, da ‘vogar.

\*Nima deb amr etsam, shuni qilinglar, Huroyim ustidan dodxoh bo‘linglar. «**Rustamxon**».

2 – tar. Buxoro xonligida adolat, haq-huquq istovchilardan amir nomiga ariza qabul qiluvchi va uning javobini arzchilarga yetkazuvchi lavozimli kishi. Rayimbek dodxoh edi. **A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.**

\* Gulchehra davlatxonaga kirib, miroxo‘r, to‘qsabo, dodxohlarni chaqirdi. «**Erali va Sherali**».

*3 – tar. Qo‘qon xonligida qozixona ishlari ustidan nazorat olib beruvchi amaldor.*

*4 – tar. O‘tmishda Farg‘ona vodiysi va Toshkentda mingboshi va boshqa ba’zi amaldorlarni ulug‘lash uchun ishlatilgan so‘z.*

*\*Dodoxohim, dodxohlik senga xos. Porasiz o‘tmas senga yuz iltimos. **Muqimiyl**.*

*\*Ha, shoshmang, darvoqye, mingboshi dodxoh yordam bermasmikinlar **Hamza, Boy ila xizmatchi**.*

**PONSAD** – [f. – besh yuz] – tar.

*\*Xonliklar davrida: askar boshliqlariga berilgan unvonlardan biri va shu unvonga ega bo‘lgan, odatda 500 kishidan iborat harbiy qismga boshchilik qilgan shaxs.*

*\*Sulton Sodiq akalari – Toychoq va Ahmad bilan – 1860 yilda Qo‘qon xoni xizmatiga kelib, ponsad unvonini oldi. «**Fan va turmush**».*

**HUDAYCHI** – tar. Xon va amirning huzuriga ish va arz bilan kelganlar haqida xon, amirga xabar beruvchi va xon, amirning javobini ularga yetkazuvchi amaldor.

*\*Anvar, hudaychi uchun ajratgan arizalarni qo‘liga olib, o‘rnidan turdi. **A. Qodiriy, Mehrobdan chayon**.*

*\* Qarsak tovushiga hudaychi kirdi. -Keltir! – dedi xon unga iyak qoqib. Hudaychi lip etib chiqib ketdi. **S. Siyoev, Avaz**.*

## 6-BO‘LIM IKKINCHI DARAJALI BO‘LAKLAR

### 58-dars

#### HOL

**108-topshiriq.** Navozish, nazarkarda, nabi, nabotot, navozanda so‘zlarining ma’nolarini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va qo’llash uchun eslab qoling:

- 1) xudoning xabarini yetkazuvchi;
- 2) o‘simgiliklar dunyosi;
- 3) kuy ijro etuvchi;

- 4) navo qiluvchi;
- 5) sozanda;
- 6) mulozamat;
- 7) lutf;
- 8) marhamat;
- 9) erkalash;
- 10) ulug‘ kishilarning nazari tushgan.

<i>Nabi</i>	1) xudoning xabarini yetkazuvchi;
<i>Nabotot</i>	2) o‘simliklar dunyosi;
<i>Navozanda</i>	3) kuy ijro etuvchi;
<i>Navozanda</i>	4) navo qiluvchi;
<i>Navozanda</i>	5) sozanda;
<i>Navozish</i>	6) mulozamat;
<i>Navozish</i>	7) lutf;
<i>Navozish</i>	8) marhamat;
<i>Navozish</i>	9) erkalash;
<i>Nazarkarda</i>	10) ulug‘ kishilarning nazari tushgan.

**NAVOZISH – [f].** Lutf; marhamat; erkalash; mulozamat.

**NAZARKARDA – [a. + f. – sehr, afsun qilingan; xudoning panohidagi, xudo saqlagan]**

*Oollohning, ulug‘ kishilarning nazari tushgan, ko‘p iltifotu mehribonliklarga sazovor bo‘lgan. Navoiy birinchi bo‘lib qalamga olgan nazarkarda shayxlar orasida Is’hoq ota, Qo‘rqut ota, Bobo Xushkeldi kabi ko‘plab mo‘tabar nomlar bor. P. Qodirov, Til va el.*

**NABI – [a. – payg‘ambar, ilohiy xabar keltiruvchi]**

*1 – din. Xudoning xohishini bandalariga yetkazuvchi; payg‘ambar.*

*\*Nabilar, rasullar, dohiylar unda, Qabrlar, qasrlar turgandir qator. A.*

**Oripov, Yurtim shamoli.**

*2 Nabi (erkaklar ismi).*

**NABOTOT – [a. – o‘simliklar]**

1 O'simliklar dunyosi, o'simliklar. Hujayraning topilishi shuni isbot qildiki, nabotot, hasharot va hayvonot – hamma tirik jismlar o'sib, ko'payib boruvchi organik kichik bo'laklar – hujayralardan iboratdir. «**Umumiy biologiya**».

2 – ayn. Botanika.

**NAVOZANDA** – [f. – musiqachi] – kt. Kuy ijro etuvchi, navo qiluvchi; sozanda.

\*Ba'zi yerlarda sozanda va navozandalar milliy ashuladagi ohang, navo va ash'orlardan chalgan va kuylaganlari eshitila boshladi. **Hamza, Tanlangan asarlar.**

## 62-dars

### MUMTOZ MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

#### 117-topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qib chiqing.

Yana turk lafzining mahbub jonibidin yasanmog'i **muqobalasida** sort lafzida **orosta** va **oroyish** lafzi bor. Ammo bezanmak muqobalasida demaydurlar va ul yasanmog'ning mubolag'asidur va ani mundoq debdurlarkim, Bayt:

Erur bas chu husn-u malohat senga, Yasanmoq, bezanmak  
ne hojat senga.

Va xo'blarning ko'z va qoshlari orasinki, **qabog'** derlar, forsiyda bu **uzvning** oti yo'qtur. "Masnaviy"da bir jamoat xo'b ta'rifida mundoq deyilibdurkim, Bayt: **Mengizlari gul-gul, mijalari xor,**

Qabog'lari keng-keng, og'izlari tor.

(Alisher Navoiy, "Muhokamat ul-lug'atayn")

#### 118-topshiriq. Matndagi ajratilgan so'zlarning ma'nolarini quyida berilgan izohlar orasidan aniqlang va lug'at daftaringizga qayd qiling:

- 1) tana a'zosi;
- 2) yuzdag'i xol;
- 3) nutq hosil qiluvchi a'zo;
- 4) bezak, bezalgan;

- 5) qarshilik;**  
**6) ko‘z kosasini qoplovchi; 7) ochilib-yopilib turadigan teri; 8) poliz o‘simligi.**

<b>Lafzi</b>	1) tana a’zosi
<b>Mengiz</b>	2) yuzdag'i xol
<b>Lafzi</b>	3) nutq hosil qiluvchi a’zo
<b>Orosta, oroyish</b>	4) bezak, bezalgan
<b>Muqobala</b>	5) qarshilik
<b>Qabog‘</b>	6) ko‘z kosasini qoplovchi
<b>Qabog‘</b>	7) ochilib-yopilib turadigan teri
<b>Qovoq</b>	8) poliz o‘simligi.

<b>LAFZ</b> - [a. – talaffuz; so'z, ibora]
<i>I kt. So'z, kalima; til.</i>
* <i>Birdan erining shoshilmay, ochiq chehra, shirin lafz bilan kirib kelgani Oysha xolaga nash'a qilib ketdi. Sh. Toshmatov, Erk qushi.</i>
* <i>Bularning lafziga qulqoq solib turgan Lolaxon o'zini tutolmay otiladi. U. Ismoilov, Saylanma.</i>
* <i>Lafzi tez Og'ziga kelgan so'zni qaytarmaydigan, salga jahli chiqib gapirib yuboraveradigan. Kumushingizning fe'l-i-avtori o'zimga ma'lum: erka o'sgan, lafzi tez. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.</i>
2. [ko'chma] <i>Berilgan va'da, axd, so'z. Hozir Nodirning yuragida nomus o'ti, yigitlik lafzi, oriyatidan ko'ra xudbinlik, o'jarlik ustun turardi. Sh. G'ulomov, Yorqin ufqlar.</i>
* <i>Paxtakorning odaticha shunday: so'z berdingmi, lafzingda tur! P. Shermuhamedov, Piskentlik pahlavon.</i>
* <i>Lafzi yo'q So'zida, axdida turmaydigan, va'dasini bajarmaydigan.</i>
* <i>Lafzi halol Chin so'zli, ahdida turadigan, va'dasining ustidan chiqadigan.</i>
* <i>Lafzi halol, quroldosh do'stlar O'rinalaydi ahd-u paymonni. Yo. Mirzo.</i>
* <i>Lafzini yutmoq yoki lafzidan qaytmoq Ahdidan qaytmoq, aytgan gapi, bergen va'dasidan tonmoq.</i>
<b>MUQOBALA</b> - [a. – taqqoslash, solishtirish; uchrashuv; qabul qilish; o'rnini to'ldirish, qoplash] - esk. kt.

* <i>Qarshilik, qarshi turish; javob harakati.</i>
* <i>Otabek bu ters va qo'rs muqobaladan toqatsizlandi. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.</i>
* <i>Yigitcha Zebidan muqobala ko'rmagach, qo'lini tortib oldi. Cho'lpon, Kecha va kunduz.</i>
<b>ORASTA</b> - [f. – bezatilgan, ziynatlangan; tarbiyali, odobli]
* <i>Tartibga solingan, oro berilgan, yasatilgan, bezatilgan.</i>
* <i>Tillarang sochlari orasta qilib taralgan, ko'zлari havorang bu juvon, qo'llarini xalati cho'ntagiga tiqqanicha, bizga kulib qarab turardi. «Yoshlik».</i>
* <i>Tong yorishmasdan turib, qo'liga supurgi oladi-da, yarim soatga qolmay hammayoqni orasta qilib qo'yadi. S. Ahmad, Yulduz.</i>
<b>OROYISH-</b> [f. – bezak, ziynat; kiyim-kechak; saf tortish, tartib] - kt.
* <i>Zeb, ziynat, pardoz, oro; chiroy.</i>
* <i>Yaxshi libos tanga oroyish, Yaxshi yo'ldosh jonga osoyish. Maqol.</i>
* <i>Borisov kiyim-boshlarini ko'zdan kechirib, o'ziga oroyish berdi-da, bigiz bo'lib ufqqa sanchilib ketgan yo'lga qaradi. Shuhrat, Shinelli yillar.</i>
<b>QABOQ</b> - esk. q. qovoq .
* <i>So'z so'zlasa, qabog'ingni uysan.. «Murodxon».</i>
* <i>Qaboqlari keng-keng, og'izlari tor. Lutfiy.</i>
<b>MENG</b> - esk. Xol.
* <i>Qaro meng ol yangoqingga yaroshur. Xorazmiy, Muhabbatnoma.</i>

## 69-70 -darslar

### MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

**133-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qib chiqing.

**SO'Z SEHRI**

## **1.Hukmnoma**

O‘xshamag‘an yerda bir xotinning arzga kelishi qo‘rboshining ko‘ngliga shubha soldi. Majhula xotinning qanday arzi bo‘lg‘anlig‘ini bilib ketishka tilasa ham, qushbegidan ruxsat olib qo‘yg‘ani uchun mahkamadan chiqishga majbur edi. Qo‘rboshi mahkama eshididan dahlizga chiqar ekan, eskigina paranjiga o‘ralg‘an bir xotin qushbegi to‘g‘risig‘a to‘xtab, bukilib ta’zim qildi. Xotinda hayajon va entikish holatlari bor edi. Shuning uchun qo‘rboshining boyag‘i shubhasi yana kuchaydi, qushbegining ko‘zidan yo‘qolib turish maqsadida o‘zini eshikning orqasiga olib, ketmay to‘xtadi.

Xotin shoshilib kavshini yeshdi-da, eshik ostida nimanidir paranji ichidan oxtarindi. Xotinning bu harakatiga tushunolmay ajablangan qushbegi:

– Ichkariga kirib arzingizni so‘zlang, opa, – dedi.

Xotin ichkariga kirdi va qushbegi oldig‘a borib, unga nimadir berdi-da, orqasig‘a qaytib, eshik yonig‘a kelib turdi. Xotinning berib ketkan narsasi uch, to‘rt buklangan bir qog‘oz edi. Qushbegi sekin-sekin qog‘oz taxtlarini ocha boshladi... – Xudo rizosi uchun tezroq. Yo‘qsa... ikki gunohsizning qonlarig‘a botarsiz!

Xotinning bu so‘zidan a‘yon bir-birlariga qarashdilar. Qushbegi tez-tez qog‘oz taxlarini ohib bitirdi va yo‘g‘on qalam bilan yozilgan uzun bir maktubni o‘qumoqqa oldi.

Maktubni o‘qub chiqish uzoqqa cho‘zilg‘anliqdan nihoyatda toqatsizlashgan edi. Oxirda qushbegi maktubning so‘ngrog‘ig‘a kelib to‘xtadi-da, chaqirdi:

– Pirmat, Pirmat!

## **2. Maktub**

“Qudamiz Mirzakarim qutidorg‘a va qudachamiz xonimg‘a yetub ma’lum bo‘lg‘aykim, bizlar munda sog‘-salomatdirmiz va ul jonibdag‘i siz hurmatlik va izzatliklarni parvardigori olamdin sihhatlaringizni saloti xamsa oldida so‘rab turmoqdamiz. Ba’daz maxfiy qolmag‘aykim, kuyav o‘g‘lingiz xizmatlariga yuborilg‘an edi. Inshoollo, salomat yetkan bo‘lsa kerak. Ammo siz hurmatlilarga ma’lumdir, bizning shul Otabekdan o‘zga farzandimiz bo‘lmay, dunyoda o‘zimizdan keyin qoldiraturg‘an tuyeqimiz va ko‘z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir. Muhtaram siz burodarimizning shul yagona o‘g‘limizni farzandlikka qabul qilib, ammo bizning kelin bolamizni Toshkandga yubormag‘anlari bizning janoblaridin bo‘lg‘an minnatdorlig‘imizni va yana o‘g‘limizg‘a bo‘lg‘an marhamatlarini biroz tugallay olmadilar. Ammo kaminalari bu xususdagi aybni sizning ustingizga butunlay yuklay olmaymiz, zeroki, bizning boshimizda bo‘lg‘an “yolg‘iz tuyeqqliq” savdosi sizning ham boshingizda bordir. Nachukkim, Otabekning

ko‘p umri Marg‘ilonda o‘tib, bizlarni ham siz o‘ylag‘an og‘irliqqa solmoqdadir. Birodari aziz, siz manim bu so‘zlarimdin xafa bo‘la ko‘rmangiz, zeroki, faqiringiz bu so‘zлarni bir yo‘sin kelish vajhidin yozib o‘tdimiz. Dunyo orzu-havas uyi derlar. Yuqorida bayon qiling‘anidek va o‘zлari bilganlaridek, ayniqsa, qudashalarining dunyoga kelib kutkani shu yolg‘iz o‘g‘ulning orzuhavasidir. Janoblari bul ishka haq berurlarmi, yo‘qmi, ammo azizlarning ruxsatlarini olmasdanoq Otabekni Toshkanddan ham taalluqdar qilmoqchi bo‘lib, bul ma’niga ba’zi harakatlarini qilib qo‘ygan erdik. Bizlarning bul ra’yimizga o‘g‘lingiz qarshi tushib harchand rad qilsa ham, nihoyatida onasining so‘zini yerda qoldirmasliq uchun qabul qilg‘an erdi. Ammo bul to‘g‘risidag‘i siz janoblarining ruxsatlarining ba’dida javob bermakchi bo‘lib, xizmatlariga ketkan erdi.

Siz hurmatlilar bul ma’nini savob toparsizlarmi-yo‘qmi, bu jihatni yana marhamatlaringizga bog‘liqdir. Bu maktubni yozishdan qasdimiz shulkim, Otabekning u ikkinchi taalluqqa aslo ra’yi bo‘lmay va yana sizlarga aytmay bul tarafda bizlarni xijolat chekdirib qo‘yarmi, deb o‘yladiq. Burodari kiromi, siz dunyo ko‘rgan bir kishisiz, onasining bu talabini xo‘b mulohaza qilib ko‘ringiz, bu to‘g‘ridag‘i ra’yi o‘g‘lingizga qarag‘anda ham faqirlaricha sizlarda bo‘lg‘ani vajhidin albatta ko‘ndirishka sa’y va ko‘shish qilursiz, deb ishonamiz. Otabekning ikkinchi taalluqi to‘g‘risida kelin bolamizg‘a bildirilmasa xo‘b erdi. Bizlarning xursandchiliklarimiz yo‘lida Otabek bilan birga Toshkand tushib, o‘z qo‘llari bilan to‘yimizni o‘tkazishingizga ishonib Yusufbek hoji va qudashalari. 17- savr oyida 1265- hijriyada yozildi”.

### Uyga vazifa

**138-topshiriq.** *Qasd, vajh, taalluq, burodari kirom, say’, ko‘shish* kabi so`zlarning izohini quyidagilar orasidan aniqlab, lug`at daftaringizga ko`chiring va eslab qoling.

**Izoh uchun so`zlar:** *Albatta amalgा oshirish ko‘zda tutilgan, jazm etilgan qat’iy niyat; azm-qaror, ahd; uylanish, aloqador bo‘lish; sabab, asos; muhtaram, ulug` birodar, sa’y va harakat.*

***QASD – [a. – maqsad, niyat; intilish, ishtiyoq; g‘araz]***

*1 Albatta amalgा oshirish ko‘zda tutilgan, jazm etilgan qat’iy niyat; azmqraror, ahd.*

*\*Uydan chiqishdanoq uning – [Otabekning] qasdi bu kunni dalada o‘tkazmoq edi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.*

* <i>U Munisxon dan uni sovitish qasdida edi. A. Qahhor, Sarob.</i>
* <i>Qasd qilmoq Biror niyatda bo 'lmoq, maqsadni ko 'zda tutmoq.</i>
* <i>Ertadan boshlab beparvoroq bo 'lishga qasd qildim. S. Siyoev, Yorug'lik.</i>
* <i>Agar G'ulomsher qasd qilsa, har qan-day ishning uddasidan chiqishiga hamma ishonar edi. Oybek, Nur qidirib.</i>
2 <i>Haqorat, yomonlik uchun javob qaytarish (hisoblashish) niyati; adovat, o 'ch, alam. Qasd qilmoq. Birovga qasd qilma.</i>
* <i>Sen jinni bo 'ldingmi Yo menda boshqa bir qasding bormi «Latifalar». Mening fashizmdan bo 'lak hyech kimda qasdim yo 'q. Uyg'un.</i>
* <i>Shermuhammadning esa xotin jo 'nidan menda qasdi bor. K. Yashin, Hamza.</i>
* <i>Joniga qasd qilmoq (yoki etmoq) O 'ldirish, yo 'q qilish uchun harakat qilmoq, suiqasd qilmoq. Botiralining joniga qasd qilgan kim bo 'lsa ham, yurtning qarg'ishiga qoldi. H. G'ulom Mash'al.</i>
* <i>Joningda qasding bormi Joningdan to 'ydingmi Jondan bezor bo 'ldingmi O 'lging keldimi Joningda qasding bormi, buncha aroqning ketidan quvmasang. «Mushtum».</i>
* <i>Qasdiga tushmoq Payiga tushmoq, o 'ch olish, yo 'q qilish va sh.k. uchun harakat qilmoq. Dushman tushar davlatlining qasdiga. «Oysuluv». Qasdida bo 'lmoq –</i>
1) <i>biror maqsadda, niyatda bo 'lmoq;</i>
2) <i>o 'ch olish, yo 'q qilish, o 'ldirish yoki qo 'lga tushirish va sh.k. niyatda bo 'lmoq.</i>
* <i>Uyingiz orqasini teshib, Kumush qasdida bo 'luvchi.. ham shu battol Homid ekan. A. Qodiriy, O'tgan kunlar</i>

#### VAJH – sabab, asos esk. kt. ayn. Vaj

* <i>Faqir bo 'lsam, bu vajhdan bisyor malolxotir bo 'lib, har turlik choralarни ko 'rar erdim. A.Qodiriy, G'irvonlik Mallavoy.</i>
* ..sovuoq xabar bo 'lsa kerak, eshondan orom qochdi. Muqimov, Qopqon. Xoqonimiz nazarlarida shahzodamning e'tiborlarini har vajh bilan ilgari sururmen. Oybek, Navoiy.chi..d

**TAALLUQ** – [a. – aloqa, bog‘liqliq; sodiqqliq, muxlislik; ishq-muhabbat; tegishlilik]

1 – kam qo‘ll. Aloqadorlik, daxldorlik; aloqa, bog‘lanish, munosabat.

\*Bu ishning sizga ham taalluqi bor. Asad qori.. so‘nggi hikoyaning ham o‘ziga taalluqi yo‘qday, bez bo‘lib o‘tiraverdi. **M. Ismoilov, Farg‘ona t. O.**

2 esk. Uylanish; aloqadorlik; xotin, rafiq. Otabekning ikkinchi taalluqi – [Zaynab] to‘g‘risida kelin bolamizga bildirilmasa xo‘p edi. **A. Qodiriy, O‘tgan kunlar**

**BIRODAR** – [f.– aka, uka]

1). Aka yoki uka; og‘a yoki ini.

\*Boysunqur mirzo o‘z qobiliyati, o‘tkir zehni, ishbilarmonligi bilan birodarlaridan ajralib turadi. **Mirmuhsin, Me’mor.**

\*Faoliyati, qarashlari, munosabatiga ko‘ra o‘zaro yaqin shaxs; hamdam, do‘st.

\*Tangri birodarlariga qovog‘ini solib qarovchi kishilarni yoqtirmaydi. «**Hadis**».

\* Muribdek kishini birodar, og‘a tutinib, Avazning yorug‘ kunlari ziyoda bo‘ldi. **S. Siyoev, Avaz.**

\*Ming tashakkur, ming rahmat, yonimizga kirib, dehqonchilikka o‘rgatgan o‘zbek birodarlarimizga. «**o‘zbekiston qo‘riqlari**».

\*O‘rtoq, og‘– i (murojaatda). Siz qutlug‘ kunlarda yetib keldingiz, aziz birodarlar! **A. Muxtor, Do‘sligimiz barq ursin.**

\*Birodar, Azizzon degan polvon bolani qaydan topsam bo‘ladi. **S. Ahmad, Ufq.**

\*Qayoqqa, birodar – dedi shopmo‘ylov taksichi, mashinaning qiya derazachasidan mo‘ralab. **O‘. Hoshimov, Qalbingga qulog sol.**

\*Birodari aziz Aziz do‘stim, og‘– im. Birodari aziz, siz mening bu so‘zlarimdan xafa bo‘la ko‘rmangiz.. **A. Qodiriy, o‘tgan kunlar.**

\*Birodar (erkaklar ismi).

**KIROM** – [a. – karamli, saxovatli, buyuk (kishilar); – “karim” s. Ko‘pl.] – esk. Kt. Muhtaram, aziz (kishilar).

\*Inshoollo, bul andishamiz kiromlarga ma'qul tushgan taqdirda.. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

\* Ey mening do'stlarim, kiromu matlub.. E. Vohidov.

**KO'SHISH** – [f. – harakat, urinish; intilish; ovoragarchilik, tashvish] – ko'shish qilmoq (yoki ko'rsatmoq) – kam qo'll. Harakat qilmoq; intilmoq, chalishmoq.

\*Lekin biz deymizki, turmushimizda bir qadar isloh yuzaga chiqsin, bema'ni ishlarni yo'qotaylik, dini islomning ravnaqiga ko'shish qilaylik. **Oybek, Tanlangan asarlar.**

\*Sal o'tmay angladiki.. bu chaqqon davlatlar shunchaki Buxoroga qayishganlari.. «insoniyatning manfaatdorligi» uchun unga ko'shish ko'rsatishmayapti. **Sh. Xolmirzaev, Qil ko'pri.**

\* Bolam, dardni kasal odam bilsa, o'ziyam tuzalishiga ko'shish ko'rsatar ekan. **Sh. Xolmirzaev, Saylanma.**

## 72-73-darslar

### MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

**140-topshiriq.** Matnni ifodali o'qishni mashq qiling.

#### SEN MENI ANGLAR BO'LSANG... Hikoyat

Bog`bone bor edi bas behunar,  
Bog`bonliq san'atidin bexabar.

Ne shajar payvand qilmoq shevasi, Kim  
halovat hosil etkay mevasi.

Ne yog`och parkovi birla parvarish –  
Aylab olibkim, shajar qilg`ay ravish.

Vaqt ila ne dona sochmog`in bilib, Kim  
 farah qilg`ay guli hosil qilib.  
  
 Bog` aro anborkashlig` birla xush, Bog`bon  
 yo`qkim, degil anborkash.  
  
 Chun ko`rub bu nav' ranj-u tob anga, Pandlar  
 deb ahli xush ahbob anga.  
  
 Kim bu behosil ishingni tark tut, O`zni  
 bir hosilliq ish birla ovut.  
  
 Johil ul mehnatdin o`lmay mujtanib, Erdi  
 ul mehnat chekorga murtakib.  
  
 Toki bir jo`ya aro kesmakta tok,  
 Ayladi oni yilon sanchib halok.

(A.Navoiy. “Lison ut-tayr”)

### Nasriy bayoni ([www.zyouz.com](http://www.zyouz.com))

Bir uquvsiz bog'bon bor edi. U bog'bonlik san'atidan bexabar edi. U na daraxtga payvand qilib, undan huzur-halovat beruvchi meva olishni, na daraxtlarni parvarish qilib o'stirishni va na o'z vaqtida guli hosilga kira oladigan don sepishni bilardi. Bog' aro xas-xashak terish bilan xursand edi. Aslida uni bog'bon emas, xashakchi deyish kerak edi. U shu tarzda zahmat chekib, o'z umrini o'tkazar edi. Yaqin o'rtoqlari unga bu xil samarasiz ishni tashlab, o'zingni foydali ish bilan ovut, degan tarzda pand-nasihatlar qilar, u esa bularga sira quloq solmas edi. Johil bog'bon bu mashaqqatli ish bilan shug'ullanishni tark etmadi. Kunlardan bir kun u jo'yaklar oralab tok kesib yurganida, uni ilon chaqib o'ldirdi.

**141-topshiriq.** Matndan 1-ustunga olingan so‘zlarning ma’nosini 2ustundagi izohlar orasidan aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va yod oling.

Shajar	Daraxt
Parkov	O'yish quroli

Farah	Saodat
Anborkashlig`	Xas-xashak tashuvchilik
Ahbob	Do`st
Mujtanib	Hazar qiluvchi
Murtakib	Egallangan, kirishgan

### 75-dars

## MATN VA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH

**144-topshiriq.** Matnlarni diqqat bilan o‘qib chiqing.

### SAYYOR SO‘ZLAR

1. Hindistonning qoramtilchangalzorlarini, qalin bambukzorlarini, ya’ni **junglini** ko‘rish uchun ertalab yo‘lga chiqish ma’qulligini aytishdi. (Z. Akramov, “Hindiston lavhalari”)

2. Hurmatli **jyuri** a’zolari, loyihalarga yetti o‘lchab, bir kesib baho bering, agar shoshqaloqlik qilsangiz, odamlar kechirishmaydi. (Gazetadan)

3. Achchiq va hidli dorilar alohida **jelatin** g‘ilofida ichiladi. (N.Ismoilov.

“Kasallarni parvarish qilish”).

4.

**145- topshiriq.** Matndagi ajratilgan so‘zlarning ma’nolarini berilgan lug‘atdan o‘qing, lug‘at daftaringizga ko‘chirib yozing va eslab qoling.

1. <b>Jelatin</b> (fr. <i>gelatine</i> – <i>dirildoq, yelimshak</i> < lot. <i>gelatus</i> – <i>muzlagan</i> )
<i>Yosh mol suyagi va terisidan tayyorlanadigan bir nav yelimshak modda</i>
2. <b>Jungli</b> (ing. <i>jungle</i> < f.-hind. <i>Changalzor, o`rmon</i> )
3. <b>Jyuri</b> (fr. <i>jury</i> - <i>hakamlar guruhi</i> < lot. <i>juro</i> – <i>qasam, ont ichaman; qasamyod qilaman</i> )

**147-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o‘qing.

## HIKOYAT

Ikki xurosoniy **faqir** bir-biri suhbatina **mulozim** bo`lur, sayohat qilur edilar. Biri zaif va biri **qaviy** edi. Zaif kunduz **uruj** tutar, kecha iftor etar, **dag`i** qaviysi kunda uch navbat yemak yer. Bir kun bularni bir shaharning eshikinda josus deb tuhmat bilan tuttilar.

Ikkisini bir evga soldilar, dag`i eshikni mahkam bekitdilar. Bir jum'adan so`ngra ma'lum qildilarkim, **yozuqlari** yo'q emish, kelib ko'rdilarkim, qaviysi o`lmish, zaifi salomat qolmish. Taajjub qildilarkim, nechuk bo`ldi deb. Bir hakim hozir edi. Aytti:

“Agar munung **xilofi** bo`lsa, ajab bo`lg`ay edi. Ul biri ko`p yer edi, ochliqqa toqat keturmadi, o`ldi. Dag`i bu biri oz yer edi, odatincha sabr etib salomat qoldi”.

(**Sayfi Saroyi**, “Guliston bit-turkiy”)

**148-topshiriq.** Matndagi ajratilgan o`zlashma so`zlarnining ma'nosini aniqlang va lug`at daftaringizga ko`chiring hamda yodlang:

- 1) kambag`al, oddiy; bechorahol;
- 2) kuchli, baquvvat;
- 3) quloq soluvchi, xizmatkor;
- 4) ro`za,tiyilish;
- 5) tag`in, yana;
- 6) gunoh, ayb, qilmish; 7) farq, tafovut.

<b>Faqir</b>	1) kambag`al, oddiy; bechorahol;
<b>Qaviy</b>	2) kuchli, baquvvat;
<b>Mulozim</b>	3) quloq soluvchi, xizmatkor;
<b>Uruj</b>	4) ro`za,tiyilish;
<b>Dag`i</b>	5) tag`in, yana;
<b>Yozuq</b>	6) gunoh, ayb, qilmish;
<b>Xilofi</b>	7) farq, tafovut.

**FAQIR-FUQARO – [faqir + fuqaro] – s. T.**

\**G`arib, nochor, kambag`al kishilar, beva-bechoralar.*

\*Usta Mahmudning tevarak-atrofga dong ‘i ketdi, uni faqir-fuqaroning do ‘sti.. sifatida taniy boshladilar. **M. Osim, Mahmud Torobiy.**

**MULOZIM** – [a.

**XILOF** – [a. – qarama-qarshilik; kelishmovchilik; ziddiyat; tafovut]

\*Zid, qarama-qarshi, teskari. Qoidaga xilof harakat. Intizomga xilof ravishda. Birovnikini olish shariatga xilof, musulmonlar! «**Sharq yulduzi**».

\*Xilofi shar’iy Shariat, din ko’rsatmalariga zid, qarshi. Mana shunday xilofi shar’iy ishlaringizning kasofatidan bunday kunlarga tushdingiz. **S. Ayniy, Qullar.**

## 7-BO‘LIM.

### UYUSHIQ VA AJRATILGAN BO‘LAKLI GAPLAR, GAP BO‘LAKLARI BILAN ALOQAGA KIRISHMAYDIGAN BO‘LAKLAR

#### 80-dars GAPNING UYUSHIQ BO‘LAKLARI

##### 167-topshiriq. Berilgan izohlardan

a)ulamo, b)fisq-u fujur, s)tavoze so‘zlarining ma’nolarini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va qo‘llash uchun eslab qoling:

- 1) o‘zini xoksor, odob bilan tutish;
- 2) g‘iybat, gunoh ishlar, axloqsiz amallar; 3) islom dini olimlari.

<b>s)tavoze</b>	1) o‘zini xoksor, odob bilan tutish;
<b>b)fisq-u fujur</b>	2) g‘iybat, gunoh ishlar, axloqsiz amallar;
<b>a)ulamo</b>	3) islom dini olimlari.

**ULAMO** – [a. – «olim» s. Ko ‘plik.]

\* Islom ilohiyotchilari va huquqshunos (faqih)lari, shuningdek, diniy muassasalarga, sud (qozilik) mahkamalariga, o‘quv yurtlariga mutasaddi bo‘lgan barcha islom dini olimlari.

\*Durust, miyang to‘libdi, – dedi kulib Tantiboyvachcha, – yaqin o‘rtada uncha-muncha ulamoni bir cho‘qishda qochirasan. **Oybek, Tanlangan asarlar.**

\*Ma'dalixon – [Muhammad Alixon]ga fatvo yozib bergan Qo'qon ulamolaridan bir nechalari.. qochib qutuldilar. A. **Qodiriy, Mehrobdan chayon.**

\*Yoshlarga homiylik qilish, yo'l-yo'riq ko'rsatish islomning, ulamolarning ishidir, – dedi qaltirab, bo'zrib munofiqlardan biri. **Oybek, Nur qidirib.**

**FISQ-FASOD**, fisqu fasod – [fisq + fasod]

\*Biror kimsa to'g'risida tarqatilgan uydirma gap; tuhmat, bo'hton.

\*Ulug'bekning ilm bilan shug'ullanishini ruhoniylar dahriylikka yo'yib, unga qarshi fisq-fasod uyushtirdilar. «**Fan va turmush**».

\*Hojar xolaning muomalasidan ham ig'vo, fisq-fasod anqib turadi. **Yu. Shomansur, Qora marvarid.**

**TAVOZE** - [a. – o'zini past tutish, kamtarlik; til biriktirish, kelishuv] \*O'zini xoksor, odob bilan tutish; xoksorlik, kamtarlik.

\* Gulbahor unga - [ayolga] avval tavoze bilan egilib salom berdi, keyin borib, yelkasini tutib ko'rishdi. **S. Zunnunova, Gulbahor.**

\*Ta'zim etgan kabi, qo'llarini tavoze bilan ko'ksiga qo'ydi. **S. Karomatov, So'nggi barxan.**

\* Inson ilmi, olobi, tavozesi bilan yoqimli bo'lib, mehnati bilan sharaflanadi. **Gazetadan.**

\* Tavoze ko'rsatmoq - O'zini kamtar, tavozeli tutmoq, shunday munosabatda bo'lmoq. Me'morga tavoze ko'rsatib, betob bo'lgani va buning ustiga «amirzoda pulni kamroq berayotgani»ni aytdi. **Mirmuhsin, Me'mor.**

\* Mufti Majidbekni hurmat qilsa-da, Aliga o'xshab, unga uncha tavoze ko'rsatmadi. **A. Hakimov, Ilon izidan.**

## 81-82-darslar

### MUMTOZ MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH

**168-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qib chiqing.

## DONISHMAND USTOZ

Abu Ali ibn Sinoning qo`lida ta`lim olish, unga shogird bo`lish katta **sharaf** edi. Kunlardan bir kun ikki ota o`z o`g`illarini Ibn Sinoga shogirdlikka bermoqchi bo`lishdi.

– Ey ulug` tabib, huzuringizga bolalarimizni olib keldik. Tarbiyangizga olib, shogirdlikka qabul qilsangiz. **Zora** sizga o`xshab tabib bo`lib yetishsalar, – deyishdi. Ibn Sino rozilik bildirib, ularni sinab ko`rib shogirdlikka olishini aytdi. Ibn Sinoning bir odati bor edi. Kim unga shogird tushmoqchi bo`lsa, oldin sinovdan o`tkazar, so`ng tabiblik ilmini o`rgatar edi.

– Bolalarim, – dedi kelgan yigitlarga qarab, tog`-u toshlar kezing, cho`l-u biyobonlar oralang-da, har biringiz ming donadan o`t-giyoh terib kelinglar.

Ibn Sino shunday dedi-da, har birining qo`liga xalta berdi. Oradan bir nehca kun o`tdi. Bolalarning birinchisi kelib, yiqqan giyohlarni Ibn Sinoning oldiga to`kdi. Hammasi shifobaxsh giyohlar edi. Buni ko`rgan Ibn Sino quvonib so`radi:

– Barakalla o`g`lim, eng **dorivor** giyohlarni teribsan. Endi bir savolimga javob bersang. Qani ayt-chi, oyoq **qabarishiga** nima davo bo`ladi?

– Mening tabiblikdan xabarim yo`q, – dedi bola, – sizga o`zim endi shogird tushdim-ku.

Ibn Sino: “Shu o`n kun orasida **nabotot** ichida yurib tabiblikdan **alifni** o`rganmabsanmi, sendan tabib emas, olibsotar chiqadi” – dedi ko`nglida. So`ng ovozini chiqarib:

– Senga javob, o`g`lim, ketaver! Borib olibsortarga shogird bo`l! – dedi.

Oradan bir kun o`tgach, ikinchi bola yetib kelib, to`plagan o`tlarni **hakimning** oyog`i ostiga to`kdi. Ibn Sino juda xursand bo`lib:

– Barakalla, bo`tam, qani menga ayt-chi, oyoq qabarganiga nima davo bo`ladi? – deb so`radi.

– Yovvoyi rayhon yoxud yalpizni suvda ivitib, ozgina **tosh tuzdan** qo`shib yuvish kerak, – javob qildi bola.

– Cho`l-biyobonda qolding-ku, suv topolmading deylik, chanqoqni nima bilan qondirish mumkin? – yana savolga tutdi Ibn Sino bolani.

– Yantoqning suvi chanqoqni qondiradi, ham **darmon** bo`ladi, – dadil javob berdi bola.

– Rahmat, o`g`lim, sen endi menga shogirdgina emas, farzand ham bo`lding!

**169-topshiriq. Matndagi ajratilgan so`zlarning ma'nolarini berilgan**

**izohlardan aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chirib yozing va qo‘llash uchun eslab qoling:**

- 1) faxrlanishga arziydigan narsa, biror ijobiy xislat, xizmat yoki talant tufayli xalq orasida taratilgan dong;
- 2) qani edi, koshki edi;
- 3) kasalliklarga davo bo‘ladigan va malham olinadigan yoki taomni xushxo‘r qiladigan modda;
- 4) o‘simpliklar dunyosi, o‘simpliklar;
- 5) ishslash, ishqalanish yoki kuyish natijasida bo‘rtma hosil bo‘lishi;
- 6) tirik organizmdagi quvvat, mador, kuch;
- 7) ko‘pincha, o‘tmishdagi o‘tkir tabib; donishmand, faylasuf.

<b>Sharaf</b>	1) faxrlanishga arziydigan narsa, biror ijobiy xislat, xizmat yoki talant tufayli xalq orasida taratilgan dong;
<b>Zora</b>	2) qani edi, koshki edi;
<b>Dorivor Tosh tuz</b>	3) kasalliklarga davo bo‘ladigan va malham olinadigan yoki taomni xushxo‘r qiladigan modda;
<b>Nabotot</b>	4) o‘simpliklar dunyosi, o‘simpliklar;
<b>Qabarish</b>	5) ishslash, ishqalanish yoki kuyish natijasida bo‘rtma hosil bo‘lishi;
<b>darmon</b>	6) tirik organizmdagi quvvat, mador, kuch;
<b>Hakim</b>	7) ko‘pincha, o‘tmishdagi o‘tkir tabib; donishmand, faylasuf.

**DARMON – [f. – dori, davolash vositasi]**

*1 Tirik organizmdagi energiya-quvvat, mador, kuch.*

*\*Qalam kuchi farmon bilan, Qilich kuchi darmon bilan. Maqol. Mana, xotinim yotib qoldi, yostiqdan boshini ko‘tarishga darmoni yo‘q. Oybek, Tanlangan asarlar.*

*\*Meni o‘zingday baquvvat deb o‘laysanmi Darmonim yo‘q, bolam, darmonim. S. Anorboev, Hamsuhbatlar.*

**HAKIM** – [a. • – dono, oqil, donishmand; tabib; faylasuf]

1 O'tkir tabib; vrach, doktor.

\*Qadimgi dunyo hakimlari kishi asabiga muzikaning ta'sirini alohida ta'kidlaganlar. **Gazetadan.**

\* Shu kasalga chalinganimda, bir hakimga bordim. U tomirimni ushlab: Sizniki kosib kasali, dalaga chiqing.. – dedi. **Oybek, Tanlangan asarlar.**

2 Donishmand, faylasuf.

\*Bir zamonda, – dedi dadam, – Aflatun degan bir hakim o'tgan ekan. Oybek, Tanlangan asarlar. Forobiy ulug' yunon hakiminining juda chigal falsafiy mulohazalari mag'zini chaqib bergen. **M. Osim, Ibn Sino qissasi.**

3 Hakim (erkaklar ismi).

**ALIF I** — a. ] Arab alifbosininng birinchi harfi va uning nomi.

\*Alifni kaltak (yoki tayoq) deyolmaydi yoki ichini (yoki qornini) yorsang, alif chiqmaydi. Butunlay xatsavodi, ma'lumoti yo'q, hech narsa bilmaydi. Akam faqirning qornini yorsang, alif chiqmaydiyu, tag'in falonu pis madon deganiga kuyaymi! P. Tursun, O'qituv chi. Yo'g'e, qanaqa qilib o'qirdim. Alifni kaltak deyolmaymanku. Oydin, Sadag'ang ketay komandir. Alif qomat Qadsiqomati kelish gan, xushqomat, sarvqomat. — Hayitjon To'la xonga ko'zimiz bilan ko'rlik, xudoga shukur: qoshi, ko'zi qunduzdek, burunlari bodomdek, qizil yuz, alif qomat, suqsurdek iigit ekan. **Hamza, Xolisxon.**

**NABOTOT** – [a. – o'simliklar]

1. O'simliklar dunyosi, o'simliklar.

\*Hujayraning topilishi shuni isbot qildiki, nabotot, hasharot va hayvonot – hamma tirik jismlar o'sib, ko'payib boruvchi organik kichik bo'laklar – hujayralardan iboratdir. «Umumiy biologiya».

2 – ayn. Botanika.

**DORIVOR** – [f. – shifobaxsh, dori bo'ladigan] – 1 – sft.

\*Turli kasalliklarga dori bo'ladigan yoki dori olinadigan. Dorivor o'simliklar. Dorivor moddalar. U dorivor giyohlarni tog'ma-tog' yurib topib kelar, quritar, katta-kichik hovonchalarda yanchib tuyar – dori tayyorlar edi. **K. Yashin, Hamza.**

\* O'simliklar dorivor moddalar manbaidir. Shunday moddalardan biri gul nektaridir. «**Fan va turmush**».

2 Ovqatni va ovqat mahsulotlarini xushxo'r qiladigan moddalar (zira, zirk, zarchuva, qalampir va sh.k.).

\* Murch ziravorgina emas, dorivor hamdir: u ovqatni yaxshi hazm qildiradi, terlatuvchi xususiyatga ham ega.. **Gazetadan**.

\* Supaning bir tomonini qog 'ozga o'ralgan murch, zarchuva, qalampir, zira singari dorivorlar, kashnich, ko'kpiyoz, jambil singari ko'katlar band qilgan. **A. Qahhor, Sarob**

\*. Ular – [savdogarlar] Rossiya bozorlariga Hindiston dorivorlari, Samarcand, Buxoro kosiblari to'qigan shoyi, atlas, zarbof, kimxob, baxmal olib borar edilar. **M. Osim, Elchilar**.

\* 3 – s.t. Turli texnologik jarayonlarda ishlatiladigan moddalar. Ko'nchilik dorivorlari. ..begona o'tlarni purkash yo'li bilan yo'qotish maqsadida kimyoviy dorivorlardan foydalanish kerak. **Gazetadan**

**ZORA** – f. G'amgin; yig'i, nola; baxtsiz] yukl.

\*Qani endi, koshki edi. Zora amirzodalar yarashishsa, juda ma'qul ish bo'lardi-da – dedi Me'mor]. **Mirmuhsin, Me'mor**.

\* Piyoda yuray, zora dilim yozilsa, degan o'y bilan yo'lka bo'ylab sekin odimladidi. **M. Xayrullaev**.

\* -Kel, jigarim, tezroq kel. Zora biron xushxabar keltirgan bo'lsang, – dedi Oynagul Farhodga. **A. Hakimov, Ilon izidan**.

**SHARAF** a. – izzat, hurmat, faxr; asilzodalik, yuqori martaba; yuksak o'rin

1 Faxrlanishga arziydigan narsa, yuksak qoniqish hissi; baxt, faxr, iftixor.

\* Shodlik bilan tug'ilib, sharafu obro' bilan o'tmoq – inson uchun baxt.

**Mirmuhsin, Me'mor**.

\* Katta bilim dargohining talabasi bo'lishdek sharafga muyassar bo'ldim. **Gazetadan**.

\* Turkiston musulmonlarining huquqlarini mudofaa eta biladigan to'rtbesh arbobi siyosat yetishsa, biz uchun sharaf emasmi **Oybek, Tanlangan asarlar**.

2 Biror ijobjiy xislat, xizmat yoki talant tufayli xalq orasida taratilgan dong; shuhrat, shon.

\*Paxtakor qahramonlarga shon va sharaflar bo‘lsin! Yuksak oq oltin xirmoni buniyod etish uchun kurash – sharaf, obro‘ uchun kurashdir. **Gazetadan.**

\* Abdurahmonning otasi ulamo naslidan, ammo bu sharaf nima sabab bilandir uning otasiga nasib bo‘lmagan. A. **Qodiriyl, Mehrobdan chayon.**

\*Sharaf bilan Yuksak iftixor bilan, shonsharafga arzirli tarzda. Xo‘jaligimiz dehqonlari o‘z zimmalariga olgan davlat topshirig‘ini sharaf bilan ado etdilar. «**O‘zbekiston qo‘riqlari**».

\*Sharafiga yoki sharafi uchun Biror kimsa yoki narsaning hurmati, e’tibori hisobga olinib, shunga bag‘ishlab, atab. O’shdagi qarorgohda bu oqshom sizlarning sharafingizga tantanali ziyofat berilur. P. **Qodirov, Yulduzli tunlar.**

\*Bu yodgorlik Markaziy Farg‘onani o‘zlashtirganlar sharafiga Bektosh Rahimov tashabbusi bilan o‘rnatilgan. «**O‘zbekiston qo‘riqlari**».

3 Sharaf (erkaklar ismi).

### 83-dars

## UYUSHIQ BO‘LAKLI GAPLARDA UMUMLASHTIRUVCHI SO‘Z VA UNDA OHANG HAMDA TINISH BELGILARI

**175-topshiriq.** Berilgan izohlardan a) *childirma*, b) *munaqqash*, c) *taxmon*, d) *sipar*, e) *chakmon*, f) *qandil* so‘zlarining ma’nolarini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chiring va qo‘llash uchun eslab qoling:

- 1) naqshlangan, naqshli, naqshdor;
- 2) bir necha sham yoki lampochka qo‘yiladigan oyoqli yoki osma chiroq; chilchiroq, lyustra;
- 3) yog‘och gardishga teri qoplab yasalgan, chertib chalinadigan musiqa asbobi; doira, chirmanda, daf;
- 4) uy yoki ayvon devorida: sandiq o‘rnatib, ustiga ko‘rpa-to‘shak yig‘ib qo‘yiladigan tokchasimon maxsus joy;
- 5) qalqon,sovut; o‘q, nayza, qilich kabi qurollar zarbidan saqlanish uchun qo‘llangan, ko‘pincha, doira shaklidagi qadimiy aslaha; qalqon;
- 6) odatda, jun matodan tikiladigan erkakcha uzun qishki to‘n.

b) *munaqqash*

1) naqshlangan, naqshli, naqshdor;

<i>f) qandil</i>	2) bir necha sham yoki lampochka qo‘yiladigan oyoqli yoki osma chiroq; chilchiroq, lyustra;
<i>a) childirma</i>	3) yog‘och gardishga teri qoplab yasalgan, chertib chalinadigan musiqa asbobi; doira, chirmanda, daf;
<i>s)taxmon</i>	4) uy yoki ayvon devorida: sandiq o‘rnatib, ustiga ko‘rpa-to‘sak yig‘ib qo‘yiladigan tokchasimon maxsus joy;
<i>d)sipar</i>	5) qalqon,sovut; o‘q, nayza, qilich kabi quollar zarbidan saqlanish uchun qo‘llangan, ko‘pincha, doira shaklidagi qadimiy aslaha; qalqon;
<i>e) chakmon</i>	6) odatda, jun matodan tikiladigan erkakcha uzun qishki to‘n.

**CHILDIRMA** – *Yog‘och gardishga teri qoplab yasalgan, chertib chalinadigan musiqa asbobi; doira, chirmanda, daf. Katta childirma. Childirma bazmi. Childirma chalmoq.*

\**To‘y juda gavjum – qo‘sh childirmaning gjibangi hammayoqni tutdi. Mirmuhsin, Jabrdiyda. Xushvaqt bo‘lib, childirmalar chalaylik. «Yusuf va Ahmad».*

## 84-85-dars

### MATN VA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH

**176-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o‘qib chiqing.

### QIL USTIDA TURGAN TAQDIRLAR

Mulla Fazliddin ertalab podshoh in’om qilgan **to‘bichoq** otni mindi-da, shahar **dorug‘asi** qabul qiladigan mahkamaga yo‘l oldi. Uzun Hasan ismli ingichka, novcha dorug‘a askarlikka odam olish va shaharni yaqinlashib kelayotgan dushmanidan himoya qilish tashvishi bilan band ekan. Mulla Fazliddinning arzini qayoqqadir ketmoqchi bo‘lib shoshilib turgan paytda tingladi-da:

– Tarhlaringizga tegmay, hamyoningizni olib ketgan bo‘lsa, bu – to‘qaydan chiqqan o‘g‘rilarning ishi, – dedi. – **Yog‘iy** tashvishidan qutulsak, to‘qaylarni o‘g‘rilardan tozalagaymiz... Hozir ahvolni ko‘rib turibsiz!..

Qo‘l qovushtirib tikka turgan mulla Fazliddin dorug‘aga yaqinroq keldi:

– Mening boshqa gumonim bor, janob dorug‘a, – dedi. So‘ng Ahmad Tanbalning surat chizdirmoqchi bo‘lganini, rad javobi olganda esa achchiqlanib ketganini aytib berdi.

– Kimning surati? – deb dorug‘a qiziqib qoldi.

Mulla Fazliddin Xonzoda beginming nomini tilga olishga qo‘rqdi.

– Parilar suratimidi? Yaxshi tushunmadim.

– Sandig‘ingizda parilar surati bormidi? Bosqinchilar shuni olib ketibdirmi?

– Surat o‘zi bo‘lmasa, neni olib ketsin! Men hazrati oliylari buyurgan madrasa tarhini chizish bilan bandmen. Suratkashlikka vaqtim yo‘q. Sandiqda xomaki loyihalarim bor edi, xolos.

– Ular joyida qolganmi, axir? Undoq bo‘lsa Ahmadbekdan nechun gumonsiramoqdasisiz?

– Sababini aytdim, janob dorug‘a! **Taftish** o‘tkazishingizni so‘raymen!

– Ahmadbek – sultonlar avlodidan ekanini unutgan bo‘lsangiz, men eslatib qo‘yay. Hazrati oliylarining katta xotinlari Fotima begin Ahmadbekka qarindosh bo‘urlar. Fotima beginning chaqirig‘i bilan Sulton Ahmadbek bugun **azonda** poytaxtimiz Axsiga ketdilar.

“Agar o‘sha bek sandiqdagagi suratlarni qo‘lga tushirsa, Axsiga eltib, podshoh oilasiga ko‘rsatmoqchi bo‘lganmi? – degan o‘y mulla Fazliddinning ichini muzlatib o‘tdi. – Bular mening qonimga shunchalik tashnami? Balki Ahmad Tanbal Xonzoda beginni ham shu surat orqali qo‘lga tushrimoqchidir? Hali uylanmagan bu bek podshoga kuyov va Xonzoda begindek go‘zal qizga er bo‘lishni jon-dili bilan istasa kerak!”

**177-topshiriq.** Matndagi ajratilgan so‘zlarning ma’nolarini quyidagi izohlardan aniqlab, ko‘chirib yozing va eslab qoling:

To‘bichoq	1) chopqir, yo‘rg‘a ot;
Dorug‘asi	2) shahar posbonlari sardori;
Taftish	3) bo‘lib o‘tgan ish, hodisa va shu kabilar yuzasidan yoki haqiqiy ahvolni aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan

	tekshiruv;
<b>Tarh</b>	4) chizma lavha: loyiha, reja;
<b>Yog‘iy</b>	5) dushman, g‘anim;
<b>Azon</b>	6) namoz o‘qishga chaqiriq; tong yorishish, g‘irashira payti; erta tong.

<i><b>AZON — namozga chaqirish]</b></i>
1). <i>Din. Namoz o‘qishga chaqiriq.</i>
* <i>Masjiddan shom azo ni eshitildi. Sh. Toshmatov, Erk qushi.</i>
* <i>Shu kur so ‘fi mezanaga chiqib, azon aytdi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.</i>
2. <i>Tong yorishish, g‘irashira payti; erta tong.</i>
* <i>Shu bo ‘yi tuni bilan yig ‘lab chiqibdi, so ‘ng, “senday erga tekkuncha, qora yerga tegib qo ‘ya qolay” deb, azonga yaqin bir iloj qilib qochibdi, — dedi Davlatyor. P. Tursun, O‘qituvchi.</i>
* <i>Qulog‘iga azon aytmoq etn. Yangi tug‘ilgan chaqaloqning qulog‘iga tegishli duolarni o‘qimoq. Katta bobosi uning qulog‘iga azon aytib, tanglayini ko ‘tardi. Mirmuhsin, Me’mor.</i>
* <i>So ‘fi azon aytmasdan Juda barvaqt, tong saharda. So ‘fi azon aytmasdan nima qilib yuribsan — Kunlardan bir kun, so ‘fi azon aytmasdan, o‘rnimdan turib.. Shukrullo, Javohirlar sandig‘i.</i>

<i><b>TAFTISH – [a. – izlash, qidirish; tekshirish, nazorat qilish]</b></i>
1 esk. Bo‘lib o‘tgan ish, hodisa va sh.k. yuzasidan yoki haqiqiy ahvolni aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan tekshiruv, tergov, so‘roq. Rejali yillik taftish. Taftish komissiyasi.
* [Navoiy-] Taftishlar shuni ko‘rsatadiki, Yodgorbek qo‘zg‘olonida bu odamning ham qo‘li bo‘lgan. <b>Uyg‘un va I. Sulton, Alisher Navoiy.</b>
* O‘g‘lingiz sizdan yashirib, Hamza hojining bedin mакtabiga qatnarmish deb eshitaman, shu rostmi -Taftish qildim, taqsir, qatnar ekan. <b>K. Yashin, Hamza.</b>
2 esk. Qidiruv, tintuv.
*O‘g‘rilar tutilsin, dorga osilsin! Har bir xonodon taftish qilinsin. <b>J. Sharipov, Xorazm.</b>

3 Biror muassasa yoki mansabdar shaxsning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining to'g'riliqi, qonuniyligini aniqlash maqsadidagi tekshiruv. Birinchi taftish yuzaki o'tkazilgani haqida e'tirozlar tug'ilgach, respublika agrosanoat komitetidan mutaxassis chaqirishdi. «**Mushtum**».

\*Taftish qilmoq (yoki etmoq) – o'tkazmoq (taftish har uchala ma'nosida). Partbyuro Og'ajonning arizasini taftish etish yuzasidan komissiya tuzdi. S. Karomatov, Oltin qum.

\* Eshmamat Ashurovning ish faoliyati taftish qilinganda, ming so'mga yaqin kamomad aniqlandi, ish haqidan 2138 so'm ortiqcha olingan. «**Mushtum**».

### **TARH II – [a. – qurilish, imorat, bog'ning bichimi, loyihasi]**

1 Chizma lavha; loyiha, reja. Qog'ozdag'i shakl – binoning tarhi edi. **Oybek, Navoiy.**

\* Mavlono Fazliddin mana shu shaharda qurmoqchi bo'lgan madrasa va saroy tarhini Xonzoda beginiga ko'rsatib, uning maqtovini eshitgan yorug' kunlarini esladi-yu, yuragini armon g'ijimlab o'tdi. **P. Qodirov, Yulduzli tunlar.**

\* ..yozgi xo'jaligining bor tarhigacha eslab qolgandi. **N. Norqobilov, Bekatdagi oq uycha.**

2 ko'chma Tuzilish, bichim.

\* Qizning tarhi toza gul yanglig'; Javdirabon boqar shahlo ko'z. **M. Ali, Boqiy dunyo.**

### **DORUG'A – [t. shahar posbonlari sardori.]**

#### **86-dars**

#### **AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLAR**

**169-topshiriq.** Berilgan izohlardan a)munshiy, b) ibrido, s)g'aniy, d)instinkt so'zlarining ma'nolarini aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va qo'llash uchun eslab qoling:

- 1) kotib, ish yurituvchi;
- 2) avval, boshlanish; 3) boy, nafsi ni tiygan; 4) tug'ma sezgi.

<i>a) munshiy</i>	1) kotib, ish yurituvchi;
<i>b) ibtido</i>	2) avval, boshlanish;
<i>s) g‘aniy (so‘z ma’nosini to’liq yoritmasligi mumkin).</i>	3) boy, nafsiyi tiygan;
<i>d) instinkt</i>	4) tug‘ma sezgi.

**MUNSHIY** – [a.– asoschi, yaratuvchi; quruvchi; muallif, tuzuvchi, yozuvchi] – tar. Saroyda yozuv ishlarini olib boradigan kotib.

\*Anvar devonxona sahniga yetganda, ichkaridagi kattadan-kichik mirzo, munshiyalar yangi boshliqlarini muborakbod qilgali o‘rinlaridan qo‘zg‘aldilar. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

**IBTIDO** – [a. – boshlash; boshlang‘ich nuqta] – kt. Biror narsa, ish-harakat, voqyea-hodisa va sh. K. Ning avvali, boshlanish davri; zid. Intihon.

\*Voqyeaning ibtidosi va intihosi. Fan esa o‘z ibtidosidanoq moddiy dunyonni tadqiq etishga yo‘naltirilgan bo‘lib.. **Gazetadan**.

\*Durust, u.. endi tabiat sirlarining ibtidosini biladi. **O. Yoqubov, Ko‘hna dunyo**.

**INSTINKT** – [lot. Instinctus – qo‘zg‘atish; ishontirish; ilhom]

1 biol. Tirik organizmning tashqi va ichki muhit ta’sirlariga nisbatan ongsiz ravishda, ammo tug‘ma, maqsadli harakatlari yig‘indisi; bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tug‘ma reflekslar.

\* Menga qarshi gapirish instinct bo‘lib qolibdi Sizga. **A. Muxtor, Tug‘ilish**.

2 His-tuyg‘u; tabiiy mayl, intilish.

**G‘ANI** – a. – boy]

1). esk. kt. Boy, badavlat, davlatmand.

Sen g‘anisan, menda bisyor ehtiyoj. **Nodira**.

– Eshon – So‘zlangiz, Mirsiddiqboy maxsum, Qo‘qonda ahli savdodan g‘anilar, zanginlar mo‘lmi? **Oybek, Ulug‘ yo‘l**.

2). G‘ani (erkaklar ismi).

## 87-88-dars

### AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLARDA OHANG VA TINISH BELGILARI

#### Uyga vazifa

##### **175-mashq.** Tinish belgilarini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Hozir Humoyunning fili yonida birgina inisi oq otliq Hindol mirzo bormoqda.
2. Said Xalil **mehrobda** turgan charm muqovali ulkan kitob Qur'onga ko'z tashlab, go'yo undan madad olgan bo'ldi-yu ovoziga sehrli tus berdi. 3. Said Xalil esa yana orqa qatorda ahli saodat uchun ajratilgan ikkinchi darajali "Osoyish" kemasida o'ltilishga majbur. 4. Chand bibi qilich taqqan beshafqat ayol haram bekasining ixtiyorida qoldi.
5. Jamna bo'yiga yuvinishga borsa, boshqa afsonaviy daryo Sarasvati yodiga tushadi.
6. Humoyunning chodiri turgan balandlikdan Gangaga kelib qo'shiladigan yana bir daryo Karamnasa ham ko'rindi. (P.Qodirov. "Avlodlar dovon'i")

##### **183-topshiriq.**

a)*Fozila*, b)*kutval*, s)*navkar*, d)*tolor*, e)*eshkakchi*, f)*ko'shk*, g)*mehrob*, h)*haram*,

I) **chodir so'zlarining ma'nolarini berilgan izohlar orasidan aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va eslab qoling:** 1) ilm-fan asoslarini yaxshi egallagan ayol; olima;

- 2) shahar hokimi;
- 3) o'tmishda harbiy xizmatkor, askar;
- 4) yog`och yoki yengil metall panjaradan qilingan ayvon;
- 5) odam va yuklarni daryordan o'tkazishni o'ziga kasb qilib olgan kishi; qayiqchi;
- 6) qadimda baland, bahavo qilib solingan yengil imorat;
- 7) masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy (namoz shu tomonga qarab o'qiladi).

a) <i>Fozila</i>	1) ilm-fan asoslarini yaxshi egallagan ayol; olima;
b) <i>kutval</i>	2) shahar hokimi;

<i>s)navkar</i>	3) o‘tmishda harbiy xizmatkor, askar;
<i>d)tolor</i>	4) yog` och yoki yengil metall panjaradan qilingan ayvon;
<i>e)eshkakchi</i>	5) odam va yuklarni daryodan o‘tkazishni o‘ziga kasb qilib olgan kishi; qayiqchi;
<i>f)ko‘shk</i>	6) qadimda baland, bahavo qilib solingan yengil imorat;
<i>g)mehrob</i>	7) masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy (namoz shu tomonga qarab o‘qiladi).

<b>FOZILA</b> – [a. – <i>fozil ayol</i> ]
<i>1-Ilm-fan asoslarini yaxshi egallagan ayol; olima.</i>
* <i>Oqila va fozila ayollarining barchasida ajib tarovat, baxtidan shukronalik.. sezilib turadi. Gazetadan.</i>
* <i>Begim oy desa oydek, kun desa kundek, oqilayu foziladirlar. P. Qodirov, Yulduzli tunlar.</i>
2 <i>Fozila (xotin-qizlar ismi).</i>

<b>NAVKAR</b> – [mo ‘g’. No ‘xo ‘r – do ‘st, o ‘rtoq; er]
<i>1 – tar. Harbiy xizmatkor, askar. Husayn Boyqaro «Bog‘i Shimol» darvozasi yaqinidagi.. chodir ichida ikki-uch navkari bilan o‘tirardi. M. Osim, Sehrli so‘z.</i>
* <i>Mashina g‘uv etib, avtomat ushlagan navkarlar yonidan o‘tib, shaharga chiqib ketdi. Mirmuhsin, Chodrali ayol.</i>
2 <i>ko ‘chma Xizmatkor, xodim. Rais dala begi emas, dala navkari. Oybek, O. V. Shabadalar.</i>

<b>ESHKAKCHI</b> – 1 <i>Odam va yuklarni daryodan o‘tkazishni o‘ziga kasb qilib olgan kishi; qayiqchi.</i>
* <i>Qayiq sohilga chiqqach, eshkakchi qayiqni tolning poyasiga bog‘laydi. A. Eshonov, Hikoyalar.</i>
2 <i>Eshkak uruvchi, eshkak tortib, qayiqni haydaydigan kishi; qayiq haydovchisi.</i>

\* Bizning qayiqda mohir eshkakchi bo‘lmagan odam ortiqcha yuk. A. Qahhor, **Qo‘shchinor chiroqlari.**

**KO‘SHK** – [turkiy + f. – dalahovli; shahar tashqarisidagi qasr]

\*Qadimda baland, bahavo qilib solingan yengil imorat.

\* Xorazmbog‘ yodgorligi Xorazm hokimining shahar chetidagi yozgi ko‘shki bo‘lganligini ko‘rsatdi. **I. Jabborov, Ko‘hna xarobalar siri.**

\*Mehmonlar qadimiylar ko‘shklarni eslatuvchi ikki qavatli bino oldiga kelib to‘xtashdi. **E. Usmonov, Yolqin.**

**MEHROB** – [a. – ibodatxona; tokcha, taxmon tepasining yarim doira qilib ishlangan qismi]

1 Masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy (namoz shu tomonga qarab o‘qiladi).

\*Hujraning ichi qorong‘i bo‘lmasa ham, qoidaga binoan, g‘arb tomonidagi mehrobga sham yoqib qo‘yilgan edi. **P. Qodirov, Yulduzli tunlar.**

\* U mehrobga yetib kelgach.. yarim qorong‘i xonada.. tasbeh o‘girib o‘tirgan uch-to‘rt kishiga ko‘zi tushdi. **Mirmuhsin, Me’mor.**

2 – ayn. Taxmon. Ko‘rpani mehrobga yig‘ib qo‘ymoq.

3 ko‘chma Biror narsa, joyning to‘ri, to‘r tomoni. Vatan – sen yuragim, yuragim sensan. Yuragim mehrobi – muqaddas Vatan. **G. Jo‘raeva.**

\* Otashin barq yondi gulrang charxning mehrobida. **E. Vohidov.**

**HARAM** – [a. – xos, begonalar kirishi man etilgan joy; muqaddas, aziz joy; xotinlar; ayollar]

1 – din. Muqaddas deb ajratib qo‘yilgan, kirish taqiqlangan joy (mas., Makka shahrida Muhammad payg‘ambarning maqbarasi).

2 tar. Hovlining ayollar uchun ajratib qo 'yilgan qismi, ichkari (asosan, oliv, yuqori mansabdarlar xonadonlarida).

\*Xon a 'yonlarga ruxsat berib, haramga kirgan, o 'rdaning kunduzlik xodimlari tarqalishib, faqat kecha beklari, xon soqchilar, doimiy xodimlar qolgan edilar. **A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.**

\*Go 'ro 'g 'li ana shunday nasihatlarni qilib, o 'zi haram sari qarab ketdi. «Gulixiromon» Haram og 'asi – Haramdagi xotin-qizlarni kuzatib yuruvchi

bichilgan qul. U bir necha kun haram ichidagi hujrada yotadi. O 'ziga kelgach, shu hovlida haram og 'asi bo 'lib ishlab yuradi. **Mirmuhsin, Me'mor.**

**CHODIR** – [f. – kapa, bostirma; yopinchiq]

1 Matodan qurilgan kapa; palatka. Chodir tikmoq. Chodir qurmoq.

\*Qutaybaning chodiri, taomilga ko 'ra, baland tepalikka joylashgandi. **Z. A 'lam, Zarb.**

\*Azizzon o 'sha kuni kechasi chodirda yotmay, Orzixon ayanikiga ketdi. **S. Ahmad, Ufq.**

2 – etn. Go 'shanga, chimildiq.

\*Xushro 'y, chodirdan chiqmasdanoq, choy tashib, xizmat qilib yurgan kundoshiga kesatiq bilan hujum boshlaydir. **A. Qodiriy, O'tgan kunlar.**

3 – etn. Ayollar paranji o 'rnida yopinadigan maxsus yopinchiq; chodra.

\* Bir vaqt qaerdan ham ustiga qora chodir yopingan Yosuman paydo bo 'larmish. **M. Ismoiliy, Farg'ona t. O.**

\*Qara, uning ko 'ksida yulduz – Mehnatidan bo 'lmish qahramon. Sen-chi, nechun chodir ichida Qolib ketding, azizim, hamon **Zulfiya**.

4 ko 'chma Parda, yopinchiq; urtuk. Yuksak daraxtlarning uchlari quchoqlashib, muazzam yashil chodir yasagan. **Oybek, Quyosh qoraymas.**

\* Hamma yoqni oppoq qor qoplagan, havoni kulrang bulut chodiri to 'sib olgan bir kun edi. **P. Tursun, O'qituvchi.**

5 Meva qoqqanda tagiga tutiladigan katta mato. To 'rttasi chodir tutadi, bittasi tovoqqa chopadi. «**Qo 'shiqlar**».

\* Habiba buvi qirq yamoq bo 'lib ketgan chodirni olib chiqadi. Kamida o 'ttizta bola qaldirg 'ochdek tizilib, chodirning to 'rt tarafidan ushlab turadi. «**Yoshlik**».

## **89-90-darslar. NAZORAT ISHI VA TAHLILI 91-dars KIRITMALAR (KIRISH SO'ZLAR)**

**188-topshiriq.** *Nosih, tizgin, nuqson, tama, tamiz, raso, xalifa* so'zlarining ma'nolarini izohlardan aniqlab, lug'at daftaringizga ko'chiring va qo'llash uchun eslab qoling:

<b><i>Nosih</i></b>	1) nasihatgo'y;
<b><i>Nuqson</i></b>	2) kishi nomiga nomunosib, uni salbiy jihatdan ko'rsatadigan belgi;kamchilik, illat, qusur, ayb;
<b><i>Tizgin</i></b>	3) hayvonlarni bog'lash yoki qantarib qo'yish uchun xizmat qiladigan, uchi sovliqqa yoki boshvoqqa biriktiriladigan uzun tasma yoki chizimcha; boshqarish vositasi;
<b><i>Tamiz</i></b>	4) o'z bilmi. Aqli, farosati bilan tegishlicha ish tutish qobilyati; fahm, farosat;
<b><i>Tama</i></b>	5) birovdan bir narsa undirish hissi, o'ziniki qilish, olishga bo'lgan intilish; umidvorlik, umid ilinj;
<b><i>Raso</i></b>	6)kami yo'q, to'liq, but;
<b><i>Raso</i></b>	7) aqliy jihatdan to'la rivojlangan, kamolatga erishgan; yetuk, barkamol;
<b><i>Xalifa</i></b>	8) musulmonlar jamoasi va musulmon davlatining diniy, ayni bir paytda dunyoviy boshlig'i.

***TIZGIN - 1 Ot, eshak va b. hayvonlarni bog'lash yoki qantarib qo'yish uchun xizmat qiladigan, uchi suvliqqa yoki boshvoqqa biriktiriladigan uzun tasma yoki chizimcha.***

***Sherbek egardan sakrab tushdi. Otning tizginini panjaraga bog'lab, cho'chqaxonaga qarab yurdi. S. Anorboev, Oqsoy.***

2 s. t. Jilov. Ovchilar xiyla ilgarilab ketdi. Juvon tizginni sal bo'shatgan edi.. toy birdaniga ko'tarilib ketdi. **A. Qahhor, Xotinlar.**

Rais otidan tushib, tizginni bilagiga soldi-da, ariqdan yuzini yuvdi. **H. Nu'mon, Fasllar.**

3 ko'chma Boshqarish vositasi, boshqaruvi. Yoshlarda hayo yo'q. Yo'q, ayb onasida, tizginini bo'sh qo'ydi. **A. Ubaydullaev, Hayot oqimi.**

O'rta Osiyodagi irrigatsiya inshootlarining tizgini uning qo'lida. **A. Abduqodirov, Bo'zsuvdan Sirdaryogacha.**

-Tabiatimni lanj qilgan ba'zi nuqsonlarni hisoblamasam, men safarimdan xursandman, – suhbat tizginini o'z qo'liga oldi afandi. «**Mushtum**».

#### **NUQSON** - [a. – kamayish, ozayish; kamchilik, nuqs]

1 Kishi nomiga nomunenosib, uni salbiy jihatdan ko'rsatadigan belgi; kamchilik, illat, qusur, ayb.

Uning bir nuqsoni – yolg'onchiligi. Qizini yer-ko'kka ishonmagan, uning butun nuqsonlarini bir fazilat deb bilgan onasi.. bu qizni katta shavkat va dabdaba bilan uzatishni orzu qilar edi. **Oybek, Tanlangan asarlar.**

2 Jismoniy yoki ruhiy kamchilik, illat.

Uning bir nuqsoni bor: sal oqsab yuradi.

3 Sifat jihatidan yetishmovchilik, kamchilik, kam-ko'st. Yog'ochning nuqsonlari. Ishdag'i nuqsonlar.

#### **TAMA** - [a. – kuchli istak, tilak, orzu; hirs, ochkuzlik,] (oxirgi a – cho'ziq)

1 Birovdan bir narsa undirish hissi, o'ziniki qilish, olishga bo'lgan intilish. ..undagi shuhratparastlik, tama oldida podshohlarga tiz cho'kishdan ham.. qaytmasligini ko'pchilik bilardi. **Mirmuhsin, Me'mor.**

Mansabingdan manfaat, dasturxonning tama izlab yondashgan – do'st emas. **R. Usmonov, Umr saboqlari.**

2 Umidvorlik, umid, ilinj. -Balki begingizning tamalari xon qizidadir, – dedi istehzo bilan Homid. **A. Qodiriy, O'tgan kunlar.**

Tama qilmoq - 1) birovdan biror narsa kutmoq, birovdan o'lja olishga intilmoq, ko'z tikmoq.

Bir-birlaridan hyech narsa tama qilmay do'stlashishlari ikkovini ham chi-nakam baxtiyor qilardi. **P. Qodirov, Uch ildiz.**

*Maxdum bu yerda o'qiyotgan ikki mullavachcha uchun Qorabuloqdagi vaqfdan ham tama qilmoqda edi. **M. Ismoiliy, Farg'ona t. o.;***

*2) umidvor bo'lmoq, umid qilmoq; tolib bo'lmoq.*

*Shuncha azamat yigit turganda, sen bola, posyolkaning old qiziga tama qilib kelsanga! **P. Qodirov, Qadrim.***

**TAMIZ** - [a. – imtiyoz berish; farqlash; sog'lom fikr; fahm-farosat]

*O'z biligi, aqli, farosati bilan tegishlicha ish tutish qobiliyati; fahm, farosat. Tamizi yo'q odam.*

*-Tamizi bo'lsa, o'shaning o'zi kaltak, – dedi-da, birpas quloq berib o'tirdi. **R. Fayziy, Hazrati inson.***

*Bu fakt va dalillar oldida o'jarlik qilish aql va tamizdan emas. **A. Hakimov, Ilon izidan.***

**RASO** - [f. – to'liq, butun, yetarli; mukammal]

*1 Kami yo'q, to'liq, but. Raso pachkalar. Pul raso chiqdi.*

*- [Alisherning] Ketganiga bugun raso bir oy bo'ldi. Nega buncha hayalladi ekan Uyg'un va **I. Sulton, Alisher Navoiy.***

*2 Aqliy jihatdan to'la rivojlangan, kamolotga erishgan; yetuk, barkamol.*

*Xotin bo'lsa qobilu aqli raso, Erin shoh etar, garchi bo'lsa gado. «**Aql aqldan quvvat oladi**».*

*Usmonali aka yer ilmini hammadan ko'ra yaxshi biladigan aqli raso odamga o'xshaydi. **S. Ah-mad, Cho'l shamollari.***

*Raso qilmoq 1) but qilmoq, to'ldirmoq, rasolamoq. Pachkani raso qilmoq;*

*2) voyaga yetkazmoq, kamolotga erishtirmoq, yetiltirmoq.*

*Aftidan, bularni mashq qildirishga, mashqini tezroq raso qilib, frontga jo'natishga hech kim shoshilmas va lozim ham ko'rmas edi. **A. Qahhor, Oltin yulduz.***

*Qaddi raso Qaddi, bo'yi-basti kelishgan, qomatli. Eshon aya qaddi raso, ko'zidan surma, yuzidan upa-elik arimagan ko'hlik bir xotin edi. **S. Ahmad, Saylanma.***

*3 Butunlay, tamoman.*

**XALIFA** - [a. – o'rinbosar; noib]

1 tar. Musulmonlar jamoasi va musulmon davlatining diniy, ayni bir paytda dunyoviy boshlig'i; ruhoniy hukmdor; Muhammad payg'ambarning vorisi, Allohning yerdagi noibi hisoblangan.

Lekin - [Tangriqul hoji] xalq orasida: «Xalifai Rum Buxoroga keldi, Ergash qo'rboishi borib, musulmonobod yo'lida g'azot qilgani xalifadan fotiha va yuz ming sarboz olib keldi», deb gap tarqatibdi. A. **Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.**

Abdishukur davom etdi so'zida: -Butun olami islomning xalifasi Sulton hazratlari bu urushda tanho qoldilar. **Oybek, Tanlangan asarlar.**

2 Buxoro xonligida: shariat aqidalarining bajarilishini tekshirib turuvchi mansabдор shaxs.

Abdurahmon sardor keyingi choynakni bo'shatgandan keyin, qaytmoqchi bo'lib, xalifadan fotiha so'radi. **S. Ayniy, Qullar.**

### **NASIHATGO'Y - [nasihat + f. – aytuvchi]**

*Nasihat beruvchi, nasihat qiluvchi. Nasihatgo'y odam.*

*Elmurod hamma vaqt muloyim va nasihatgo'y bu ayolning bu qadar hayajonga tushganini hyech qachon ko'rмаган edi. P. Tursun, O'qituvchi.*

## **94-dars**

### **MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH**

**192-topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qib chiqing.**

### **BERUNIYNING DAM OLISH KUNLARI**

Beruniy yiliga ikki martagina dam olar ekan. Birinchisi – Navro`zi olam kirgan kuni, ikkinchisi – bug`doyga o`roq tushganda... Dillarni xushnud etib Navro`zi olam yetib kelgan kuni erta tongdanoq o`rinlaridan turib, yuvinib-taranib, yaxshi liboslarini kiyib, qarindosh-urug`larni, keyin yor-u birodarlarni **ziyorat qilib**, holidan xabar olar ekanlar, ular bilan birga bo`lib suhbatlashar, hazil-mutoyiba qilar, askiyalar aytishar ekanlar. Keyin to qosh qorayguncha **qo'sh qo'hishar**, yerga birinchi **omoch** solishda qatnashar, nihol ekisharkan... Hol-ahvol so`raganlarga: “Dam olib, hayot lazzatini totib ko`rmoqdamman”, - deb javob berar ekanlar. Boshoqqa birinchi o`roq tushgan

kuni ham dehqoncha libos kiyib olib, qo`llariga o`roq tutib azondan to kechgacha bug`doy o`rar ekanlar. Olimni ko`rganketganlar bilan: “Horma, bor bo`l,” – qilishsa ham: “Dam olib, rizqimni teryapman”, - deb javob berar ekanlar. Qarang-a, ulug` alloma mutolaa, kitob yozish, tajriba o`tkazishdan yiliga ikki kun vaqt ajratib azondan to kechgacha qo`sh qo`shib, shudgor qilishni, o`roq o`rishni o`zi uchun dam olish deb bilar ekan.

Ha, Beruniy: “Bir daqiqa vaqtini behuda o`tkazganim, halok bo`lganim”, – der ekan.

**193-topshiriq.** Berilgan izohlardan matndagi ajratilgan so`zlarning ma’nolarini aniqlab, lug‘at daftaringizga ko‘chirib yozing va eslab qoling:

- 1) muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib sig‘inish; hurmat yoki rasmiyat yuzasidan tabarruk kishilar huzuriga tashrif buyurib, holidan xabar olish;
- 2) ulov qo’shib yer haydaladigan, metall tishli qadimgi eng oddiy yog‘och yoki temir asbob. (*Javob*)

<b>Ziyorat qilmoq.</b>	1) Muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib sig‘inish; hurmat yoki rasmiyat yuzasidan tabarruk kishilar huzuriga tashrif buyurib, holidan xabar olish;
<b>Omoch (qo’sh qo’shish).</b>	2) ulov qo’shib yer haydaladigan, metall tishli qadimgi eng oddiy yog‘och yoki temir asbob.

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**TOJIXON SABITOVA, AKBAR KAROMATOV**

**ONA TILI. 8-SINF O‘QITUVCHILARI UCHUN USLUBIY QO‘LLANMA**

(Maktab o‘qituvchilari uchun uslubiy qo‘llanma)

Muharrir Davron Ulug‘murodov  
Dizayner Bekzod Haydarov

Босишига руҳсат этилди: 03.07.2023 й.

Бичими 60x84  $\frac{1}{16}$ . Офсет қоғози.

Офсет босма усулида босилди.

«Times» гарнитураси.

Нашр табоғи 5,5. Адади 300 нусха.

Оригинал макет “FIRDAVS-SHOH” нашриётида  
тайёрланди. Тошкент ш., Olmazor tumani, Harakat-3, 10-A.  
Тел.: 90-372-85-17